

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

SALIYEVA MUHABBAT KUSHANOVNA

**SIYOSIY KOMMUNIKATSIYANING DAVLAT VA
JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI**

MONOGRAFIYA

Toshkent – 2024

UO‘K: 32:351/354:070.133(575.1)

KBK: 76.01

©-27. Saliyeva Muhabbat. siyosiy kommunikatsiyaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ahamiyati Monografiya. – Toshkent: “Publishing high future”, 2024. – 193 b.

KBK 76.01

Globalashuv sharoitida davlat va jamiyat boshqaruvining interaktiv uslublarini joriy qilishda siyosiy kommunikatsiyalar bilan bog‘liq zamonaviy muloqot texnologiyalari va uslublarining samaradorligi aniqlangan holda davlat va jamiyat o‘rtasidagi kommunikativlikni tizimli boshqarishda siyosiy kommunikatsiya usullaridan foydalanishning ahamiyati ilmiy isbotlangan.

Davlat boshqaruvi sohasida kommunikativ aloqa va munosabatlarning raqamli platformalar doirasida qo‘llanilishi bilan bog‘liq funksional jihatlari, texnologik va samaradorlikka asoslangan tamoyillari va ijtimoiy mexanizmlari ishlab chiqilib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasida boshqaruv maktablarining tashkil topishi va kommunikativ funksiyalari tarixini tahlil qilishda siyosiy kommunikatsiyaning ahamiyati, boshqaruvda insonparvarlik, etika, xulq-atvor, sotsiologik, yuridik va huquqiy usullardan foydalanilgani ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Siyosiy kommunikatsiya tizimida umuminsoniy g‘oyalar talqini, ulardagi yangi tadqiqotlar va mamlakatlar mentalitetiga xos shakldagi davlat boshqaruvida sharqona liderlik mahorati, nazariy va metodologik asoslari ochib berilgan.

Monografiya siyosatshunos va jurnalistika yo‘nalishi tadqiqotchilari, magistr va talabalar uchun qiziqarli manbalarga ega.

Mas’ul muharrir:

A.X. Saidov, yuridik fanlar doktori, akademik

Taqrizchilar:

S.A. Jo‘rayev, siyosiy fanlar doktori, professor

S.F. Ubaydullayeva, siyosiy fanlar doktori, dotsent

Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2023-yil 28 oktabrdagi 3-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-9035-5-7

© Muhabbat Saliyeva.

© “Publishing high future” OK nashriyoti, 2024.

KIRISH

Jahon tsivilizatsiyasi rivojida dunyo xalqlarining ilm-fan va madaniyat sohasida erishgan yutuqlari muhim o‘rin tutadi. Bu borada Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O‘zbekiston jahon taraqqiyotiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan. Sharq-u G‘arbni o‘zaro bog‘lagan va buyuk tsivilizatsiyalar tutashgan joy – O‘zbekiston hududida siyosiy aloqalar azaldan rivojlangan. Bugungi zamonaviy axborot globallashuvi davrida yashar ekanmiz, ziyoli inson sifatida axborot texnologiyalarini yaxshi bilish orqali kelajakka qadam qo‘yiladi. Chunki inson faoliyati o‘z vaqtida axborotga ega bo‘lganligi va undan foydalana olishiga bog‘liq. Zamonaviy tamaddunlar rivojlanishining o‘ziga xos bosqichi va shunga mos holda jamiyat qiyofasining o‘zgarish davri sodir bo‘lmoqda.

Dunyoda jadal rivojlanayotgan globallashuv jarayonlari mamlakatlar hayotini tobora qamrab olayotgan bugungi sharoitda insonlarda barcha ijtimoiy-siyosiy hodisalarga qiziqish ortmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur voqeliklarni o‘rganishni, chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Insoniyatni qiziqtirib kelayotgan shunday muhim ijtimoiy masalalar qatorida siyosiy kommunikatsiya muhim o‘rin egallaydi. Dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi mavqeyini anglashda davlatning siyosiy masalasi doimo ijtimoiy ongning diqqat markazida turadi va mazkur hodisani tadqiq etish siyosiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish davrida bugungi Yangi O‘zbekistonning ustuvor rivojlanishi axborot-huquqiy kommunikatsiya tartibotlarini xalqimiz ma‘naviyatining bir ko‘rinishi, zamonaviy axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos ildizlari sifatida o‘rganish dolzarb vazifa sanaladi. Davlat rahbari ta’kidlaganidek, “Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan mamlakatimiz azaldan yuksak tsivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori-atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi”¹. Axborot globallashuvi jadal davom etayotgan hozirgi davrda davlat va jamiyat boshqaruvini, umuman, hech bir jamiyatni siyosiy kommunikatsiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biz tadqiqot obyekti sifatida tanlab olgan siyosiy kommunikatsiya tizimlari aynan jamiyatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va yuksalishlar davrida xalq ma‘naviyatining bir ko‘rinishi sifatida mavjud.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020. <https://uza.uz/uz/posts/O‘zbekiston-respublikasi-prezidenti-Shavkat-Mirziyeevning-ituv-30-09-2020>.

I BOB. DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI MUAMMOLARINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Davlat va jamiyat boshqaruvi maktablari hamda ularning siyosiy- kommunikativ jihatlari

Davlat boshqaruvida siyosatning bir tarmog'i sifatida jahon siyosiy, ijtimoiy va huquqiy tafakkurining rivojlanish tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'z mantig'iga ega. Bugungi kunda davlat boshqaruvi mutaxassisi o'zining uslubiy tafakkurini davlat boshqaruvining umumiy maqsadlarga erishish va milliy madaniyatini tushunishini shakllantirishi uchun asosiy falsafiy yo'nalishlar, siyosatni o'rganish usullari, ijtimoiy va muvaffaqiyatsiz nazariyalarni bilishi zarur.

Siyosiy kommunikatsiya davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarda katta ro'l o'ynaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan aloqaning o'rni kundan-kun ortib borayotganini ta'kidlash zarur. Bosma va boshqa axborot manbalarining internet bilan almashtirilishi tegishli va ko'p ma'lumotlarni olishni osonlashtiradi, bu esa fuqarolarga muhokamalar va siyosiy qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Zamonaviy davlat boshqaruv tizimida strategik pozitsiyalarni egallashni bashorat qilish qiyin. Siyosiy hokimiyat va davlat boshqaruvi tushunchalarining talqini sifatidagi birinchi sabab aniq tadqiqot vazifalari uchun funksional, ishchi tushunchalarning keng tarqalishi, ularning mazmunini sharhlashdan iborat. Konsepsiyalar va zamonaviy umumiy bilimlarning noaniqligi uchun yana bir asos bu turli tadqiqot uslubiy yondashuvlaridan foydalanishga olib keldi. Siyosiy kommunikatsiyaning siyosatdagi roli nafaqat axborotni tarqatish va uzatish, balki hokimiyatga erishish va uni saqlab qolish vositasi sifatida ham ishlaydi.

Siyosiy kommunikatsiyaning roli nafaqat jamoatchilik fikrini shakllantirishda, balki siyosiy manipulyatsiya jarayonida ham yotadi, degan ilmiy fikrlar mavjud. Keyingi tadqiqotlarda siyosat va jamoatchilik fikrining o'zaro ta'siri, jamoatchilik fikrining siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri doimo dolzarb masala bo'lib qoladi, bunday yaqin hamkorlik barcha siyosiy ishtirokchilar uchun zarurdir.

Davlat hokimiyati institutlari, siyosiy partiyalar va ularning rahbarlari, jamoat tashkilotlari va harakatlari, biznes vakillari, shuningdek, siyosiy kommunikatsiya sohasidagi turli mutaxassislarning samarali faoliyat yuritishi sharti bilan samarali kommunikativ hamkorlik shakllanadi.

Bugungi kunda jamoatchilik fikri siyosiy jarayonlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga ta'sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Biroq uni shakllantirishning asosiy vositasi axborot-kommunikatsiya tizimi orqali olib boriladigan siyosiy aloqa bo'ladi. Kommunikativ o'zaro ta'sirning ushbu shaklining o'ziga xos xususiyati jamiyat va davlatda sodir bo'layotgan voqealarni haqiqat va ob'yektiv talqin qilishdir.

Tadqiqot nuqtai nazaridan o'rganilganda, davlat boshqaruv maktablari asosan, Aristotel, Gegel, Platon singari G'arb maktablari va Sharq maktablari asosiy boshqarma menejment tarixidagi bosqichlar va maktablari sifatida davlat boshqaruvi tizimlari katta ahamiyatga ega. Bu tizimning rivojlanishida asosan korxonalar faoliyat doirasi, ob'yekt yoki muassasa xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat hamda ishlab chiqarish jarayonini yaxshi tashkil etish, maqsadni amalga oshirishda albatta siyosiy kommunikatsiya jarayonidan keng foydalaniladi.

Ilmiy menejment maktabi (Frederik Uinslou Teylor, Genri Lourens Gant) zaruriy natijalarga erishishning eng yaxshi usullarini aniqlashda ilmiy tahlildan foydalanishni ta'minlagan. Boshqaruvning klassik yo'nalishi quyidagicha bo'lib:

1. F.U. Teylor², G. Gant³, F. Gilbert⁴ tomonidan ilmiy menejment asosiy e'tibor ishlab chiqarishni ilmiy asoslangan tashkil etishga, ratsionalizatsiya va sanoat shaklida boshqaruvni taqdim etishga qaratilganligi;

² Charlz Mak Artur Gankay Teylor – Liberiya davlat va siyosat arbobi, Liberiya prezidenti. Teylor G'arbiy Afrikaning eng qudratli sarkardalaridan biri edi; Liberiya birinchi fuqarolar urushi boshlanishidagi asosiy shaxs.

³ Genri Lourens Gant. Amerikalik muhandis va menejment bo'yicha maslahatchi, ilmiy menejmentni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlari va uning nomi bilan atalgan bir qator diagrammalarni yaratish bilan mashhur bo'lgan Gantt jadvallari (1910 – yillar). Ilk martaba. Gant 1878 yilda Merilend shtatidagi Makdonog maktabini tamomlagandan keyin Jon Xopkins universitetini tugatgan va o'z ona maktabida dars berish uchun qaytib kelgan.

⁴ Frenk (Frank) Banker Gilbret – starshiy (yoki Gilbret, Djilbret; angl. Frank Bunker Gilbreth Sr.; 1868, Ferfild, Men –1924, Montkler, Nyu – Djersi) – amerikalik injener.

2. Follet, Meri Parker⁵ ma'muriy menejment umuman tashkilotga va rejalashtirish, tashkil etish, jamoaviy zanjir, muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabi funktsiyalarga e'tibor qaratilganligi;

3. M. Veber byurokratik tashkilotlar konsepsiyasi nomaqbul, oqilona asosda qurilishi kerak bo'lgan rasmiy hisobotni yuritish, egalik va boshqaruvni ajratish bilan bog'liq bo'lgan ishchilarning majburiyatlari va imkoniyatlarini aniq belgilashni ko'zda tutgan.

Boshqaruv g'oyasi maxsus ixtisoslik, maxsus kasb sifatida birinchi marta 1866 yilda amerikalik biznesmen Genri Robinson Taun⁶ tomonidan ta'riflangan. "Ilmiy menejment" klassik maktabining asoschisi Frederik Teylor (1856—1915) tomonidan qo'yilgan. Uni inson samaradorligi emas, tashkil qilish faoliyati samaradorligi qiziqtiradi, u ilmiy boshqaruv maktabining rivojlanishiga asos soldi. Ma'muriy tashkilotning ideal turlari muallifi, nemis sotsiologi Maks Veber davlat boshqaruvida byurokratiya modelini ishlab chiqdi, "Byurokratiya boshqaruvni tashkil etish modeli sifatida aniqlik, qat'iy intizom, barqarorlik va mas'uliyat bilan ajralib turadi"⁷, deyiladi.

S.I. Ojegovning fikricha, "Byurokratiya – bu alohida tabaqa manfaatlariga javob beradigan va xalqning asosiy qismi manfaatlariga javob bermaydigan, rasmiyatchilik uchun ishning mohiyatiga e'tibor bermaslikka asoslangan boshqaruv tizim"⁸, degan edi.

Gegel Vilgelm⁹ning g'oyasi, amaliyotda analitik an'anaga juda katta ta'sir ko'rsatgan. U ramziy tasvirning murakkabligini biladi va uni quyidagicha belgilaydi: "Tasavvur orqali amalga oshiriladigan timsollashtirish shundan iboratki, u hissiy hodisalarda, tasvirlarda bevosita ma'nosidan farqli bo'lgan, lekin unga o'xshashlik

⁵ Meri Parker Follett (3 sentyabrya 1868 – 18 dekabr 1933) – Amerikalik sotsiolog va menejment bo'yicha maslahatchi va tashkilot nazariyasi va tashkiliy xulq – atvor sohasida kashshof. Shuningdek, u demokratiya, inson munosabatlari, siyosiy falsafa, psixologiya, tashkiliy xulq – atvor va nizolarni hal qilish bo'yicha bir qator kitoblar va ko'plab insholar, maqolalar va nutqlar muallifi.

⁶ G. Taun prezident manufakturoy kompanii "Yel end Taun" Amerika mashinasozlik muhandislari jamiyatining (ASME) yillik yig'ilishida "Muhandis iqtisodchi sifatida" mavzusida ma'ruza qildi.

⁷ Maksimilian Karl Emil Veber, известный как Макс Вебер – nemis sotsiologi, faylasufi, tarixchisi, siyosiy iqtisodchisi. Veber g'oyalari ijtimoiy fanlar, ayniqsa, sotsiologiyaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

⁸ Sergey Ivanovich Ojegov – sovet tilshunosi, leksikograf, filologiya fanlari doktori, professor. Ko'p nashrlardan o'tgan "Rus tili lug'ati" muallifi. D. N. Ushakov tomonidan tahrirlangan Rus tilining izohli lug'atini tuzuvchilardan biri.

⁹ Georg Vilgelm Fridrix Gegel – Nemis faylasufi, nemis idealizmi falsafasini yaratuvchilardan biri

bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘noni qo‘yadi va bu tasvirlardan boshqa ma‘nolarni uning ifodasi sifatida foydalanadi”¹⁰. Myunsterberg Gugo¹¹, Elton Meyo¹², A.Maslou¹³ning “Inson munosabatlari” maktabining uchta shakli mavjud bo‘lib, insoniy munosabatlar, insoniy resurslari va xulq-atvor kabi munosabatlar psixologiyasiga, odamlarning xatti-harakatlari va ehtiyojlariga, ijtimoiy munosabatlariga va guruh manfaatlariga e‘tibor qaratadi.

Rossiyalik olim A.P. Alginning ta‘kidlashicha: “Davlat boshqaruvi maktablari: Siyosat va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi munosabatlar har doim aloqada bo‘lib, u ko‘plab omillarga, shu jumladan siyosiy hokimiyatning tashkil etish darajasiga, boshqaruv shakllariga va siyosiy rejim turiga bog‘liq”¹⁴, degan edi. Albatta, bu jamiyatning hayotiy funktsiyalariga ta‘sir qiluvchi hokimiyat mavjud bo‘lgan taqdirdagina unga asoslangan tizimning tashkiliy va tartibga soluvchi faoliyati sifatida amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvidagi ijtimoiy yo‘nalishning maqsadi va samaradorligini ta‘minlaydi. Davlat boshqaruvi siyosiy, huquqiy xarakterga ega bo‘lgan tushunchalarni qamrab olgan davlat boshqaruvi, siyosiy amaliyot maktablariga muayyan yondashuvlarni shakllantiradi, ularning aksariyati bugungi kunda mavjud bo‘lib, eng mashhur va keng tarqalgan davlat boshqaruvi Britaniya, Amerika, Fransiya va Germaniya maktablari hisoblanadi.

Britaniya va Amerika davlat boshqaruvi maktablarining o‘ziga xos xususiyatlari, empirik tadqiqotlarga qaratilgani bilan ajralib turadi. Davlat boshqaruvida izlanishlar

¹⁰ Никоненко С.В. Гегел, символизм и герменевтический поворот в современной аналитической философии // Исследование выполнено при финансовой поддержке РФФИ в рамках научного проекта № 19 – 011 – 00506 «Гегел: про ет контра. История и современность российских и зарубежных рефлексий и интерпретаций»

¹¹ Myunsterberg Gugo “ishlab chiqarish psixologiyasining otasi”, “Psixologiya va sanoat samaradorligi” kitobining muallifi, ilmiy boshqaruv tarafdori.

¹² Djordj Elton Meyo. Amerikalik psixolog va sotsiolog, sanoat tashkilotlarida tashkiliy xulq – atvor va boshqaruv muammolari tadqiqotchisi, Amerika sanoat sotsiologiyasi va “inson munosabatlari” doktrinasi asoschilaridan biri. U bir qator tadqiqot loyihalari va tajribalarini, shu jumladan Xotorn loyihagini boshqargan.

¹³ Amerikalik psixolog, gumanistik psixologiya asoschisi. Maslou piramidasi keng tarqalgan – inson ehtiyojlarini iyerarxik tarzda ifodalovchi diagramma. Uning ehtiyojlar iyerarxiyasi modeli iqtisodiy nazariyada keng qo‘llanilishini topdi.

¹⁴ Алгин А.П., Ачкасов В.А., Барыгин И.Н., и др. Государственная политика и управления// Ответственный редактор Сморгунов Леонид Владимирович доктор философский наук, профессор. – М.: Юрайт. 2018.

olib borgan amerikalik olimlarning aksariyati uning amaliy qo'llanilishini amalga oshirdi. Amerika davlat boshqaruvi maktabining asoschisi Vidro Vilsondir¹⁵. Milliy davlat boshqaruvining asoschisi professor L.Uayt¹⁶ Ma'muriy xizmatlarning huquqiy ishlashini shaxslar va guruhlarning xatti-xarakterlarini tahlil qilish orqali tushuntirishga urinishlar "Inson munosabatlari maktabi" vakillari E.Meyo¹⁷, P.Meri Follet¹⁸, A.Maslou¹⁹ tomonidan amalga oshirilgan. Maslou nazariyasini davom ettirgan eng mashhur motivatsion tushunchalardan biri bu professor Frederik Gersbergning qarashlarida qoniqish yoki norozilik bilan motivatsiyani belgilaydi. 50-yillarda menejment sohasiga oid zamonaviy qarashlar tizimi shakllandi. Umumiy boshqaruvdagi bu harakat "evolyutsion menejment"²⁰, deb nomlandi.

Amerika davlat boshqaruvi maktabi hozirgi vaqtda boshqaruv nazariyasining tarixan tashkil etilgan bir nechta maktablari va yo'nalishlari orasida Yetakchi hisoblanadi.

Ilmiy-klassik yo'nalish asoschilaridan biri L.Uayt biznesni boshqarishni tashkil etishda ishtirok etgan F.Teylor, D.Muni, L.Gilbretning ishlariga tayangan. "Davlat boshqaruvi faniga kirish" nomli kitobida quyidagicha fikr bildirdi: "davlat boshqaruvi – bu qanday darajada sodir bo'lishidan qat'i nazar, yagona bir xil jarayon: shahar, shtat yoki federal; davlat boshqaruvini o'rganish, avvalambor, huquq asoslaridan emas, balki boshqaruv asoslaridan boshlanishi kerak; davlat boshqaruvi san'atdir, shuning uchun

¹⁵ Vidro Vilson. Amerika qo'shma shtatlarining 28 – prezidenti / Prezident Uilsonning siyosati Birinchi jahon urushi tugaganidan keyin bo'lib o'tadigan tinchlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida 1917 yil bahorida, Buyuk Britaniya Tashqi ishlar vazirligi konferensiyada britaniyalik delegatlar uchun asosiy ma'lumotlarni tayyorlashga mas'ul bo'lgan maxsus bo'linmani tuzgan.

¹⁶ Уайт Л. Избранное: Наука о культуре / Пер. с англ. О. Р. Газизова, П. В. Резвых. – М.: РОССПЕН. 2004. – С. 960.

¹⁷ Elton Meyo Amerikalik psixolog va sotsiolog, sanoat tashkilotlarida tashkiliy xulq – atvor va boshqaruv muammolari tadqiqotchisi, Amerika sanoat sotsiologiyasi va "inson munosabatlari" doktrinasi asoschilaridan biri.

¹⁸ Мэри Паркер Фоллетт ва Элтон Мэё «Теория управления. Учебник», Серия: "Бакалавр. Академический курс". Издательство: "Uwrite".: – 2015.

Ikki olim Meri Parker Follett va Elton Mayoni menejmentda inson munosabatlari maktabini rivojlantirishda eng katta vakolatlar deb atash mumkin. Aynan Meri Parker Follett menejmentni "boshqalar yordamida ishni bajarish" deb ta'riflagan.

¹⁹ O'sha manba.

²⁰ Долятовский В.А. Эволюционный менеджмент и принципы самоорганизации. УМК, Институт управления, бизнеса и права. Ростов–на–Дону. 2001. – С. 52.

uning ilmiy intizomga aylanishiga katta ahamiyat beriladi; davlat boshqaruvi davlat apparati oldida turgan eng muhim vazifadir”²¹.

Davlat boshqaruvining Britaniya modeli XIX asrning oxirida London universitetida London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi tashkil etilgandan beri faol o‘rganila boshlandi. Ingliz faylasufi Maykl Oukshott, London iqtisodiyot maktabining siyosiy fanlar bo‘limi boshlig‘i sifatida davlat boshqaruvining ikkita tushunchasini ishlab chiqadi: “fuqarolik va maqsadli”²². P.Chekland turli yo‘nalishlar va qarashlarni o‘rganish, muayyan vaziyatlarda ularning qonuniyatlarini muhokama qilish orqali boshqaruv jarayonlarini tuzishga imkon beradigan “Yumshoq fikrlash”²³ tizimini taklif qilgan. Davlat boshqaruvining demokratik tushunchalari ko‘p sonli turli maktablar, jumladan “yomon davlat” va “yaxshi holat”, “tungi qorovul sifatida davlat” va “davlat qudratli tartibga soluvchi sifatida”, iqtisodiy ustuvorlikni himoya qiladigan maktablarda, siyosiy boshqaruv usullari, shaxsning faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratadigan davlat tushunchalari, “ratsional byurokratiya” g‘oyalari, texnokratiya va boshqa tushunchalar, bir tomondan davlat va munitsipal²⁴ boshqaruvning bo‘linishi, ikkinchi tomondan, munitsipal organlarning “davlat agentlari” sifatida fikrlashini talab qiladi.

Britaniya davlat boshqaruvi maktabining yana bir muhim sohasi bu tashkiliy kibernetika bo‘lib, uning doirasida Stafford Bir²⁵ tizimi shakllangan maktabi, “hokimiyat, qonunchilik va hokimiyat masalalari; davlat hokimiyatining jamiyat,

²¹Ф. Тейлора, Д. Муни и Л. Гилбрета. Введение в государственное управление. 2008. – С. 464.

²²Майкла Джозефа Оукшотта: Политическая теория 1901–1990 // Шамаева, Наталья Александровна кандидат политических наук. – М.: 2010. – С. 21.

²³ Князев С. Основы государственного управления. Под редакцией С.Н.Князева, Н.Б.Антоновой. – Минск. 2006. – С. 332.

²⁴ Munitsipal – (nem. Munizipalitat, lot. Municipium – o‘zini boshqaradigan idora jamoaviy jamoasi) – birlashgan davlatlarga mahalliy boshqaruv va o‘zini boshqaruvchi boshqaruvchi tomonidan ishlab chiqilgan tashkilotlarning majmui Ayrim mamlakatlarda (mas, AQSh, Buyuk Britaniya) shaharni boshqarish organlarigina deb atalgan.

²⁵ Stafford Bir Asosan tadqiqotlari va ilmiy boshqaruv usullari (IONMU) sohasida kibernetik tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi. Uning martaba pog‘onalari qatorida sanoat va tijorat firmalarida ko‘plab yuqori lavozimlar, shuningdek mustaqil xalqaro maslahatchi sifatida ishlash mavjud.

hukumat va parlament oldida javobgarligi; davlat boshqaruvining muvozanatlashgan tabiatida ifodalangan kibernetik yondashuv an'anasiga amal qilinadi"²⁶, deyiladi.

Gerbert Kaufmanning ma'muriy markazlashtirish va siyosiy hokimiyat sari samarali boshqaruv muammolariga bag'ishlangan ma'ruzasida ta'kidlashicha, "aholi mahalliy vakillik tizimi orqali boshqaruv jarayoniga jalb qilingan ikki asosiy turini ko'rib chiqadi. "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish rivojlanadi, bu davlat dasturlariga ko'proq foyda keltiradi hamda hududlar rivojlanadi, ammo cheklangan vakolatlarga ega bo'lish imkoniyatini beradi"²⁷, muallif ma'muriy markazlashtirish va siyosiy hokimiyat sari samarali boshqaruvda aholi mahalliy vakillik tizimining boshqaruv jarayoniga jalb qilinishidagi asosiy maqsadni olib chiqqanini ko'rish mumkin.

Berneys Edvard o'z tadqiqotida davlat boshqaruvidagi javobgarlik masalalariga to'xtalib, "jamoatchilik fikriga javobgarlik, asosan hukumat jamoatchilik fikriga ta'sir qilish qobiliyatiga ega ekanligini, kelib chiqadigan muammolarni har tomonlama tahlil qilish asosida oqilona davlat siyosatini yuritish zarurligini ta'kidlaydi. Ingliz siyosiy madaniyatida javobgarlikning bu turi asosiy hisoblanib, parlament oldida javobgarlik, davlat vazirining hukumat faoliyati uchun javobgarligi rahbarlik xizmati uchun javobgarligi bilan izohlanadi. Jamoatchilik fikrining vakillari Bosh vazirga, Vazirlar Mahkamasi a'zolarining faoliyatiga, manfaatdor guruhlariga, oddiy fuqarolarga va ommaviy axborot vositalariga bosim o'tkazish kabi omillar boshqaruv qarorlariga ta'sir qiladi"²⁸. Masalan, Buyuk Britaniyaning EXHTga qo'shilishi to'g'risidagi qarori parlamentda oldindan muhokama qilinmasdan qabul qilinadi va uni ilgari surish tashabbusi to'liq hukumatga tegishli bo'lgan.

Germaniyada davlat boshqaruvi o'ziga xos xususiyati falsafiy tabiatga oid fundamental nazariy tadqiqotlarda, ko'pgina nemis tadqiqotchilari davlat boshqaruvida

²⁶ Понкин И.В., Ботнев В.К., Редкина А.И. Британская научная школа государственного управления. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/britanskaya-nauchnaya-shkola-gosudarstvennogo-upravleniya>.

²⁷ Саймон А., Доналд У., Виктор А. Томпсон менеджмент в организациях (Сокращенный перевод с английского). Общая редакция академик А.М.Емелянов, вступительная статья – профессор В.В.Петров и профессор Н.С.Слепцов. – М.: РАГС.1995. – С. 337.

²⁸ Бернейс Эдвард. Связи с общественностью / Э. Бернейс; пер. А. Айзенштадт; предисл. И. Минтусова, А. Векслер. – М.: ВШЭ, 2019. – С. 464.

abadiy qadriyatlar va erkinlik mujassamligini ko'rishgan. Xans Kun²⁹, Ernst Forstxoff³⁰, Erik fon Xippel³¹ asarlarida aniq namoyon bo'lgan. Shunday qilib, X.Kun davlat boshqaruvi nazariyasining predmeti inson tabiati ekaniga ishongan va unga falsafiy nuqtai nazardan yondashib: "Davlat inson hisobidan yashaydi: inson uni o'rnatadi, shakllantiradi, yo'naltiradi va shu bilan birga uning ichida yashaydi, bu taqdir"³², degan xulosaga kelgan.

Germaniya ilmiy maktabi tashkilotchisi Telkott Parsons N.Lumanning asarlari haqida quyidagicha fikr bildiradi: "tuzilish tushunchasi funktsiyalar tushunchasiga bo'ysunadi, bu noto'g'ri, chunki har qanday, hatto eng bema'ni hukumat tuzilishi ham o'z vazifasini bajaradi. Luman o'zining tuzilmaviy-funksional nazariyasining afzalligini voqelikni o'ziga xos soddalashtirish yordamida boshqaruv tuzilmalarining funktsiyalarini doimiy ravishda o'rganish taklifida ko'rdi. Mavhumlashtirishning ma'lum bir darajasida barcha boshqaruv tuzilmalari va jarayonlarni funksional tahlil qilish va taqqoslash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, u davlat boshqaruvi tuzilishini har tomonlama va to'liq narsa deb hisoblamagan"³³, deydi. Nemis maktabining buyuk namoyandalaridan biri Ralf Gustav Darendorfning ilmiy qarashlari qiziqishlari zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, boshqaruvni tashkil qilish, ijtimoiy sanoatdagi muammolar "Sanoat jamiyatidagi ijtimoiy sinflar va sinf mojarolari", "Germaniyada jamiyat va demokratiya", "Qarama-qarshilik va erkinlik" asarlarida o'z aksini topgan. G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilib, Darendorf hozirgi kunda eng ta'sirli manfaatlar guruhlaridan biri

²⁹ Xans Kun – Shveysariyalik fizik kimyogari, fizik kimyo bo'yicha faxriy professor, Göttingen Maks Plank jamiyatining Biofizik kimyo institutining sobiq fan direktori. Polimerlar faniga katta hissa qo'shgan.

³⁰ Ernst Forstxoff Nemis konstitutsiyaviy huquqshunos olimi va ma'muriy huquqning etakchi nazariyotchisi.

³¹ Erik fon Xippel – Amerikalik iqtisodchi va innovatsion mutaxassi S.Garvard kollejidan bakalavr; Massachusec texnologiya instituti magistri; Karnegi Mellon universiteti doktori.

³² Парсонс Толкотт. Система современных обществ / Т. Парсонс; перс. англ. Л. А. Седова и А. Д. Ковалева; науч. ред.пер. С. Ковалева. Москва.: Аспект Пресс. 1998. – С. 269.

³³ Tolkott Parsons (angl. Talcott Parsons; 13 dekabr 1902, Kolorado – Springs, 1979. Parsons ijtimoiy evolyutsiya nazariyasini kiritdi). Bu nazariy tildan Parsons tizimlarni tasvirlash uchun foydalangan.

jamiyatning barcha tashkilotlarida, shu jumladan davlatda ham haqiqiy hokimiyatni olib boruvchi byurokratiya”³⁴ ekanligi to‘g‘risida xulosaga keldi.

Fransiya davlat boshqaruv maktablari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular XX asrning 50-yillarigacha hukmronlik qilgan. Institutlar nazariyasi asoschilari Marsel Prelo³⁵ va Moris Dyuverje³⁶ bo‘lib, M.Dyuverje nazariyasida davlat Prezidenti, bosh vazir, davlat va siyosiy arboblarning uchun foydali masalalar ta‘kidlanadi.

Fransiyaning jiddiy muammolaridan biri hokimiyatni qat‘iy markazlashtirish edi, shuning uchun olimlar P.Avril, Ye.For uni markazlashtirmaslik orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish yo‘llarini izlagan. Davlat hokimiyatining turli darajalari o‘rtasida tarqalishi, mahalliy hokimiyat organlarining, xususan munitsipalitetlar va kommunalar vakolatlarining sezilarli darajada kengayishi, davlat institutlarining daxlsizligi sharti bilan muxolifatning muayyan huquq va vakolatlarga ega bo‘lishi – bular ko‘plab fransuz olimlarining umumlashtirilgan tavsiyalaridir.

Fransiyada hukumat nazariyasi namoyandasi Anri Fayolle birinchi bo‘lib Fransiyada uyushgan menejment bo‘yicha shug‘ullanish vazifasini qo‘ydi. U “Umumiy va sanoat menejmenti” kitobida ilmiy menejmentning klassik ta‘rifini berdi: “Oldindan ko‘rish, tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, boshqarish, vositalari funktsiyalarning oltita guruhini o‘z ichiga oladi: texnik, tijorat, moliyaviy, sug‘urta, buxgalteriya va ma‘muriy. Ma‘muriy funktsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega”³⁷, deya ta‘kidlagan. Asarda asosan davlat boshqaruvida ma‘muriy funktsiyalar yetakchi ro‘l o‘ynaydi.

Fransiyaning sobiq prezidenti Jyul Vensan Oriolning hissasini alohida ta‘kidlash kerak. “Fransiya demokratiyasi” nomli asarida “parlament-davlat siyosati va byurokratik qarorlarni mehnatkash xalq manfaatlariga doimiy ravishda qarama-qarshi qo‘yadi. Odamlarning o‘zlari himoya qilishlari va vakillik qilishlari mumkin.

³⁴ Darendorf R. Ijtimoiy ziddiyat nazariyasi. Konflikt modeli // Ralf Gustav Dahrendorf (nem. Ralf Gustav Dahrendorf. 1929 yil 1 may, Gamburg – 2009 yil 17 iyun, Kyoln) – ingliz – german faylasufi, sotsiolog, siyosatshunosi va jamoat arbobi. Germaniya

³⁵ Marsel P. Franziya konstitutsiyaviy huquqi / Per.s fr. A. Kubliçkogo; Pod red. i s predisl. prof. A. Z. Manfreda. – M.: 2021. – S. 5.

³⁶ Dyuverje M. – Qonun siyosatshunoslik tamoyillaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra saylovlarda majoritar saylov tizimidan foydalanish nazarda tutiladi.

³⁷ Фаёл А., пер. Б. В. Бабина – Кореня с предисл. А. К. Гастева Общее и промышленное управление. – М.: Центральный институт труда. 2019. – С. 36.

Muallifning rejasiga ko'ra, davlat va kapitalizm qulashi va iloji bo'lsa tinch yo'l bilan o'rnini pastdan yuqoriga delegatsiya va imperativ mandatlarga asoslangan hamkorlik va federalizm jamiyati egallashi va ustunlik va foyda qadriyatlarini almashtirish kerak. hamjihatlik, o'zaro yordam, erkinlik, tenglik va adolat yo'li bilan dastlab "Mehnatkashlar sinflarining siyosiy salohiyati to'g'risida"³⁸ asarida, "ijtimoiy davlat" nomli ma'ruzasida davlat boshqaruvining asosiy prinsiplarini bayon qiladi, ushbu ma'ruzasida, muallif, Fransiya davlat boshqaruvi maktabi hamda boshqaruv nazariyasi rivojlanishining institutsional yo'nalish ta'sirida taxil qilinadi, bu maktabning vakillari davlat boshqaruvi nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Birinchidan, klassik ilmiy menejmentning asoschisi bo'lgan texnik va texnikaviy, tijorat, moliyaviy, sug'urta, buxgalteriya va ma'muriy tisdagi boshqaruvning 14 ta prinsipi va funktsiyalarini ajratib ko'rsatgan. Anri Fayolning ishi o'n yillar davomida hal qiluvchi ro'l o'ynagan; ikkinchidan, M.Prelo, M.Dyuverj "institut" tushunchasi mazmunini muxokama qiladilar.

Germaniya davlat boshqaruvi maktabining o'ziga xos xususiyatlari Germaniya davlat boshqaruv maktab tushunchalari dualizmining namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Nemis maktabida Xans Kun shunday fikrlarni - "davlat boshqaruvi tizimidagi aloqa bir qator maqsad va vazifalarga ega bo'lib, u turli funktsiyalarni bajaradi. Bu axborot va aloqa funktsiyasi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi tizimidagi eng muhim aloqa funktsiyasi uni tartibga soladi va nazorat qiladi. Ushbu aloqa funktsiyasi tufayli siz nafaqat o'zingizni, balki boshqa odamlarning xatti-harakatlarini ham tartibga solishingiz mumkin. Aloqani rivojlantirishda quyidagi tamoyillar yordam berishi mumkin: aniqlik, yaxlitlik prinsipi, axborot tashkilotining strategik foydalanish prinsipi, axborot oqimlarini boshqarish, boshqaruv harakatlari, fikr-mulohazalar tizimlari va takliflarni to'plash tizimlari"³⁹ majmui sifatida keltiradi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari fuqarolarning huquqlarini kengaytirish, turli ma'lumotlardan foydalanishiga imkon beradi; fuqarolarga siyosiy qarorlar qabul qilishda qatnashish va davlat hokimiyati faoliyatini

³⁸ Пер Жозеф Прудон Французская демократия. – М.: УРСС. 2010. – С. 21.

³⁹ Фаёл А., пер. Б. В. Бабина – Кореня с предисл. А. К. Гастева Общее и промышленное управление. – М.: Центральный институт труда. 2019. – С. 231.

nazorat qilish imkoniyatini berish; ular ma'lumotni shunchaki iste'mol qilish bilan emas, balki faol ravishda ishlab chiqarish bilan band bo'lishiga sharoit yaratadi; maxfiylikni himoya qilish va boshqalarni e'tiborga olish, siyosiy jarayonlarda imkoniyat darajasida foydalanish muhim ahamiyatga ega ekani oydinlashadi.

Zamonaviy, global axborotlashtirish va global telekommunikatsiya dunyosida insonning axborotga bo'lgan huquqi, ma'lumotlarning maxfiyligi, axborot va intellektual mulkdan himoya qilish qonun bilan mustahkamlangan. Siyosiy axborotlashtirish jarayoni – bu davlatning huquqiy tizimiga kompyuter texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, jamiyatni axborotlashtirishning murakkab jarayonlarining bir qismidir. Uning ta'siri davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari, iqtisodiy va ijtimoiy sohalar, fan va ta'lim, madaniyat va odamlarning turmush tarziga tegishli bo'lib, rivojlanayotgan davlatlar AKT va uning keng tarqalishi bilan olib borilayotgan ulkan afzalliklarni to'liq anglab yetdilar. Axborot jamiyatiga intilish insoniyat *цивилизация*ning kelajagi ekanligiga hech shubha yo'q.

Veber, Uilson, Gudnau asarlarida ikkita fundamental davlat boshqaruvi ilmiy nazariyasi g'oyalari tahlil qilinadi: “boshqaruv apparatini isloh qilish uchun yaxshi bilish va ilmiy nuqtai nazardan o'rganish kerak”⁴⁰.

Fransiyalik olimlar A.Esman, L.Dugiye, A.Mishel, M.Oriou⁴¹ davlat boshqaruvi nazariyasi masalalari bilan shug'ullangan. Biroq davlat tuzumi butun davlatning siyosiy institutlari faoliyatini tashkil etish tamoyillari va shakllarini aniqlashga yordam beradigan darajada ko'rib chiqilgan.

Buyuk Britaniyada davlat boshqaruvining nazariy masalalarini o'qitish va o'rganish XIX asr oxirlarida boshlangan. London iqtisodiy va siyosiy fanlar maktabida va keyinchalik Oksford, Kembrij, Liverpul va boshqa universitetlarda nazariyaning

⁴⁰ Вебер Э., Уилсон Д., Гуднау Ф. Германская научная школа государственного управления.// Василенко И. А. В 19 Административно – государственное управление в странах Запада: ССХА, Великобритания, Франция, Германия: Учебное пособие. Изд. 2 – е, перераб. и доп. – М.: Издательская корпорация «Логос». 2001. – С. 200.

⁴¹ Moris Oriu (fr. Maurice Hauriou, 1856, Ladvil, Sharanta – 1929, Tuluza) – fransuz huquqshunosi, ma'muriy huquq bo'yicha mutaxassis, fransuz huquqiy tafakkurining klassiklaridan biri. “Davlat hokimiyati maktabi” vakili davlatning ommaviy hokimiyat sifatidagi qarashlarini ishlab chiqdi, uning mohiyati mutlaq huquqlarni oqlaydi; falsafiy va sotsiologik xarakterdagi institutlar va ijtimoiy institutlar nazariyasini ham qurdi

rivojlanishiga Ye.Barker, D.Koul, G.Laski, C.Manning va boshqalar katta hissa qo'shgan. Ularning ishlarida asosiy e'tibor davlat huquqiy institutlarini tashkil etish shakllari va xususiyatlariga, faoliyati va o'zaro ta'sir mexanizmlariga qaratiladi.

1916 yilda Vashingtonda Robert Bruksings tomonidan birinchi hukumat ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilindi. Institutning maqsadi davlat boshqaruvi uchun tizimli tahliliy yondashuvni ishlab chiqish edi. Keyinchalik 1920-30-yillarda Yevropada tadqiqot markazlari va institutlari paydo bo'la boshladi. XX asrda davlat boshqaruvi nazariyasini o'rganish AQSh va G'arbiy Yevropaning Yetakchi universitetlarida o'quv dasturining bir qismiga aylanadi. Ushbu davrda davlat boshqaruvi nazariyasida eng mashhur yo'nalishli "klassik maktab"i L.Uayt, L.Urvik⁴², D.Muni⁴³, T.Uolsi⁴⁴ va "inson munosabatlari maktabi" (ba'zan noklassik deb ataladi) maktablari bo'lgan, "inson munosabatlari maktabi" M.Folletning klassik maktabi ta'sirida paydo bo'lgan uning asoschilari - A.Maslou, Ye.Mayo, U.Merfi edi.

Markaziy Osiyoni dunyoga tanitgan buyuk siymolar, O'rta asrlarda yashagan ijod qilgan mutafakkirlar - jamiyatning tabaqalanishiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Ikki kishining unvoni bir xil bo'lsa, ularning o'rtasida farq qolmaydi deganidek, Nizomulmuluk "Siyosatnoma" asarida shunday yozadi: "Mamlakatda qozi va xizmatkor unvonining bir xilligi ravo emasdir, shu bois amirlar va ulug' kishilarning unvonlari Xisom ud-din (dinning qilichi), Sayf ud-davla (davlatning qilichi), Amin ud-davla (davlatning amini), Shams ud-davla (davlatning quyoshi)"⁴⁵ va shunga o'xshash nomlar bilan atalgan. Ma'lumki, nomlar shaxsni tavsiflash, uning xususiyatlarini ommaga yetkazish uchun asosiy usuldir. "Qilich" so'zini tilga olish o'sha davrning an'analari bilan shartlanadi. Qolaversa, "qilich" deganda, faqat shamshir nazarda tutilmagan,

⁴² Erik Lindal (shved. Erik Robert Lindahl; 1891, Stokgolm – 1960, Uppsala) – SHved iqtisodchisi, iqtisod bo'yicha Stokgolm maktabining vakili, ijodkor.

⁴³ Djeym Muni (1884–1957) – Amerikalik iqtisodchi, muhandis, General Motors yetakchilaridan biri. Dj. Muni Nyu – York Universitetida biznes bo'yicha ilmiy darajani oldi va keyin Keys Texnologiya Institutida muhandislik bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini oldi. U kompaniyalarda muhim lavozimlarda ishlagan Remy Electric Company, GM Overseas va Willys Overland Motors. U yuqori malakali muhandis va tajribali top – menejer edi. U birinchilardan bo'lib tashkilot tamoyillarining universalligini asoslab berdi.

⁴⁴ Kardinal Tomas Uolsi – Angliya Qirolligining kansleri 1515—1529 yillar; 1514 yildan beri York arxiyepiskopi; 1515 yildan beri kardinal. 1529 yilgacha u Angliyada qiroidan keyin eng qudratli odam hisoblangan Genrixa VIII, uning qo'lida butun tashqi va ichki siyosatning muhim qismi bo'lgan.

⁴⁵ Nizomulmuluk Abu Ali. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). – T.: YAngi asr avlodi. 2008. – B. 138.

o'sha davrlarda yashagan odamlarning tilida bevosita va bilvosita ma'nolar qo'shib ishlatilgan.

Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asarida mamlakatdagi davlat boshqaruvining huquqiy me'yorlari haqida bir qator tushunchalar keltirib o'tilgan. Abu Rayhon Beruniy kitobning ikkinchi jildida Hindistondagi qasam yoki jazo turlarini ilmiy nuqtai nazardan sharhlab bergan hamda bunday qoidalar ma'lum darajada Markaziy Osiyo xalqlarining huquqiy amaliyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, "Da'voning miqdoriga qarab qasamning ham turlari ko'pdir. Avvalo, javobgar qasamga rozi bo'lib, da'vo ham oz narsa uchun bo'lsa, javobgar shunday degan: «Mening oldimda brahman olimlaridan besh kishi bor, agar so'zim yolg'on bo'lsa, menga da'vo qilingan narsaning sakkiz hissasi barobarida qilgan amallarimning savobi da'vo qiluvchiga bo'lsin», bundan ustunroq qasam – shu tonuvchiga qozi "vaysha" zaharining "brahmana" deb tanilgan xilini ichishga buyuradi. Bu eng yomon xilidir. Agar rost bo'lsa, vayshani ichish zarar bermaydi"⁴⁶. Albatta, zahar ichish yoki shunga o'xshash og'ir jazolar bu to'g'ri huquqiy qaror emas, bular diniy notenglik ta'sirida qabul qilingan me'yorlardir. Ammo ularning noto'g'riligini anglashning o'zi boshqa xalqlar uchun saboq bo'lishi bilan bir qatorda o'sha davrning davlat boshqaruvida tinchlikni saqlash maqsadidagi tarbiyaviy tizim sanalgan.

Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida davlat boshqaruvidagi o'ziga xos taktikasi, tartib-intizomni tizimli ravishda saqlab turish mahorati, Amir Temur huquqiy tartibotni bosqichma-bosqich amalga oshirgan va birinchi o'rinda o'z huquqiy tizimini kuchaytirish uchun eng kuchli vosita bo'lmish diniy tartibotni qo'llagan. "Dinu shariat ishlari tuzugini tartibga keltirganimdan keyin saltanatim korxonasining tuzugini tuzishga kirishdim Qonun va qoidalarga (to'ra va tuzukka) tayanib, saltanatim martabayu e'tiborini saqladim"⁴⁷. Bu Amir Temurning o'ziga xos maktabi hisoblanganligi va bugungi davrda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. O'sha davrlarda ijod qilgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari orqali siyosiy qarashlarni o'z yurtlarida ham targ'ib qilganlar. Masalan, Abdurazzoq

⁴⁶ Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Tanlangan asarlar. 2-j. – T.: Fan. 1965. – B. 406.

⁴⁷ Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: G'afur G'ulom. 1996. – B.73.

Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asarida misol keltirilgan: “Xitoyliklar gunohkorlarga chora qo‘llashga juda ehtiyotkorlik bilan yondashdilar. Chunonchi, podshohning o‘n ikkita devoni bo‘lib, agar biror kishi gunoh bilan ayblansa, gunoh o‘n bir devonda tasdiqlansa-yu, o‘n ikkinchisida muqarrar qilinmasa, u kishida hali xalos bo‘lishga umid bor. Agar gunohkorning ishi yuzasidan olti oylik va undan ziyoda yo‘ldagi biror kishiga hojat tushgudek bo‘lsa ham, toki tekshirib bilinmaguncha, gunohkorni o‘ldirmaydilar. Uni hibsdan saqlaydilar”⁴⁸. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan asarlar insoniyat tarixini bugungi kun bilan bog‘lab turadigan ilmiy boshqaruv maktablari timsolidir.

Davlat boshqaruvi maktablari: “Siyosat va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi munosabatlar har doim aloqada bo‘lib, u ko‘plab omillarga, shu jumladan, siyosiy hokimiyatning tashkil etilish darajasiga, boshqaruv shakllariga va siyosiy rejim turiga bog‘liq”⁴⁹. Davlat boshqaruvi siyosiy va huquqiy xarakterga ega bo‘lgan tushunchalarni qamrab oladi, amaliyot maktablariga asoslangan muayyan yondashuvlarni shakllantiradi.

Demak, davlat boshqaruvi maktablari XX asrda paydo bo‘lgan xilma-xillik boshqaruv g‘oyalarining nazariyalari, maktablar va yo‘nalishlar boshqaruv amaliyotining murakkabligi, ko‘p qirraligi va nomuvofiqligini aks ettiradi. Z.M.Boburning qizi Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida shunday deyiladi: “Podshoh hazratlari (Bobur nazarda tutilmoqda – S.M.) Qabul xalqiga mardona bo‘linglar, biz ham yetib keldik, deb ko‘ngilni xotirjam qiluvchi farmon yozib yubordilar. Biz Bibi Moxiro‘y tepasiga alanga qilamiz, sizlar ham bizlar yetib kelganimizdan xabardor bo‘lganingizni bizga bildirmoq uchun xazinaxona tepasiga alanga yoqinglar, erta bilan sizlar u tomondan bizlar bu tomondan dushmanni qamal qilamiz, deb xabar qildilar”⁵⁰. Bu o‘rinda davlat boshqaruvidagi siyosiy kommunikatsiyaning tarixiy shakli namoyon bo‘ladi.

⁴⁸ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa‘dayn va Majmai bahrayn. – T.: O‘zbekiston. 2008. – B. 317.

⁴⁹ Алгин А.П., Ачкасов В.А., Барыгин И.Н., и др. Государственная политика и управления в 2 частях. Ш.1. – М.: ЙУРАЙТ. 2018. – С. 395.

⁵⁰ Gulbadanbegim. Humoyunnoma. Zaxiriddin Muhammad Boburning o‘g‘li – Xumoyun podshohning axvoli. Fors tilidan S.Azimjonova tarjimasini. Mas‘ul muxarrir. A.P.Qayumov. – T.: Ma‘naviyat.1999. – B. 32.

Davlat boshqaruvining ijtimoiy shartli faoliyati fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan murakkab tashkiliy tizim sifatida yuzaga keladi.

Shunday qilib, davlat boshqaruvi – bu davlatning va jamiyatning tizimlariga ta'sir qiladi va moddiy, madaniy munosabatlar bilan belgilanadi. Bu shundan dalolat beradiki, bir tomondan, uning maqsadlari va mazmuni ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish holati hamda tuzilishiga, boshqa tomondan, davlatning jamiyatdagi o'rnini va ro'liga, ya'ni alohida davlat organlari faoliyati munosabatlari va tabiatiga bog'liqdir.

Mirzo Ulug'bek va u qoldirgan merosni o'rganishda bizning mamlakatimizda ham xorijda ko'plab asarlar yaratilgan. Ulug'bekning betakror ilmiy merosi, u ta'sis etgan va rahnamolik qilgan Samarqand munajjimlik maktabi haqidagi tasavvurimizni hali yetarli deb bo'lmaydi. Olimning merosi 17 asrdan beri butun dunyo ilmiy jamoatchiligining diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib kelyapti, bu maktabdan bahramand bo'lgan olimlar: Jon Grivs, Tomas Xayd, Frensis Beyli, L. Sediyo, V.V. Bartold, V.L.Vyatkin, Ye.Knobl, T.N. Qori Niyoziy, G'.Jalilov va boshqa bir qator olimlar nazarda tutilmoqda.

Masalan, olimning ko'p yillik ilmiy izlanishlarining asosiy mahsuli bo'lmish "Zijji Ko'ragoniy ("Ulug'bek Ko'ragoniyning astronomik jadvali") asari hanuzgacha biron tilga to'la tarjima qilinib, chop etilganicha yo'q, lekin asarni qo'lga olib o'qigan zahoti olimning qarashlari, til mahorati har qanday kishini o'ziga maftun etadi.

Jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi elementlar siyosiy hokimiyatni shakllantirish va amalga oshirishda tutgan o'rniga qarab quyidagi to'rtta kichik guruhlariga bo'linadi, birinchisi, davlat siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlardan iborat tashkiliy tizim, ikkinchisi, siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikrini o'z ichiga olgan madaniy-mafkuraviy tizim, uchinchisi, siyosiy-huquqiy tashkiliy axloqiy va boshqa me'yorlarni tashkil etuvchi me'yoriy-normativ tizim va nihoyat o'zida ommaviy informatsiya vositalari kommunikatsiya va

ilmiy infrastruktura (tuzilma)ni mujassamlashtirgan axborot-kommunikatsiya tizimi⁵¹, deyiladi.

I.R. Ramazonov, E.M. Mo‘minovning “Politologiya” darsligida tilga olingan: “Ibn Sino o‘zining “Ishorat va tanbihot” nomli asarida kishilarni jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeiga qarab uch guruhga ajratadi. Birinchisi, davlat idoralarida xizmat qiluvchi va boshqarish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar, ikkinchisi, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar, uchinchisi, mamlakatni qo‘riqlash uni tashqi hujumlardan saqlash vazifasini bajaruvchilar”⁵² hamda jamiyat a‘zolarini amaldorlarga, sipohiyarga, ilm ahllariga hamda dehqon-hunarmandlarga ajratadi. Nizomulmulk qayd qilib o‘tganidek, “davlatni idora etishda amaldorlar katta o‘rin tutadi, shuning uchun ularni to‘g‘ri tanlab joy-joyiga qo‘yish, har biriga loyiq amal berib, asosiy maqsad yo‘lida tarbiya qilish muhim bir talabdir⁵³, deyiladi.

Xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkinki, mavzu yuzasidan tadqiqotning vazifasi davlat boshqaruvini keng va tor ma‘noda ko‘rib chiqish zarurligini belgilaydi.

Kommunikatsiya hukumat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni zaruriy tartibga solish mexanizmiga aylandi, bu siyosiy tizim faoliyatining barqarorligi va samaradorligiga ta‘sir qiladi. Davlat va jamiyat boshqaruvidagi kommunikatsiya konservativ, muvofiqlashtiruvchi, integrativ, mobil va ijtimoiylashtiruvchi funktsiyalarni bajarganda, yangi O‘zbekistonning rivojlangan demokratik davlat sifatida tan olinishini kafolatlaydi.

1.2. Kommunikatsiyaning siyosiy jarayondagi ahamiyati

Davlat hokimiyati sohasida turli maqsadlar va usullar, tuzilmalar va siyosiy jarayonlar odamlar o‘rtasidagi axborot va aloqa almashinuvining murakkab, ko‘p qirrali kommunikatsiya shakllarini belgilaydi. Ommaviylikni kasb etgan mazkur siyosiy hodisa keng talqinga ega. “Bu hodisa turli ijtimoiy-siyosiy harakatlar va mafkuralarni ifodalash uchun ishlatiladigan, ommaga murojaat etib, xalq orasida mashhur qadriyatlar

⁵¹ Otamurodov S., Ergashev I., Akramov SH., Qodirov A. Politologiya – T.: O‘zbekiston. 1999. – B. 144.

⁵² Ramazonov I.R., Mo‘minov E.M. Politologiya. – T.: Adolat. 2013. – B. 44.

⁵³ Nizomulmulk. Siyosatnoma. – T.: YAngi asr avlodi. 2020. – B. 12.

va umidlarni manipulyatsiya qilishga asoslangan siyosiy faoliyat”⁵⁴, degan gipotezani ilgari suradi rossiyalik olim, professor N.Baranov. Darhaqiqat, har qanday axborot jarayoni aloqaning tizimli tarmoqlariga asoslanadi, axborot almashinuvi jarayoniga xos bo‘lgan tahlil uning eng muhim fundamental tomonlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Amerikalik siyosatshunos Gerald Lassuellning fikricha, bunday tuzilmaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi savollarga javob berish zarur: “Kim gapirmoqda? Nima haqida? Qaysi kanalda? Kimga? Qanday ta’sir qiladi?”⁵⁵

Siyosiy kommunikatsiya jarayonlarining yana bir murakkab tuzilishi ularning turli darajalarini hisobga olishni nazarda tutadi. Kanadalik olim Djozef Djon Tomson axborot-kommunikatsiyaning mohiyati va texnik ta’sir darajalarini farqlashni taklif qiladi. “Bu darajalar axborot-kommunikatsiya jarayonining eng muhim va sifat jihatidan farq qiluvchi tarkibiy qismlarini ajratib olishga imkon beradi. Ikkinchi tomondan esa, siyosiy sub’yektlarning omma bilan o‘zaro samarali muloqot qilish imkoniyatlarni belgilaydi”⁵⁶, deb hisoblaydi.

Odamlar tomonidan uzatiladigan xabarlarining ma’nosini o‘z holatida saqlaydigan yoki saqlanishiga to‘sqinlik qiladigan va qabul qiluvchilar tomonidan real talqin qilinishini ta‘minlaydigan vositalar, belgilar, tasvirlash qobiliyati bu o‘rinda hisobga olinishi kerak. Shu ma’noda turli siyosiy sub’yektlar tomonidan ma’lumotni yetkazishda, kommunikatsiyaga kirishishda og‘zaki nutq yoki imo-ishoralar, mimikalar, tana harakati, nutq diapazoni, kulgi va boshqalarning me‘yorida bo‘lishi muhim.

Siyosatda axborot munosabatlarini amalga oshirishda tashkilotlar ixtiyoridagi texnik vositalar ham muhim rol o‘ynaydi, shu nuqtai nazardan qaraganda, siyosiy sub’yektlarning axborot faoliyati maxsus tashkiliy tuzilmalar, kadrlar markazlari, ma’lumotlar banklari, axborotni saqlash va uzatish tarmoqlari va texnologiyalar faoliyati sifatida qaraladi. Bunday barcha texnik aloqa vositalarining ahamiyati va ro‘li

⁵⁴ Баранов Н.А. Популизм как политическая деятельность. – СПб.: Изд – во СЗАГС, 2002. – С. 44.

Соловев А. И. Политология: Политическая теория, политические технологии: Учебник для студентов вузов. – М.: Аспект Пресс. 2006. – С. 559.

⁵⁵ Лассуэлл Г.Д. Структура и функции коммуникации в обществе // Массовая коммуникация в современном мире: методология анализа и практика исследований. – М.: 2002. – С. 131..

⁵⁶ Соловев А. И. Политология: Политическая теория, политические технологии: Учебник для студентов вузов. – М.: Аспект Пресс. 2006. – С. 559.

xabarni hech qanday o'zgarishsiz, o'z vaqtida va to'g'ri shaklda qanday darajada yetkaza olishi bilan belgilanadi. N.Baranovning ta'riflashicha, "davlat hokimiyati sohasida yoki funktsiyalarni bajarishda o'zlariga zarur bo'lgan qarorlarni tayyorlash va qabul qilish, shuningdek, ular bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish uchun turli axborotlar oqimidan tanlab olinadigan ma'lumotlar siyosiy axborot, deb ataladi"⁵⁷, deyiladi.

Tadqiqot nuqtai nazaridan, axborot almashinuvi har qanday siyosiy sub'yekt harakatlarining zaruriy sharti bo'lib, rejadagi maqsadlarga erishish uchun siyosiy sohada o'zaro samarali hamkorlik qilish imkonini beruvchi muhim vazifani bajaradi.

"Kim siyosat bilan shug'ullansa, – deb yozadi Alfred Veber – u bergan obro'e'tibor hissidan bahramand bo'lishga yoki hokimiyatga intiladi yo boshqa (ideal yoki xudbin) maqsadlarga vositachi sifatida qaraydi"⁵⁸ degan edi. Muallif ushbu fikrini misollar bilan asoslaydi, bunday misollar hayotdagi barcha jarayonlarga to'g'ri keladi.

Rossiyalik olim P.Shvarsenberg fikrlariga ko'ra "aloqa - bu kelishuvga erishish uchun shaxslar va jamiyatning siyosiy kuchlari o'rtasida doimiy siyosiy ma'no almashinuvi"⁵⁹ ekanligi, bu yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini oshirish uchun siyosiy sub'yektlar ma'lumotlarni taqdim etishning maqsadlilik, muayyan xabarlar auditoriya manfaatlari, xususiyatlariga mos bo'lishi kerakligi haqida mulohaza yuritadi. S.Lennartning fikricha, "OAV axborot oqimlarida monopoliyalararo emas, balki shaxslararo muloqot bilan birgalikda harakat qiladi. Axborot o'z ob'yektiga bevosita yoki bilvosita shaxslararo muloqot orqali Yetib boradi, bu esa fuqarolarning munosabatini shakllantirishga ommaviy axborot vositalari ta'siriga teskari ta'sir ko'rsatishi yoki o'z-o'zidan yangi axborot manbai bo'lishi mumkin"⁶⁰. Har qanday holatda xabarlarni uzatish ma'lum texnik vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi, shuning uchun axborot jarayonlari muqarrar ravishda tegishli texnik qismlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Ya'ni bunga axborot tarqatiladigan (efirga uzatiladigan)

⁵⁷ Баранов Н.А. Популизм как политическая деятельность. – СПб.: Изд – во СЗАГС, 2002. – С 233.

⁵⁸ Вебер А. Избранные произведения. – М.: 1990. – С. 646.

⁵⁹ Шварценберг П.Ж. Политическая социология. – М.: 1992. – С. 174.

⁶⁰ Lenart S. Shaping political attitudes. The impact of interpersonal communication and mass media. – Oxford: Thousand Oaks et al. 1994. – P. 15.

texnik kanallar, shuningdek, nafaqat uzatish va ishlov berish, balki axborotni to'plash, nazorat qilish, saqlash va himoya qilish imkonini beradigan tuzilmalar ham kiradi.

Siyosiy kommunikatsiyani R.Shvarzenberg shunday ta'riflaydi "siyosiy kommunikatsiya – bu siyosiy axborotni uzatish jarayoni, deb ifodalagan, bu jarayon orqali u siyosiy tizimning bir qismidan ikkinchi qismiga, siyosiy tizim va ijtimoiy tizim o'rtasida aylanib boradigan. Shu bilan birga, barcha darajadagi shaxslar va guruhlar o'rtasida uzluksiz axborot almashinuvi jarayoni mavjud"⁶¹, deya ifodalaydi.

O'z navbatida, turli axborot, bilim va xabarlar almashuvchi va iste'mol qiluvchi kishilar o'rtasidagi maqsadli aloqalar siyosiy tizimning turli darajalarini bog'laydi. Siyosiy institutlarga davlat va jamiyatni boshqarish bo'yicha o'ziga xos funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

A.Doychning fikricha, "hukumat davlat boshqaruvining sub'yekti sifatida tizim va atrof-muhit o'rtasidagi axborot oqimlari va aloqa o'zaro ta'sirini, shuningdek, tizimning o'zida alohida bloklarni tartibga solish orqali siyosiy tizimni safarbar qiladi, ya'ni siyosiy tizimdagi kommunikatsiyalarning uchta asosiy turi: 1) shaxsiy, norasmiy kommunikatsiyalar, masalan, deputatlikka nomzodning saylovchi bilan erkin muhitda shaxsiy aloqasi; 2) tashkilotlar orqali, hukumat bilan aloqa partiyalar, tashkilotlar va boshqalar orqali amalga oshirilganda 3) postindustrial jamiyatdagi roli doimiy ravishda oshib borayotgan ommaviy axborot vositalari, bosma yoki elektron vositalar orqali aloqalar"⁶², degan edi.

Zamonaviy siyosiy kommunikatsiya nafaqat saylovoldi tashviqotlari bilan bog'liq, balki siyosiy boshqaruv va davlat siyosati bilan bog'liq keng ko'lamli masalalarni ham qamrab oladi. Keng ma'noda siyosat jamiyatning hokimiyat masalalari bo'yicha konsensus⁶³ga erishishi uchun barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Gerbert Shiller shunday yozadi: "siyosiy kommunikatsiyalar zamonaviy jamiyat barqarorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi, siyosiy miflarning shakllanishiga

⁶¹ Шварценберг П.Ж. Политическая социология. – М.: 1992. – С. 81.

⁶² Доч А.А. Основы политической теории. – М.: Высшая школа. 1998. – С. 42.

⁶³ KONSENSUS (lot. consensus – yakdillik, kelishuv) – xalqaro shartnomalar tuzishda parlament yoki kengashlarda tegishli qaror qabul qilish; bunda rasman e'tiroz bildirilmasa, ishtirokchilarning umumiy roziligi asosida rasmiy ravishda ovoz berilmaydi. Konsensus usuli, shuningdek, BMT organlarida tan olingan bo'lib, shu tashqilot doirasida o'tkaziladigan xalqaro konferensiyalar va kengashlarda qo'llaniladi.

imkon beradi, uning yordamida zamonaviy davlatda siyosiy elitaning hukmronligini saqlab qolish mumkin”⁶⁴, deb hisoblaydi. U Yerda siyosiy aloqaning ilk ko‘rinishlariga nisbatan ancha rivojlanganini ko‘ramiz.

Yu.Xabermas o‘z tadqiqotida siyosat vositachilik zanjiri vazifasini bajaruvchi kommunikativ harakatlar tizimida, masalan, kapitalizm va demokratiya o‘rtasidagi munosabatlarda aks etishini ko‘rsatgan. Xabermas hokimiyatni ikki asosiy turga ajratadi: “birinchidan, jamiyat ichidagi siyosiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan va har qanday repressiya va zo‘ravonlikdan xoli, ikkinchidan ma‘muriy, uning doirasida siyosiy kommunikatsiyalar qonuniylikni ta‘minlash uchun boshqariladi”⁶⁵, ushbu yondashuvga asoslanib, Habermas zamonaviy demokratiyaning samarali va barqaror mavjudligi uchun juda muhim element davlat siyosati sohasi ekanligini ta‘kidlaydi.

Siyosiy aloqalar haqida gapirganda, Toronto aloqa tadqiqotlari maktabi vakili kanadalik tadqiqotchi, Garold Adams Innis aytganidek, “aloqa vositalari, ijtimoiy tuzilish turini belgilaydi va ma‘lum ijtimoiy-siyosiy ta’sirlarni yaratiladi. Shu bilan birga, hokimiyatda kim rahbar bo‘lsa, ommaviy axborot vositalarini ham nazorat qiladi. Shunday ekan, ommaviy axborot vositalarining turiga qarab, davlat siyosatiga baho berish mumkin”⁶⁶, deydi. Ommaviy axborot vositalarida jamiyatga yetkaziladigan har qanday siyosiy kommunikatsiyaning uzatilishida, o‘sha muxitning asosiy muallifi tomonidan ishlab chiqilgan axborot ta’siri mavjud bo‘ladi.

O‘z navbatida Richard Perloff aytganidek, “milliy Yetakchilar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar o‘z fikrini bildirish va davlat siyosatini olib borishga oid xabarlarining mazmunini muhokama qilish jarayoni, zamonaviy siyosiy kommunikatsiya, deb tushuniladi”⁶⁷, deydi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi axborot jarayonlarini boshqarishda, siyosiy kommunikatsiyaning rivojlanishi, demokratiya va

⁶⁴ Шиллер Г. Манипуляторы сознанием. – М.: 1980. – С. 97.

⁶⁵ Хабермас Ю. Философский спор вокруг идеи демократии // Демократия. Разум. Нравственность. – М.: 1995.

⁶⁶ Innis Harold Adams. The Bias of Communication. – University of Toronto Press. 2008. – R. 226.

⁶⁷ Perloff R.M. Political communication: politics, press, and public in America. – Mahwah: NJ. 1998.

fuqarolik qadriyatlarining tarqalishiga ta'sir qiladi va siyosiy kommunikatsiyaning ishlash modelini takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Devid Svanson, siyosiy boshqaruvda kommunikatsion jarayonning rolini o'rganar ekan, siyosiy-media tizimi tushunchasini, "Ommaviy axborot vositalari institutlari va davlat hamda siyosiy institutlar o'rtasidagi ularning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari sohasidagi doimiy o'zgaruvchan munosabatlar"⁶⁸, deya ta'riflagan. Odamlar axborotni turlicha idrok etishi, uning mazmunini ma'lum qoidalar, odatlar, idrok etish usullari asosida izohlashi sababli, axborot almashish jarayonida sub'yektning mazmunli xabarlarini anglash qobiliyati asosiy ahamiyatga ega. Axborotni sub'yektiv idrok etish, taxlil qilish va o'zlashtirishning bu jihati aloqa yoki siyosiy axborotni jo'natuvchilar, ya'ni kommunikatorlar va qabul qiluvchilar o'rtasida mazmunli aloqalarni o'rnatish jarayoni deb ataladi.

Siyosiy menejment aspektida muloqotning o'rni va ahamiyati haqida gapirganda, M.Kastelsning ilmiy pozitsiyasini ta'kidlash lozim, u o'z asarida, "Hokimiyatni amalga oshirish, birinchi navbatda, ishlab chiqarish asosida sodir bo'ladi va madaniy kodlar hamda ma'lumotlarni tarqatish, aloqa tarmoqlarini boshqarish manfaatlari va qadriyatlari inson xatti-harakatining yetakchi tamoyillariga aylanadi."⁶⁹, deb yozadi. Bugungi axborot globallashuvi davrida innovatsion texnologiyalarni raqamlashtirish davrida turli axborotlarning kod orqali yetkazilishi inson uchun eng muqobil variant yoki yetakchi tamoyilga aylanib ulgurdi. O'z navbatida, ommaviy axborot vositalari nazariyasining yana bir tarafdori, taniqli mutaxassis R. Deyberet o'zining "Pergament, bosma OAV va gipermedia: dunyo tartibini o'zgartirishdagi aloqalar" nomli kitobida yozadi:

"Aloqa usullaridagi har qanday o'zgarishlar jamiyat ichidagi hokimiyat taqsimoti, shaxsiy va ijtimoiy ongini o'zgartirish, shuningdek, ijtimoiy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish uchun muhim oqibatlarga olib keladigan darajada siyosiy

⁶⁸ Swanson D. The Political – Media Complex at 50: Putting the 1996 Presidential Campaign in Context // American Behavioural Scientist. 1997. N 40 (8). – P. 126.

⁶⁹ Кастелс М. Галактика Интернет. Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург. 2004. – С.11.

boshqaruvning asosiy maqsadlariga aloqa usullari va shakllarini o'zgartirish orqali erishish mumkin"⁷⁰, degan xulosaga keladi.

M.N. Grachevning fikricha, "siyosiy aloqa – bu axborot almashish jarayonlari, siyosiy axborotni uzatish, siyosiy faoliyatni tuzilmalash va unga yangi mazmun bag'ishlash"⁷¹, deydi, ya'ni axborotni yaratishda, ayniqsa zamonaviy aloqa va telekommunikatsiya tizimlari sharoitida, axborot xavfsizligi muammolari hamda axborot tizimlarini, axborot texnologiyalarini va ularni qo'llab quvvatlash vositalarini yaratish va qo'llash sohasi siyosiy kommunikatsiya tizimi orqali barcha sohalarning extiyojlari bilan bog'liq holda rivojlanadi.

O'z navbatida, A.I. Solovyov "ommaviy kommunikatsiyalar siyosatning ajralmas qismidir", deb yozadi: "... turli hokimiyat egalari, shuningdek, davlat va fuqarolar o'rtasidagi vositachilik aloqa shakllari va maxsus aloqa vositalarisiz siyosatni amalga oshirish mumkin emas"⁷², degan fikrga keladi. Ommaviy aloqa zamonaviy dunyoning ajralmas qismi bo'lib, U orqali ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni ishlab chiqarish va almashish, turli guruhlarining o'zaro ta'siri va shaxslarning ijtimoiy tizimga qo'shilishi amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, siyosiy reklama, tashviqot va jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalari bevosita tashviqot tarmoqlari orqali, siyosiy sub'yektlarning to'g'ridan-to'g'ri muloqoti orqali, aloqani ba'zan bir yo'nalishli bo'lsa-da, amalga oshirishga asoslangan. Maqsadli auditoriyaga ega bo'lgan kompaniyalar va ularning vakillari, bilvosita ommaviy axborot vositalari, tashqi reklama orqali axborot aloqalarini tashkil qilish uchun texnik kanallarga ega bo'lishga intiladilar. Davlat hokimiyatning eng muhim instituti sifatida rasmiy ma'lumotlarni, xususan, og'zaki (brifinglar, rahbarlar bilan suhbatlar va boshqalar tarqatish uchun kerakli miqdordagi kanallarga ega bo'lishi kerak yoki qog'ozga tegishli (gazeta va jurnallardagi nashrlar, hukumat byulletenlari), shuningdek, fuqarolar bilan uzluksiz muloqot qilish imkonini beruvchi vizual va

⁷⁰ Deibert R.J. *Parchment, Printing, and Hypermedia: Communications in World Order Transformation*. N.Y.: 1997.

⁷¹ Грачев М.Н. Политическая коммуникация // Вестн.Российск. ун-та дружбы народов. Сер.: Политология. 1999. № 1.

⁷² Соловев А.И., Пугачев В.П. *Введение в политологию*. – М.: 2000. – С. 41

elektron (davlat telekanallari va mintaqaviy aloqa tizimlari va boshqalar) tizimga ega bulishi kerak.

Amerikalik olim Iyerom Bernard Koen 1963 yilda ommaviy kommunikatsiyaning bunday ta'sirining klassik ta'rifini "kun tartibidagi masalalarni belgilash" tartibi ma'nosida shakllantirdi. Bu ta'sir zamonaviy tadqiqot ob'yektiga aylandi. Uning mohiyati shundaki deydi muallif, "Matbuot odamlarni ma'lum bir fikrga unday olmaydi, lekin u o'z o'quvchilariga nima haqida o'ylash kerakligini aytib bera oladi, kun tartibidagi masalalarni belgilash - bu ommaviy axborot vositalarida yoritilgan kun mavzulari haqida jamiyat o'ylaydigan kognitiv jarayonni tavsiflovchi metafora"⁷³, ekanligini tushunarli shaklda ta'riflagan edi.

Ommaviy axborot vositalarining siyosiy jarayonlarga sezilarli ta'siri tushunchasini qayta tiklash tarafdorlaridan biri J.Zeller quyidagicha ta'riflagan edi, "ommaviy axborot vositalari shaxs va jamoat ongiga, siyosiy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi"⁷⁴, ya'ni kommunikatsiyaviy sohada, ommaviy axborot vositalarining haqiqiy qadr-qimmati huquqlarni mustahkamlashda emas, balki aniq shakllantirishda ekanligini ta'kidlaydi muallif.

Shuningdek, Siyosiy jarayonlarning turli maqsadlari va usullari, tuzilmalari va ishtirokchilari, davlat hokimiyati sohasidagi aniq muammolarni hal qilishning boshqa parametrlarining mavjudligi odamlar o'rtasidagi axborot va aloqa almashinuvining murakkab, ko'p qirrali tuzilishini belgilash bilan bir qatorda, har qanday axborot jarayonlarining asosi bo'lgan kommunikatsiyaning tuzilishi, uni tahlil qilish har qanday tizim va axborot almashinuvi jarayoniga xos eng muhim fundamental tomonlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Fransuz tarixshunosi Jyul Silven Zeller ta'rifiga ko'ra, "ommaviy axborot vositalari shaxs va jamoat ongiga, siyosiy munosabat va saylovchilarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi"⁷⁵ deydi, bu ta'sir albatta siyosiy kommunikatsiya shakllarida

⁷³ Bernard Cohen. The Triumph of Numbers: How Counting Shaped Modern Life. Norton. 2005. – P. 224. – P. 9.

⁷⁴ Баранов Н. Политические коммуникации. <https://nicbar.ru/politology/study/kurs – teoriya – politiki/lektcii – po – kursu – teoriya – politiki – 2002 – 2007 – gg/95 – leksiya – 26 – politicheskie – kommunikatsii>.

⁷⁵ Zeller J.S. Pie IX et Victor Emmanuel. 1979. – P. 94.

namoyon bo'ladi. Siyosiy jarayonlarning turli maqsadlari va usullari, tuzilmalari va ishtirokchilari, shuningdek, davlat hokimiyati sohasidagi aniq muammolarni hal qilishning boshqa parametrlarining mavjudligi odamlar o'rtasidagi axborot va aloqa almashinuvining murakkab, ko'p qirrali tuzilishini belgilaydi, va uning eng muhim fundamental tomonlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Germaniyalik siyosatshunos olimi Arendt Xanning fikricha, "insonning erkinligi va siyosati bir mavzuning ikki tomoni sifatida bir-biriga mos keladi va bir-birini to'ldiradi"⁷⁶. Odamlar axborotni turlicha idrok etishi, uning mazmunini ma'lum qoidalar, odatlar, idrok etish usullari asosida izohlashi sababli, axborot almashish jarayonida sub'yektning xabarlarni mazmunli idrok etish qobiliyati prinsipial ahamiyatga ega.

Bir guruh olimlar R.Jeykobson, P.Lazersfeld, G.Lassuell qarashlari nuqtai nazaridan muloqotning shaxslararo jihati o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aytiladi: "axborot manbai sharhlovchi hodisaning mavjudligi bilan bog'liq; sharhlangan ma'lumot allaqachon xabardir; xabar konteksti ayniqsa ahamiyatlidir; axborot manbalari va kommunikator o'rtasida, bir tomondan, xabar va auditoriya o'rtasida, ikkinchi tomondan, sharhlovchi va tinglovchi tomonidan keladigan shovqinlar mavjud"⁷⁷.

Axborotni sub'yektiv idrok etish, taxlil qilish va o'zlashtirishning bu jihati aloqa yoki siyosiy axborotni jo'natuvchilar (kommunikatorlar) va qabul qiluvchilar o'rtasida mazmunli aloqalarni o'rnatish jarayoni deb ataladi. Bunday tushuntirish shuni ko'rsatadiki, hech qanday ma'lumot siyosiy sub'yektlar o'rtasida tegishli aloqani keltirib chiqara olmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, axborot munosabatlarining kommunikativ jihatlari shuni ko'rsatadiki, xabarlar almashinuvi siyosiy munosabatlarning haqiqiy ishtirokchilari sifatida qabul qiluvchilarning xususiyatlarini e'tiborsiz qoldiradigan yuzsiz texnik jarayon emas. Amalda ko'p qarorlar, hatto davlat hokimiyati cho'qqilarida ham, siyosiy rahbarlarning his-tuyg'ulari ta'sirida olingan ma'lumotlardan qat'iy nazar har qanday shaklda qabul qilinishi mumkin.

⁷⁶ Arendt H. What is Freedom? // Between Past and Future: Eight Exercises in Political Thought. – N.Y.: 1993. – P. 149.

⁷⁷ Кретов Б.И. Современная российская политическая система. – М.: 1998. – С. 108.

Ta'kidlash joizki, odamlarning iste'mol darajasi va davlat hokimiyati sohasida turli xil ma'lumotlar almashinuvi nuqtai nazaridan hokimiyatning barcha institutlari va mexanizmlari axborot oqimlarini qayta ishlash vositalari va axborot bozorida nisbatan mustaqil tuzilmalardan boshqa narsa emas. Bundan tashqari, ularning faoliyatining samaradorligi bevosita axborotni tashkil qilish va boshqa sub'yektlar bilan mazmunli aloqalarni o'rnatish qobiliyatiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy sub'yektlarning o'zi ham o'z qiyofasini o'zgartiradi, turli xil axborot tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, siyosatni axborot-kommunikatsiya aloqalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqar ekanmiz uning tuzilmalari va institutlari siyosiy sub'yektlar tomonidan turli harakatlarini amalga oshirishini belgilaydigan ma'lumotlarni ishlab chiqish, qabul qilish va qayta ishlash uchun mo'ljallangan shunday ijtimoiy yaxlitlik sifatida tushunamiz.

Siyosiy tizimni axborot-kommunikatsiya tizimi sifatida birinchi marta fanga kiritgan olim, Karl Doych bo'lib uning ta'kidlashicha, "Axborot almashinuvidagi texnik tarkibiy qismlarning ro'li nuqtai nazaridan siyosatni ijtimoiy-texnologik tuzilma sifatida ko'rsatish mumkin, uning institutlari axborotni maqsadli uzatish, almashish va himoya qilishga yo'naltirilgan bo'ladi."⁷⁸ deydi, U siyosiy xabarlarni siyosiy xulq-atvorni belgilovchi omil sifatida ko'rib, "hukumatning asab tizimi", deb atagan edi. Karl Doychning fikricha, davlat boshqaruvi axborot oqimlari va jamoat muhiti o'rtasidagi o'zaro aloqa ta'sirini nazorat qiladi va tartibga soladi, buning natijasida u siyosiy tizimni harakatga keltiradi. Karl Doychning yondashuvi keyinchalik nazariy jihatdan rivojlanib boradi. Nemis sotsiologi Yurgen Xabermas kommunikativ harakatlar va siyosatning tegishli elementlariga (qadriyatlar, me'yorlar, harakatlariga) e'tibor qaratib⁷⁹, ularni ijtimoiy va siyosiy tartibning asosi sifatida taqdim etdi. Bundan farqli o'laroq, nemis sotsiologi Xelmut Shelski 1965 yilda hokimiyatni siyosiy tashkil etishning ijtimoiy emas, balki texnik jihatlarini ajratib ko'rsatib, "texnik davlat"

⁷⁸ Electron resurs: <https://studbooks.net/politologiya/>.

⁷⁹ Habermas J. Konzeptionen der Moderne. Ein Rtickblick auf zwei Traditionen // Politische Essays. Frankfurt: Die Postnationale Konstellation. 1998. – R. 195.

g'oyasini shakllantirdi⁸⁰. Bunday yondashuvga muvofiq, davlat alohida fuqarolar va guruhlarning xohish-irodasi va manfaatlariga faqat kichik darajada rioya qilishi kerak. Shu bilan birga, zamonaviy texnika mantiqi, uning imperativ xususiyatga ega bo'lgan talablari ham yo'l-yo'riq, ham faoliyat vositasi sifatida qaralishi kerak. "Apparatning kuchi", texnikadan foydalanish samaradorligini oshirish davlatni va umuman, butun siyosatni barcha ijtimoiy munosabatlarni oqilona va shubhasiz tartibga solish vositasiga aylantiradi. Keyinchalik, ushbu qarashlarning rivojlanishida va "axborot jamiyati"ning paydo bo'lishini asoslash uchun bir qator olimlar (D.Michn, R.Jonson) siyosiy kommunikatsiyalarning giperratsionalistik talqinlarini taklif qildilar⁸¹, bunda kompyuter texnologiyalariga hal qiluvchi o'rin berildi.

Siyosiy tizimlar rivojlanishining zamonaviy tajribasi haqiqatan ham, birinchi navbatda, sanoati rivojlangan mamlakatlarda siyosiy hayotni tashkil etishda texnik va axborot vositalarining ro'lini oshirishning ma'lum tendensiyalarini ko'rsatdi. Bu, ayniqsa, ovoz berish uchun qo'shimcha texnik imkoniyatlarning (xususan, elektron interaktiv aloqa tizimlari) paydo bo'lishi, ommaviy axborot vositalarining siyosiy jarayondagi ro'li va ahamiyatini oshirish, davlat boshqaruvidagi ko'plab sobiq iyerarxik aloqalarni yo'q qilish, avtonomiyani mustahkamlashga taalluqlidir. Biroq bular faqat hokimiyat institutlari va sub'yektlari tomonidan manyovr qilish imkoniyatlarini kengaytiradigan shartlardir, chunki ular guruhlarning, siyosiy manfaatlarining yetakchi ro'lini, ular o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni bartaraf etmaydi.

Siyosat uchun ommaviy axborot-kommunikatsiyasi jarayoni muhim ahamiyatga ega. Axborot munosabatlarini tashkil etishning bunday darajasida, birinchi navbatda, jamoatchilik fikri bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik talab etiladi. Qoida tariqasida, bu komponentlarga quyidagilar kiradi: davlatning rasmiy institutlari (ularning rahbarlari, shuningdek, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha axborot bo'limlari vakili); davlat (milliy) ommaviy axborot vositalari; korporativ

⁸⁰ Wolfgang Lipp, Schelsky, Helmut, in: Wilhelm Bernsdorf / Horst Knospe, *Internation*. Vol. 2, Enke, Stuttgart. 1984. – P. 747.

⁸¹Хубецова З. Ф. Политическая коммуникация Теория, образование, опыт В 2 частях СХаст 1. Исследование и преподавание политической коммуникации Учебное пособие. – М.: Санкт – Петербург, 2017. – С. 142.

tuzilmalar (partiyalar organlari, jamoat birlashmalari, professional siyosiy reklama agentliklari va boshqalar); xorijiy ommaviy axborot vositalari.

Ularning o‘zaro ta‘siri asosan axborot bozorini tashkil qiladi, bunda ularning har biri hokimiyat sohasida o‘z manfaatlariga erishishga bo‘ysunadigan o‘z siyosiy strategiyalarini amalga oshiradi. Siyosiy agentlar tomonidan o‘z kontragentlari bilan ma‘lumot olish va aloqa o‘rnatish uchun qo‘llaniladigan bu xilma-xil texnika va usullarning barchasi asosan axborot makonida ikki turdagi harakatlarni ifodalashi mumkin: safarbarlik, shu jumladan tashviqot va jamoatchilik bilan aloqalar usullari bilan ifodalanadigan marketing, shuningdek, siyosiy reklama va PR.

Axborot orqali ta‘sir qilishning ushbu usullari axborot makonida sub‘yektlarning xatti-harakatlarini turli rakursda tavsiflaydi. Shu jihatdan targ‘ibot va tashviqot odamlar ustidan axborot nazorati va ularning siyosiy harakatlariga qat‘iy ijtimoiy yo‘nalish berish usullaridir. Belgiyalik olim G.Toveronning fikricha, tashviqot odamlarga tanlash imkoniyatini taklif qilmaydi, ularning fikri, e‘tiqodi va xatti-harakatlarida muayyan o‘zgarishlar yasaydi⁸². Gebbelsning fikricha, tashviqot ta‘siri “ijtimoiy nazorat” vositasi bo‘lib, bu odamlarni ishontirishni emas, balki tarafdorlarni jalb etish va ularning harakatlarining bo‘ysunishini qat‘iy ta‘minlashni anglatadi. Bunday axborot o‘zaro ta‘sirining sxemasi shunday: “kommunikator jo‘natadi – qabul qiluvchi qabul qiladi”. Jamiyatni xabardor qilishning bunday usullaridan bir tomonlama foydalanishning klassik misollarini shaxsiylashtirish va ongini manipulyatsiya qilish yo‘lini nazarda tutadi.

Asosan, hokimiyatga oid maqsadlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirishdan manfaatdor bo‘lgan biron bir davlat, biror siyosiy sub‘yekt jamoatchilik fikriga ta‘sir qilishning tashviqot usullaridan foydalanmasdan qila olmaydi. Biroq axborot bozorida xatti-harakatlarning ushbu shakllaridan foydalanish doimo axborot va aloqa jarayonlarini sifat jihatidan o‘zgartirish xavfini keltirib chiqaradi. Fuqarolarning ongi va xulq-atvorini tizimli nazorat qilish istagi ommaviy ongni doimiy ravishda manipulyatsiya qilish, noxolis nayranglar va aholini to‘g‘ridan-

⁸² Соловев А.И. Политология: Политическая теория, политические технологии. – М.: Аспект Пресс. 2001. – С. 74.

to'g'ri aldash bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu muqarrar ravishda axborotni dezinformatsiya bilan almashtirishga olib keladi.

Hokimiyat va jamoatchilik o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yishda ham xuddi shunday sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Targ'ibot va tashviqot ko'pincha inson ongi uchun erkin raqobat chegaralarini kesib o'tadi, uning mafkuraviy zabt etish usullarini unga oldindan dasturlashtirilgan baholar va munosabatlarni majburan singdirish, uni ongsiz ravishda idrok etish va o'zlashtirish uchun mo'ljallangan psixologik bosim usullari bilan almashtiriladi.

Inson ongini zabt etishning bunday usullaridan farqli o'laroq, marketing strategiyalari axborotga bo'lgan talab va taklif munosabatlariga muvofiq shakllantiriladi va sub'yekt uchun zarur bo'lgan ma'lumotni o'z vaqtida va kerakli joyda uning ixtiyorida bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Ushbu muloqot marketing strategiyalari aqlni boshqarishga emas, balki ishontirishga qaratilgan, ular muayyan g'oyalar va xatti-harakatlar shakllarini to'g'ridan-to'g'ri belgilash o'rniga o'yg'a soladi. Axborotning ishonchliligi va hamkorlarga hurmat tobora iliq, samimiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlash va kommunikatsiyaning ajralmas shartiga aylanib borayotgan ushbu strategiyalar, birinchi navbatda, fikr-mulohazalarga, muloqotga, halol va o'zaro hurmatga asoslangan siyosiy ishtirokchilarni xabardor qilishga qaratilgan.

“Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari axborotlashgan jamiyatda yoki unga o'tish davrida yashamoqda. Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyatga to'liq o'tish hamda institutsionallashtirish jarayoni va uning tarkibiy tuzilmalari ma'lum darajada past samarada ishlayotganligi namoyon bo'ladiki, bu o'z navbatida innovatsion rivojlanishga to'siq bo'lib qolyapti. Institutsionallashtirish jarayonlaridagi islohotlar va o'zgarishlarning murakkab kechayotganligi islohotlardagi manfaatlar uyg'unligining hozircha to'la-tekis ta'minlanmaganligi hamda zamon talablariga javob tarzida ularning amalga tatbiq etilmaganligidan kelib chiqmoqda”⁸³, deyiladi. Axborot bozoridagi xatti-harakatlarning bunday yo'nalishi insonning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini va uning maxfiy ma'lumotlarini oldindan tushunish bilan uzviy bog'liq bo'lib, u pirovardida uning siyosiy xulq-atvori yo'nalishini ongli ravishda tanlashga

⁸³ Ясин Е.Т. Модернизация и общество // Вопросы Экономики. – 2007. – № 35. – С. 8.

qaratilgan. Bunday usullar, asosan, demokratik an'analari yaxshi rivojlangan mamlakatlarda yoki masalan, muxolifat kuchlari hokimiyatga endigina kelgan, dastlab aholining ijtimoiy xulq-atvorining ma'naviy rag'batlariga ko'proq tayanishga va ochiqroq siyosat olib borishga majbur bo'lgan mamlakatlarda qo'llanilgan.

Siyosiy aloqa vositalari, an'anaviy ravishda ijtimoiy-siyosiy tizimlar doirasida faoliyat yurituvchi ma'lum tashkilot va muassasalar tushuniladi, ular orqali axborot almashish jarayoni amalga oshiriladi. Ayrim tadqiqotchilar axborot almashishga hissa qo'shadigan kommunikativ harakatlar yoki vaziyatlar, guruhlar yoki shaxslar (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, vositachilik yoki zudlik bilan yoxud vaqt bo'yicha kengaytirilgan) vositalarni ham nazarda tutadilar.

Siyosiy aloqa vositalari orasida axborot uzatishning norasmiy vositalari alohida o'rin tutadi. So'nggi paytlarda ko'plab tadqiqotchilar rasmiy ma'lumot manbalariga ishonchning pasayishini qayd etdilar, bu esa shaxslararo muloqot darajasida paydo bo'ladigan xabarlarining ahamiyatini oshirishga olib keldi.

Rossiyalik olim Yuriy Irxinn aytganidek "Siyosiy aloqa - bu hokimiyat uchun kurash yoki uni amalga oshirish jarayonida axborot almashish orqali sub'yektlarning o'zaro ta'sirining semantik jihati. Bu axborotni maqsadli uzatish va tanlab olish bilan bog'liq bo'lib, ularsiz siyosiy jarayonning harakatlanishi mumkin emas"⁸⁴, deyiladi.

Siyosiy kommunikatsiya – bu kelishuvga erishish uchun shaxslar va jamiyatning siyosiy kuchlari o'rtasidagi, siyosiy muloqotning uzluksiz almashinuvi bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra, siyosiy kommunikatsiya – siyosiy ma'lumotlarni uzatishning doimiy jarayonisifatida, siyosiy tizimning turli elementlari, shuningdek, siyosiy va ijtimoiy tizimlar o'rtasida aylanadigan axborot ko'rinishlari, usullari va shakllari hisoblanadi. Siyosiy kommunikatsiya jamiyatdagi siyosatga mutlaqo boshqacha ta'sir ko'rsatadigan, siyosiy sub'yektlarning rasmiy va norasmiy o'zaro ta'siri jarayonida amalga oshiriladigan axborot almashinuvi jarayoni, deb ta'riflasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyat hayotida uning ichida shakllanayotgan siyosiy kommunikatsiya unda mavjud siyosiy munosabatlar va kechayotgan siyosiy jarayonlarni tartibga solishga

⁸⁴ Ирхин, Ю. В. Политология: учебник / Ю. В. Ирхин, В. Д. Зотов, Л. В. Зотова. – М.: Юрист. 2002. – С. 511.

qaratiladi. Bu faoliyat siyosiy xarakterga ega bo'lgan sinflar, boshqa ijtimoiy guruhlar, milliy jamoalarning siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan institutlar va tashkilotlarga tegishlidir. Kommunikatsiyaning siyosiy jarayondagi ahamiyati ijtimoiy, mafkuraviy, axloqiy, diniy va hokazo munosabatlarning umumiyliги ta'sirida rivojlanib, o'z navbatida, ularga juda muhim ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy aloqaning norasmiy vositalariga mish-mishlar, g'iybatlar, latifalar va graffiti⁸⁵lar kiradi. Bu manbalar, eng avvalo, siyosiy yetakchilar va siyosiy institutlar faoliyatiga salbiy bahoning shakllanishiga ta'sir qiladi.

Mashhur amerikalik siyosatshunos M. Edelman "butun siyosiy hayot til yordamida yaratilgan o'ziga xos konstruksiyadir"⁸⁶, deb hisoblaydi. Unda har bir muhim siyosiy fakt, har bir siyosiy voqea tavsifi yoki siyosiy arbobga munosabat aniq manbalarga asoslangan, siyosiy faoliyat ishtirokchilari va kuzatuvchilarining g'oyaviy-psixologik xususiyatlariga qarab taxlillarini o'z ichiga oladi. Ya'ni siyosiy fakt turli odamlar tomonidan turlicha idrok etilishi mumkin, ammo bu siyosiy sohada kommunikatsiyaning amaliy modellari uchun asos bo'la olmaydi.

Siyosiy kommunikatsiya turli yo'llar bilan, xususan, muayyan odamlar va jamoalarga siyosiy xabarlar yuborish orqali amalga oshiriladi. Xabarlar ularga nisbatan jamoatchilikning qiziqishini uyg'otadigan faktlar bayoni yoki voqea-hodisalar mazmunini tushuntirish sifatida ko'rinishi mumkin. Siyosiy aloqa asosan vertikal pastga qarab aloqa sifatida amalga oshiriladi. Xabarlarning tashabbuskori (kommunikator), qoida tariqasida, rahbar yoki siyosiy tashkilotdir. Aloqa sub'yekti axborotni shakllantirish va tarqatish mexanizmiga ega.

Faslga xulosa sifatida aytish zarurki, axborot makonining globallashuvi sharoitida siyosiy kommunikatsiya jarayonlari ishtirokchilari soni sezilarli darajada oshishi mumkin, bu esa siyosat sohasidagi kommunikatsion munosabatlarning yanada raqobatbardoshligini belgilaydi.

⁸⁵ Graffiti – san'at yoki vandalizm? Tor ma'noda graffiti ko'cha san'atining muhim qismiga aylangan submadaniy hodisadir. Bu o'z ismingizni yoki jamoangiz nomini iloji boricha ko'proq joyga yozishga asoslangan. "Bo'lak" (ish) deb ataladigan joy qanchalik xavfli bo'lsa, uning aylanishi shunchalik katta bo'ladi. //Google.com/search?q=graffiti+vikipediya&oq=graffiti+vikipediya&gs_.

⁸⁶ Эделман М. Категоризация, восприятие и политика. Ч.1 // Политическая лингвистика. 2016. № 58. – С. 244.

Davlat boshqaruvidagi kommunikatsiyaning hozirgi holatida asosan axborot uzatishda jamiyatga ta'sir qilishning tashviqot va manipulyatsiya usullari va texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Qayta aloqa mexanizmi, indikatori, kanallari amalda qo'llanilmayapti va davlat organlari faoliyatida deyarli e'tiborga olinmayapti.

1.3. Ommaviy siyosiy kommunikatsiyalarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish bugungi kun tartibiga boshqaruvning zamonaviy va adolatparvar tizimini yaratish vazifasini qo'ymoqda. Zero, jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlar davlat boshqaruvini isloh qilish va shu orqali hokimiyatning nomarkazlashuvi, hokimiyat bo'g'in va pog'onalarining jamoatchilik nazorati va bir-birini tiyib turish kabi funktsiyalari vujudga kelishini taqozo etadi. Shu jihatdan olganda, institutsionallashuv jarayoni fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini maqbul tarzda amalga oshirish, 20 Mazkur jihatlardan kelib chiqib, tadqiqotda mamlakatdagi davlat va jamiyat munosabatlari tanqidiy tahlil qilinib, dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasini qiyosiy o'rganish asosida siyosiy kommunikatsiyaning taraqqiyot istiqbollari bo'yicha takliflarni o'rtaga tashlashdan iborat.

Mamlakatimizda zamonaviy demokratik jamiyat qaror topayotgani va izchil rivojlanayotgani aholining hayot darajasi va sifatining yuksalayotgani hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro' - e'tibori tobora ortib borayotganidan darak beradi.

Dunyo siyosiy xaritasidagi juda ko'p mamlakatlar o'z boshqaruvlarida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida sezilarli ma'muriy islohotlarni amalga oshirdilar. Ma'muriy islohotlar natijasida davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini baholashning turli modellari shakllandi. Bugungi kunga kelib, rivojlangan davlatlarda boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha qo'llanayotgan zamonaviy konsepsiyalarda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlat organlarini optimallashtirish to'g'risidagi nazariy yondashuvlar va ularning rivojlanish bosqichlari ochib berilgan ko'plab adabiyotlar mavjud. Xususan, «New Public Management» konsepsiyasiga ko'ra, davlat boshqaruvida zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etilib, ijtimoiy hamda siyosiy

dasturlarni amalga oshirishda hukumat faoliyati bilan birga fuqarolik jamiyati institutlari kuchiga tayaniladi. Boshqaruv vakolati ayrim idoralarda jamlanmasligi uchun hokimiyatlar taqsimlanadi va ular bir-birini tiyib turish tamoyili asosida ish ko‘radi.

Kommunikatsiya atamasining siyosatshunoslik kontekstida birinchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi XX-asr boshlariga tegishli bo‘lib, F.Ratselning “axborotni siyosiy jihatdan uzatish barcha aloqa xizmatlarining eng muhimi”⁸⁷ degan fikri asosida tavsiflangan. Keng ma’noda ma’lumotni nutq, imo-ishoralar, shuningdek, moddiy vositalarda qayd etilgan tasvirlar va boshqa ramziy shakllar orqali odamdan odamga o‘tkazish sifatida tushuniladigan kommunikatsiya jamiyatning o‘zi bilan birga paydo bo‘lgan va rivojlangan. Siyosiy ta’sir vositasi sifatida ham nutq, ham muloqot qadim zamonlardayoq qo‘llanilgan.

Amerikalik sotsiolog Talkott Parsons “Ijtimoiy tizim” asarida bayon etilgan ilmiy bilimlar 20-asrda davlat boshqaruvi jarayonini va davlat xizmatchilarini ilmiy boshqaruv texnologiyalari asosida professionallashtirishga qaratilgan. Bu esa davlat boshqaruvi doirasida davlat siyosatining yangi ilmiy yo‘nalishining paydo bo‘lishiga turtki berdi. “Siyosiy xabar siyosatning asosiy unsuri hisoblanadi, chunki bugungi kunda biz oladigan siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarning aksariyati aynan o‘z tajribamizdan tarqatilgan xabarlardir. O‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar haqidagi ma’lumotlar va kelajakdagi voqealarni bashorat qilish faqat xabarlarni uzatish orqali mumkin bo‘ladi. Bu borada Kennet Burk ta’kidlaganidek: “Voqeliklarning aksariyati og‘zaki shaklda tarqaladi. «Demokratiya», «adolat» kabi mavhum tushunchalar va boshqa siyosiy hodisalarga kelsak, unda empirik asos yo‘q. Ularning talqini butunlay og‘zaki belgilarga bog‘liq. Aksariyat siyosiy hodisalar haqida ham shunday deyish mumkin”⁸⁸. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyati qonun ijodkorligi jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Qonun ustuvorligini ta’minlashga intilayotgan har qanday mamlakat o‘zining qonunchilik tizimini muntazam takomillashtirib boradi. Masalan, rossiyalik

⁸⁷ Ф.Рацел Алгоритм, Теория «жизненного пространства» / tarjimon Усачев И.Г. 2018 г. – С. 21.

⁸⁸ Burke K. Language as Symbolic Action. Berkeley. 1966. – R. 5.

huquqshunos olim Anoxin Pavel Viktorovichning “Kuchli davlat” g‘oyasi “Ibtido va evolyutsiya” nomli asarida quyidagicha ta’riflanadi: “Davlatchilikni mustahkamlash shunchaki maqsad bo‘lib qolmasligi, davlat manfaatlari inson huquqlaridan ustun bo‘lmasligi kerak”⁸⁹. Albatta bu yerda davlatning rivojlanishida asosan siyosiy kommunikatsiya katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rinadi. Finlyandiyaning qishloq va o‘rmon xo‘jaligi vaziri Yuxa Korkeaoya o‘zining fikrlarini shunday ifodalaydi: “Siyosiy ma’lumotlarning jamiyat uchun oshkoraligini ta’minlash chegaralash xarakteriga ega qonun talablarini mamlakat fuqarolarining ko‘pchilik qismi ma’qullashga tayyor bo‘lishini kafolatlaydi. Bu esa hukumat yoki alohida olingan mansabdor shaxs faoliyatiga oid tanqidiy ma’lumot turi axborotning oshkoraligiga to‘g‘anoq bo‘lolmasligini anglatadi. Shuningdek, axborotning erkinligi davlat xizmatchilarining o‘z lavozimida diskriminatsiya holatlariga o‘rin qoldirmaydigan to‘g‘ri faoliyat olib borishlari uchun garov vazifasini o‘taydi. Ko‘pgina xalqaro tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, KFinlyandiya eng kam korrupsiyaga moyil bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi”⁹⁰.

Taniqli tahlilchi Gartner Andrea di Mayo 2009 yil noyabr oyida o‘zining “Hukumat 2.0: Gartner ta’rifi” nomli hisobotida ta’kidlaganidek, “Hukumat 2.0 atamasi davlat hamkorligini kuchaytirish, shaffoflikni oshirish, shuningdek, potensial ravishda davlat faoliyatining fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarini o‘zgartirish uchun qo‘llaniladi. Mashhurligi ortib borayotgan ushbu atama ochiq ma’lumotlar va fuqarolarning ishtirokini ifodalaydigan “ochiq hukumat”ni⁹¹ anglatadi.

O‘tgan davrda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish barqarorligini ta’minlash jarayonlari sifatini oshirish borasida muayyan ishlar olib borilgani hech kimga sir emas. Prezidentimizning 2020 yil 19 mayda qabul qilingan “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu

⁸⁹ Анохин Петр Кузмич: воспоминания современников, публицистика / отв. ред. П. В. Симонов; сост. В. А. Макаров; АН СССР. – М.: Наука, 1990. – С. 282.

⁹⁰ Ikka Taupale. Finlyandiyaning 100ta innovatsiyasi (Finlyandiya qanday qilib Finlyandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar). – T.: Sharq. 2019. – B. 116.

⁹¹ Храмовская Н.А. Открытое правительство США: основные идеи и практика реализации // Информационные системы для научных исследований: Сборник научных статей. Труды XV Всероссийской объединенной конференции «Интернет и современное общество. – СПб., 2012. – С. 316.

yoʻnalishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, norma ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, huquqni qoʻllash amaliyotini bir xillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarga malakali yuridik yordam koʻrsatish borasida adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirishda muhim tashkiliy huquqiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Mazkur hujjat 2020 yil 1 iyuldan boshlab xoʻjalik boshqaruvi organlari vakolatiga kiruvchi masalalar va korporativ munosabatlar qonunosti hujjatlarini qabul qilish yoki maʼmuriy usullar orqali tartibga solinishini taqiqlab, jismoniy va yuridik shaxslar uchun javobgarlikni belgilovchi huquqiy normalarning faqatgina qonunlar bilan oʻrnatilishini belgiladi. Maʼlumki, har qanday jamiyatda qonun ustuvor boʻlishi bilan birga qabul qilinadigan barcha normativ-huquqiy hujjatlar qonun talablariga zid boʻlmasligi, qonunda belgilanganidan boshqacha talqin qilinmasligi mustahkamlab qoʻyilgan. Maʼmuriy usulda tartibga solish hamda jismoniy va yuridik shaxslar uchun javobgarlikni belgilovchi tashkiliy-huquqiy normalarning qonunosti hujjatlarida aks etishi amalga oshirilayotgan islohotlarga salbiy taʼsir koʻrsatishi bilan birga, qonunchilikka ishonchsizlikni ham keltirib chiqaradi. Aynan mana shunday holatlarning oldini olishda siyosiy kommunikativ faoliyat nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Jamiyat yangilanishining zaruriy shartlaridan biri siyosiy kommunikatsiya orqali avvalo, xalq tafakkurining yuksalishi, yuz berayotgan oʻzgarishlar jamiyat rivojiga va xalq taqdiriga daxldor ekanini chuqur his qilish va shundan xulosa chiqarish bilan belgilanadi. Qonunlar jamiyatda maʼlum tartib-intizomni taʼminlabgina qolmay, balki mansabdor shaxslar, davlat va jamiyat tashkilotlarini tegishli ravishda faoliyat koʻrsatishga undaydi. Bugungi yangi Oʻzbekistonda Uchinchi Rennsans poydevorini yaratish, oʻz navbatida, siyosiy kommunikatsiyalarsiz roʻyobga chiqishi mumkin emas.

Gʻarb sotsiologlaridan V.Vindelband, G.Rikkert, K.Popper, B.Kroche, A.Kamyu, Bekker, R.Karnan, Kollengvud va boshqalar toʻgʻridan-toʻgʻri “jamiyat tarixi faqat koʻplab tasodiflar yigʻindisidan iboratdir”, deb taʼkidlaydilar. Ular “hech qanday konvensiya bizga nima qilishimiz kerakligini aniq aytib bera olmaydi, hech qanday faktlar: xoh tabiiy, xoh tarixiy boʻlsin, biz uchun hech narsani hal qilolmaydi,

bizning o‘z oldimizga qo‘yishimiz mumkin bo‘lgan maqsadni belgilay olmaydi, faqat o‘zimizgina tabiatga ham, tarixga ham maqsad va ma‘no bera olamiz”⁹², degan fikrda qoladilar. G‘arb olimlarining fikrlaridan xulosa shuki, bugungi O‘zbekistonning rivojlanishida jamiyat qonunlarining ob‘yektivligi agar kishilar o‘z amaliy faoliyatida muayyan qonunlarning talablarini hisobga olmay, unga qarshi ish qilsalar, bu qonunlar baribir kishilarni o‘z talablariga bo‘ysundiradi va ularga rioya etishga majbur qiladi.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida biz qaysi yo‘ldan boramiz, degan savol tug‘ildi. Turkiya, Eron yoki Xitoy yo‘lini tanlasak, degan fikrlar ham o‘rtaga tashlangan, lekin bosib o‘tilgan davrlarni chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi o‘ziga xos va mos yo‘lni tanlagani bilan ajralib turadi.

Davlatni aql-idrok bilan boshqarish xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iborat⁹³. Demokratik jarayonlarni xolisona tadqiq etish ushbu jarayonlarni tashkil etuvchi barcha tizimlarni bir butun holda o‘rganishni talab qiladi. Demak, bugungi kunda milliy mafkura va siyosiy kuchlarning asosiy vazifasi olib borilayotgan islohotlarni va huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini fuqarolarimizning ehtiyojlari, manfaatlari bilan uzviy bog‘lab olib borishdan iborat. Bir so‘z bilan aytganda, demokratiya fikrlar xilma-xilligini, xolis kommunikatsiya amalga oshirishini ta‘minlaydi. Bu esa qabul qilinayotgan qonunlar va qonunosti hujjatlarida biryoqlamalik bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu tariqa davlat siyosatida amalda aholining barcha qatlamlari manfaatlari aks etadi.

Har bir davrning o‘z siyosiy va ijtimoiy, ma‘naviy va ruhiy ehtiyojlari bo‘ladi. Ana shu ehtiyoj tub islohotlar jarayonida yaxlit jamiyatning barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi va o‘zini to‘laqonli namoyon etadi. Jumladan, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va ma‘naviy islohotlar hayot ehtiyoji sifatida dolzarb masalaga aylanib qoldi. Faqat ushbu dolzarb muammolar yechimini topishda axboriy-huquqiy kommunikatsiyaning ahamiyatiga e‘tiborni qaratish zarur, masalan, davlat rahbarlari, siyosiy yetakchilar o‘z imkoniyatlari va boshqaruv uslublaridan kelib chiqib yondashishga intiladilar.

⁹² Poppe C. Objective Knowledge an Evolutionary Approach. – Oxford, 1979. – R. 11.

⁹³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2012. – B. 41.

Yangilanayotgan O‘zbekistonning bugungi siyosatidagi ochiq, oshkora muloqotda asrlar davomida to‘plangan tajribasining ma’lum bir aksi ko‘zga tashlanadi. “Qonunchilik hokimiyati butun jamiyat hayotini va faoliyatini qonun bilan kafolatlab, ijtimoiy adolat tamoyillarini yanada chuqurlashtirish vazifasini bajarar ekan, Prezident buyuk kelajakka daxldor bo‘lgan tarixiy vazifalarni aynan shular zimmasiga yuklayotgani, davlat boshqaruvining butunlay yangi, zamonaviy va ta’sirchan shakli yaratilayotganidan dalolat beradi”⁹⁴. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2018 yil 28 dekabrda Murojaatnomasini davlat boshqaruvida ochiqlik, oshkoralik tamoyillarining yorqin ifodasi sifatidagi dasturilamal deyish mumkin. Albatta, davlat rahbari tomonidan har yil yakunida murojaatnomalarning taqdim etilayotgani davlat boshqaruvini takomillashtirishda fuqarolik jamiyati qurilishi tajribalarini boyitish, sud-huquq tizimini bugungi siyosiy talablar asosida yanada takomillashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, jamiyatda tinchlik, barqarorlik muhitini uyg‘otish, O‘zbekistonning umumsayyoraviy masalalarni hal etishda faol ishtirok etishi parlamentning maqsadli vazifasi ekanligini yaqqol ko‘rsatib bermoqda.

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasini tasdiqlashni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida muhim qarorlar, qonunlar umumxalq muhokamalariga qo‘yilishi belgilandi. Ya’ni O‘zbekiston Prezidenti tomonidan belgilab berilgan xalq bilan muloqot tamoyili asosida olib borilgan islohotlar asosida muhim qarorlar, qonunlarning bevosita xalq muhokamasidan o‘tkazilgandan keyin qabul qilinishi nazarda tutilgan. Davlat rahbarining Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi saylovoldi dasturida ilgari surilgan tashabbuslarini o‘ziga mujassamlashtirgan, 100 dan ortiq vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklarning takliflarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Dasturda mamlakatni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida 100 ga yaqin maqsadlarga erishish nazarda tutiladi. Xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishida 41 ta chora-tadbir

⁹⁴ Jo‘rayev N. Tamaddunga da‘vat. (Prezident Sh.M. Mirziyoyevning jadal taraqqiyot strategiyasi haqida mulohozalar). – T.: O‘zbekiston. 2018. – B. 178.

belgilangan: xalq bilan muloqot mexanizmlari, ta'sirchan jamoatchilik nazorati asoslarini takomillashtirish, "Obod qishloq", "Obod mahalla" va boshqa hududiy dasturlar ochiq e'lon qilinib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqildi. Germaniyalik olim K.Doych siyosiy kommunikatsiyani "davlat boshqaruvining asab tizimi" deb ta'riflaydi, siyosiy xabarlarni siyosiy xulq-atvorni belgilovchi omil deb izohlaydi⁹⁵. Xalqqa yaratilgan imkoniyatlar, insonlarda kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'usining mustahkamlanishi, bularning barchasida davlat rahbari qabul qilayotgan yangi farmon va qarorlarning mohiyatini aholiga yetkazishda siyosiy kommunikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. J.Monik Kottrening fikricha, jamiyatning siyosiy hayotida aloqaning ro'li inson tanasi uchun qon aylanishining ahamiyati bilan taqqoslanadi⁹⁶. Aynan shu jarayonlar siyosiy kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish, dolzarb masalalardan biri ekanligini anglatadi. Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilinishi zamirida xuddi shu konstitutsiyaviy normaning ijrosini amalda ta'minlash maqsadi yotadi. Qisqa vaqt ichida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida yangi tizimdagi vazirlik va idoralar faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining funktsiyalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirilib, hayotga izchil tatbiq etildi. Bu esa, o'z navbatida, aholining hayotbaxsh islohotlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirdi. Jamiyatda aylanayotgan siyosiy xabarlar siyosiy hayotning muhim jihatlarini belgilovchi g'oyalarni yuzaga keltiradi. Siyosiy kommunikatsiyaning to'liq talqini R.J. Shvartsenberg tomonidan taklif qilingan siyosiy axborotni "siyosiy tizimning bir qismidan ikkinchi qismida, barcha darajadagi shaxslar va guruhlar o'rtasida uzluksiz axborot almashinuvi jarayoni"⁹⁷, deb ta'riflagan.

Massachusetts texnologiya instituti professori L.Pye ta'kidlaganidek, "siyosiy aloqa elitadan ommaga signallarning bir tomonlama yo'nalishini anglatmaydi, balki jamiyatdagi norasmiy aloqa jarayonlarining butun doirasini anglatadi, ular butunlay boshqacha ta'sir ko'rsatadi. Har qanday jamiyatdagi siyosiy hayotni siyosiy

⁹⁵ Deutsch K.W. The Nerves of Government: Models of Political Communication and Control. – London. 1963. – R. 9.

⁹⁶ Cotteret J.M. Gouvernants et gouvernes: La communication politique. – Paris. 1973. – R. 112.

⁹⁷ Шварценберг Р.Ж. Политическая социология. Ч.1. – М.: 1992. – С. 174.

kommunikatsiyaning yaxshi shakllangan usullarisiz amalga oshirish mumkin emas⁹⁸. Axborot almashinuvining ushbu usullari axborot makonida sub'yektlar xatti-harakatlarining to'g'ri va qarama-qarshi tomonlarini tasniflaydi: "Xorijiy mualliflar asarlarida siyosiy muloqotning uchta asosiy usuli ajratiladi: ommaviy axborot vositalari, jumladan, bosma (matbuot, kitoblar, plakatlar) va elektron (radio, televideniye) nashrlar orqali muloqot qilish; boshqaruvchilar va boshqariladiganlar o'rtasida bo'g'in vazifasini o'taydigan tashkilotlar, xususan, siyosiy partiyalar, bosim guruhlari orqali aloqa o'rnatish; norasmiy shakldagi muloqot"⁹⁹.

Biroq bu usullar maxsus kommunikatsiyaviy vaziyatlarni yoki harakatlarni (saylovlar, referendumlar va boshqa) o'z ichiga olishi mumkin. Shu sababli buning tarkibiga armiyaga chaqiruv qog'ozini yoqish, saylovlarda qatnashish, siyosiy suiqasd kabi keskin radikal harakatlar ham kirishi mumkin. Angliyalik olim Kanta Barbaraning "Siyosiy tahlil lug'ati" nomli kitobida: "Siyosiy kommunikatsiyaning katta qismi ommaviy axborot vositalari, davlat axborot agentliklari yoki siyosiy partiyalar kabi ixtisoslashgan idoralar va muassasalar hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, u yuzma-yuz suhbatlardan tortib, milliy qonunchilik palatalaridagi muhokamalargacha bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni ham qamrab oladi"¹⁰⁰. Mustaqil fan sifatida tashkil etilgan paytdan boshlab siyosiy kommunikatsiyaning birinchi ta'riflaridan biri M.Yu. Goncharovning "Siyosiy muloqotning ritorikasi" nomli asarida "Siyosiy kommunikatsiya siyosiy faoliyat sohasidagi axborot aylanishini ta'minlashi kerak"¹⁰¹, deya izohlanadi. Muallifning fikricha, "Ushbu turdagi ma'lumotlar janrlari bo'yicha juda xilma-xil diplomatik muzokaralardan tortib ommaviy kommunikatsiya kanallari orqali uzatiladigan xabarlargacha bo'lishi mumkin va turli auditoriyalar uchun mo'ljallanadi. Shu bilan birga, siyosiy axborotni tarqatish usuli, uning manzili hal qiluvchi ahamiyatga ega, bunda kommunikator siyosiy institutlar yoki ularning tarkibida harakat qiluvchi shaxs ekanligini anglash muhimdir. Institutsional tarkibiy

⁹⁸ Pye L. Political Communication // The Blackwell Encyclopedia of Political Institutions. – New York.: Oxford. 1987. – P. 442.

⁹⁹ Шварценберг Р.Ж. Политическая социология. Ч.1. – М.: 1992. – С. 190.

¹⁰⁰ The Dictionary of Political Analysis / Ed.: J. C. Plano, R. E. Riggs, H. S. Robin. ABC – Clio. Santa Barbara, USA – Great Britain. 1982. – P. 112.

¹⁰¹ Гончаров М.Ю. Риторика политической коммуникации // Массовая коммуникация в современном мире. – М.: 1991. – С. 55.

qismi siyosiy kommunikatsiyaning mohiyati va o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omildir. Tarqatilayotgan axborotning funksional maqsadi siyosiy tuzilmalarga xizmat qilish va siyosiy qarorlar qabul qilinishiga ta'sir etishdir"¹⁰². 1993 yilda Yu.I. Averyanov tahriri ostida nashr etilgan birinchi rus ensiklopedik "Siyosatshunoslik" lug'atida "siyosiy kommunikatsiya tushunchasiga ta'rif berilmagan, ammo ommaviy kommunikatsiyaga maxsus bag'ishlangan, asosan siyosiy kontekstda ko'rib chiqiladi"¹⁰³, degan g'oyani ilgari suradi. Shu bilan birga, o'sha yili nashr etilgan G.A. Belov va V.P. Pugachev tomonidan tahrir qilingan "Siyosatshunoslik asoslari" nomli qisqacha lug'atda siyosiy kommunikatsiyaning tor institutsional nuqtai nazarini yengib o'tgan, qisqa bo'lishiga qaramay, ancha keng qamrovli ta'rif berilgan: "Siyosiy kommunikatsiyalar – axborot almashish va to'g'ridan-to'g'ri muloqotga asoslangan siyosiy sub'yektlarning o'zaro ta'siri jarayoni, shuningdek, ushbu ta'sirning vosita va usullarini aks ettiruvchi tushuncha"¹⁰⁴, deya ta'riflangan.

"Siyosiy lug'at"da (1994) ilmiy muharrir va mualliflar jamoasi rahbari A. Migolatev va tuzuvchi A. Varivdin. Varivdin siyosiy va kommunikatsion jarayonlarning funksional tomonini ochib beruvchi ta'rifni beradi: "Siyosiy kommunikatsiya (lotincha *sommunicatio*) – siyosiy faoliyatni tuzuvchi va unga yangi mazmun baxsh etadigan, fuqarolarning ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olgan holda jamoatchilik fikrini va siyosiy ijtimoiylashuvini shakllantiradigan siyosiy axborotni uzatish jarayoni"¹⁰⁵dir. Siyosiy kommunikatsiya tushunchasining xuddi shunday talqini 1998 yilda nashr etilgan A.V. Mironov va P.A. Сыганков muharririgidagi "Xorijiy siyosatshunoslik"¹⁰⁶ lug'at-ma'lumotnomasida ham berilgan.

V.V.Latinov tomonidan berilgan shunga o'xshash, ammo batafsilroq ta'rif ikki jildlik "Siyosiy ensiklopediya"da (1999) keltirilgan bo'lib, unda siyosiy

¹⁰² Гончаров М.Ю. Риторика политической коммуникации // Массовая коммуникация в современном мире. – М.: 1991. – С. 56.

¹⁰³ Политология: Энциклопедический словарь. / общ. ред. и сос – Т.: Ю. И. Аверьянов. – М.: 1993. – С. 164.

¹⁰⁴ Основы политологии: Краткий словарь терминов и понятий. / под ред. докт. фил. наук, проф. Г. А. Белова и докт. фил. наук, проф. В. П. Пугачева. – М.: 1993. – С. 54.

¹⁰⁵ Политологический словарь: В 2 ч. / научн. ред., рук. авт. колл. А.А. Миголатев, сост. В. А. Варивдин. Ч.1. – М.: 1994. – С. 183..

¹⁰⁶ С – М.: Зарубежная политология: Словарь – справочник / под ред. А. В. Миронова, П. А. Цыганкова. – М.: 1998. – С. 197.

kommunikatsiya “siyosiy hayot sub’yektlari, ya’ni davlat va fuqarolar o’rtasida axborot almashinuvi” deb tushuntiriladi, bu “rasmiy (masalan, ommaviy axborot vositalarida) va norasmiy (“sahna ortidagi” muzokaralar) darajasida bo’lishi mumkin”¹⁰⁷. Muallif zamonaviy dunyoda siyosatning bo’ysunuvchi elementidan borgan sari uning yaratuvchisiga aylanib borayotgan siyosiy bilimlarni egallashga hissa qo’shadigan, munosabat, qadriyatlar va siyosiy ishtirok etish shakllariga, ommaviy siyosiy kommunikatsiyaga katta e’tibor beradi. A.I. Solovyov siyosiy kommunikatsiyaning ta’rifiga boshqacha yondashuvni taklif qiladi, “uning ijtimoiyligini ta’kidlaydi. Ya’ni kommunikatorning xabari orqali hayotga tatbiq etilgan ikkilamchi ma’lumotlarning paydo bo’lishi, asosan axborotni jo’natuvchi va qabul qiluvchi o’rtasidagi mazmunli aloqa”¹⁰⁸ bo’lib, bunday usullar, asosan, demokratik an’analari yaxshi rivojlangan mamlakatlarda yoki aholi ijtimoiy xulq-atvorining ma’naviy rag’batlariga ko’proq tayanishga va ochiq siyosat olib borishga intilayotgan mamlakatlar faoliyatida ko’p uchraydi. Shu munosabat bilan siyosiy kommunikatsiya deganda, “axborot almashinuvini muvaffaqiyatli amalga oshirishning alohida holati, kommunikatorning (masalan, davlat organlari) o’z kontragenti bilan aloqa o’rnatishga urinishlari tushuniladi. Shunday qilib, qabul qiluvchining kommunikator chaqiruviga mazmunli javob berishiga sabab bo’lgan ma’lumotni maqsadli, yo’naltirilgan uzatish asosida tashkil etilgan aloqa shakli sifatida ta’riflash mumkin”¹⁰⁹. Inson ongini zabt etishning bunday usullaridan farqli o’laroq, marketing strategiyalari axborotga bo’lgan talab va taklif munosabatlariga muvofiq shakllantiriladi va sub’yekt uchun zarur bo’lgan ma’lumotni o’z vaqtida va kerakli joyda uning ixtiyorida bo’lishiga yo’naltiriladi. Fikr-mulohazalarga, muloqotga, halol va o’zaro hurmatga asoslangan siyosiy kommunikatsiya ishtirokchilarni xabardor qilishga qaratiladi. Britaniyalik politolog Devid Heldning ta’kidlashicha, “Siyosat mohiyatida odamlarni tegishli sharoitlarni ta’minlash uchun eng muhim bo’lgan qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdan

¹⁰⁷ Латынов В.В. Политическая коммуникация. // Политическая энциклопедия: В 2 т. Т. 2. – М.: 1999. – С. 172..

¹⁰⁸ Соловьев А.И. Политическая коммуникация: к проблеме теоретической идентификации // Поли С. 2002. № 3. – С. 7.

¹⁰⁹ O’sha manba.

chalg'itish niyati bo'lishi mumkin"¹¹⁰. Shunday ekan, har qanday ijtimoiy muammo haqidagi ma'lumotlar hokimiyat munosabatlari masalalari bilan bog'liq bo'lsa, siyosiy ahamiyatga va xususiyatga ega bo'ladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, siyosiy kommunikatsiya hokimiyat uchun kurash yoki uni amalga oshirish jarayonida axborot almashish orqali siyosiy sub'yektlarning o'zaro ta'siri sifatida ishlaydi. Bu siyosiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni maqsadli ravishda uzatish bilan bog'liq bo'lib, ularsiz siyosiy jarayonning harakatlanishi mumkin emas. Shu bilan birga, ijtimoiy munosabatlarga siyosiy subyektlarning ta'siri hokimiyat-boshqaruv xarakteriga ega. Moskvalik siyosatshunos olim Oleg Shabrov ta'kidlaganidek, "har safar ikki partiya Yetakchilari umumiy strategiya ishlab chiqish uchun uchrashganda, ulardan biri ikkinchisini boshqarishga harakat qiladi"¹¹¹. Darhaqiqat, hokimiyat uchun kurash, uni saqlab qolish jarayonida siyosiy sub'yektlar o'rtasida raqobatlashish munosabatlari rivojlanishi mumkin. Hamkorlik va teng huquqli sheriklik tamoyili asosida qurilgan, ammo shunga qaramay, muayyan boshqaruv jihatlarini o'z ichiga olgan munosabatlar adolatli tarzda mavjud bo'lishini doimo esda tutish zarur. E.Yu. Naumovning ta'kidlashicha, "har qanday dialog dastlab teng bo'lishi mumkin emas, chunki uning ajralmas sharti har bir ishtirokchi uchun umumiy suhbatga asos o'rnatiladi, bu asos ustunligi esa o'z-o'zidan bir ishtirokchi tomonidan boshqasiga (yoki boshqalarga) o'tadi"¹¹².

O.F. Shabrov fikrlari orqali biz siyosiy kommunikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqdik. Yillar davomida mamlakatimizda va xorijda ham ko'plab ixtisoslashtirilgan adabiyotlar nashr etilganiga qaramay, siyosiy kommunikatsiyaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ahamiyatini to'laqonli ochib berish, uning mazmunini kengaytirish zarurati paydo bo'ldi. N.Viner ta'kidlaganidek, "odamga murojaat qilmasdan va unga quloq solmasdan, bir-biri bilan tegishli tilda

¹¹⁰ Held D. Political Theory and the Modern State: Essays on State, Power and Democracy. – Standford (Cal.). 1989. – P. 248.

¹¹¹ Шабров О.Ф. Политическое управление: проблема стабильности и развития. – М.: 1997. – С. 12.

¹¹² Наумов Е.Ю. Коварное обаяние диалога // Права человека в диалоге культур. – М.: 1998. – С.

gaplashib bo'lmaydi"¹¹³. Muallif o'z asarida quyidagi ta'rifni taklif qiladi: "Axborot – bu bizning tashqi dunyoga moslashish jarayonida olingan ma'lumotlar va his-tuyg'ularimizni unga moslashtirish jarayonidir"¹¹⁴, ushbu ta'rif mohiyatiga ko'ra, har qanday tabiat ob'yektining tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini aks ettirish ma'lumot toifasini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot nuqtai nazaridan aytish mumkinki, siyosiy sub'yektlar o'rtasidagi fikr-mulohazalarni nazarda tutadigan axborot siyosiy kommunikatsiyaning umumiy holatini belgilaydi. A.I. Solovyov siyosiy kommunikatsiya bo'yicha ko'plab samarasiz tarixiy misollarni tahlil qilgan, "hokimiyat passiv va shaxsiy muammolari bilan ovora bo'lgan shaxslarni shunchaki xabardor qiladi, odamlar ongiga o'z manfaatlari bilan bog'liq bo'lmagan, ommaviy muomalaga chiqarilgan matnlarni singdirishga intiladi"¹¹⁵, deb ta'riflaydi. Ya'ni qayta aloqani nazarda tutuvchi siyosiy kommunikatsiyani yashirin shaklda boshqarishni o'z ichiga olgan siyosiy dialog, deb ataladigan siyosiy boshqaruvdan boshqa narsa emas"¹¹⁶, degan fikrni ilgari suradi. Boshqa tomondan, A.I. Solovyovning "siyosiy aloqa umuminsoniy, umumijtimoiy va tegishli siyosiy yoki tarmoq xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi"¹¹⁷, degan fikrini o'rinli deyish mumkin. Siyosiy faoliyatning atributini bildiruvchi siyosiy kommunikatsiya tushunchasi ijtimoiy kommunikatsiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Davlat boshqaruvi tizimining aloqa vositalariga bo'lgan ehtiyoji bevosita jamiyatdagi vazifalari, davlat xizmati tizimi va boshqa ko'plab omillarga bog'liq. Hozirgi bosqichda siyosiy faoliyatning axborot-kommunikativ turi ommaviy auditoriyani kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash faoliyati sifatida tushuniladi. Davlat boshqaruvi tizimining siyosiy va axborot tarkibiy qismlarini uyg'unlashtirish uchun hokimiyat tuzilmalari o'z organlari faoliyatining tegishli salbiy kommunikativ ta'sirini hech bo'lmaganda kamaytirishga qaratilgan bir qator aniq vazifalarni hal qilishi kerak.

¹¹³ Винер Н. Человеческое использование человеческих существ: кибернетика и общество. // Винер Н. Человек управляющий. СПб. 2001. – С. 152.

¹¹⁴ Винер Н. Человеческое использование человеческих существ: кибернетика и общество. // Винер Н. Человек управляющий. СПб. 2001. – С. 14.

¹¹⁵ Соловьев А.И. Политическая коммуникация. М.: Aspect Press. 2004. – С. 7.

¹¹⁶ O'sha manba. – S. 9.

¹¹⁷ O'sha manba. – S. 6.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugun butun dunyo boshdan kechirayotgan siyosiy beqarorlik davrida O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari, xususan, blogerlarning auditoriyaga ta'sir qilish imkoniyatlarining ortishi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga nisbatan manipulyativ tendensiyalar kuchayishiga olib keldi. Bu orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi kommunikativ hamkorlikni rivojlantirishda bir qator ijtimoiy to'siqlarni aniqlash mumkin: aholi tomonidan davlat hokimiyati organlariga doimiy ishonchsizlik; fuqarolarning passiv/aktiv ijtimoiy faolligi, fuqarolik jamiyatining rivojlanmagan institutlari; mansabdor shaxslarning jamiyat bilan muloqotga qiziqishi yo'qligi; o'zaro yuzma-yuz munosabatlarda zarur kommunikativ tajribaning kamligi, shuningdek, soha xodimlari moliyaviy ta'minotining past darajasi. Yuqoridagi barcha to'siqlarga qaramay, davlat va jamiyat o'rtasidagi kommunikatsiyaning dialog modelini yaratish zarurati allaqachon shakllangan. Ushbu ehtiyojni anglash kommunikatsiyaning barcha asosiy ishtirokchilari: mansabdor shaxslar, jurnalistlar va aholi uchun ham xosdir. Zero, axborotlashgan jamiyatda rivojlanishning bosh omili inson hisoblanadi, shu asosda uning hayoti, farovonligi oshadi.

Axborot makonining globallashuvi sharoitida siyosiy kommunikatsiya jarayonlari ishtirokchilari soni sezilarli darajada oshishi mumkin, bu esa siyosat sohasidagi kommunikatsion munosabatlarning yanada raqobatbardoshligini belgilaydi;

kommunikatsiya hukumat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni zaruriy tartibga solish mexanizmiga aylandi, bu siyosiy tizim faoliyatining barqarorligi va samaradorligiga ta'sir qiladi. Davlat va jamiyat boshqaruvidagi kommunikatsiya konservativ, muvofiqlashtiruvchi, integrativ, mobil va ijtimoiylashtiruvchi funktsiyalarni bajarganda, yangi O'zbekistonning rivojlangan demokratik davlat sifatida tan olinishini kafolatlaydi;

davlat boshqaruvidagi kommunikatsiyaning hozirgi holatida asosan axborot uzatishda jamiyatga ta'sir qilishning tashviqot va manipulyatsiya usullari va texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Qayta aloqa mexanizmi, indikatori, kanallari amalda qo'llanilmayapti va davlat organlari faoliyatida deyarli e'tiborga olinmayapti;

bugun butun dunyo boshdan kechirayotgan siyosiy beqarorlik davrida O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari, xususan, blogerlarning auditoriyaga ta'sir qilish imkoniyatlarining ortishi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga nisbatan manipulyativ tendensiyalar kuchayishiga olib keldi. Bu orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi kommunikativ hamkorlikni rivojlantirishda bir qator ijtimoiy to'siqlarni aniqlash mumkin: aholi tomonidan davlat hokimiyati organlariga doimiy ishonchsizlik; fuqarolarning passiv/aktiv ijtimoiy faolligi, fuqarolik jamiyatining rivojlanmagan institutlari; mansabdor shaxslarning jamiyat bilan muloqotga qiziqishi yo'qligi; o'zaro yuzma-yuz munosabatlarda zarur kommunikativ tajribaning kamligi, shuningdek, soha xodimlari moliyaviy ta'minotining past darajasi;

yuqoridagi barcha to'siqlarga qaramay, davlat va jamiyat o'rtasidagi kommunikatsiyaning dialog modelini yaratish zarurati allaqachon shakllangan. Ushbu ehtiyojni anglash kommunikatsiyaning barcha asosiy ishtirokchilari: mansabdor shaxslar, jurnalistlar va aholi uchun ham xosdir. Zero, axborotlashgan jamiyatda rivojlanishning bosh omili inson hisoblanadi, shu asosda uning hayoti, farovonligi oshadi;

tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, davlat va jamiyat boshqaruvi sub'yektlari tomonidan siyosiy kommunikatsiya natijasida siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

II BOB. DAVLAT HOKIMIYATI: BOSHQARUV TIZIMIGA FUNKSIONAL YONDASHUV

2.1. Davlat hokimiyatining demokratik tamoyillari

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat va jamiyat xayotining ko‘plab sohalarida, jumladan, maxalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyat yuritish jarayonlari samaradorligini oshirish bilan bog‘liq islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi mutaqqilligining ilk yillaridan boshlab, birinchi navbatda, maxalliy davlat boshqaruvining maqbul va samarali tizimini yaratishga qaratilgan ma‘muriy islohotlar amalga oshirildi, chunki faqat samarali mahalliy davlat hokimiyati dolzarb ijtimoiy-iktisodiy muammolarni hal qilishga, davlat boshqaruvini yaxshilash uchun sharoit yaratishga, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishda muhim ko‘prik vazifasini bajaradi.

Hokimiyatning bo‘linishi demokratik davlatning asosiy tamoyillaridan biridir. Uni amalga oshirish suiste‘mlik va qonun bilan bog‘liq bo‘lmagan avtoritar, mutlaq hokimiyat paydo bo‘lishining oldini olishga yordam beradi. Hokimiyat tarmoqlari bitta organning qo‘lida birlashmasligi zarur. Hech bir organ to‘la-to‘kis davlat hokimiyatiga ega emas. Boshqa organga tegishli funktsiyalarni bajarishga yo‘l qo‘ymaydi. Vakolatlarning bo‘linishi kompetensiyani taqsimlashda, o‘zaro nazoratda, nazoratni muvozanat tizimida, muvozanatni tartibga solish va muvofiqlashtirish jarayonida ifodalanadi.

Demokratiya haqidagi g‘oyalar quyidagi xususiyatlarga mos kelishi zarur:

birinchidan, xalqning hokimiyat manbai, davlatda suverenitet sifatida tan olinishi;

ikkinchidan, davlat hokimiyatining asosiy organlari saylovchi, fuqarolarning tengligi va eng avvalo, ularning saylov huquqlarining tengligidir;

uchinchidan, qarorlar qabul qilishda ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishidir. Demokratik davlatda hokimiyat turli tarmoqlar – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma‘muriy sudlardan iborat.

Milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichida jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlarida keng ko‘lamli demokratik islohotlar jadal olib borilmoqda. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” dasturida belgilangan ustuvor maqsadlar izchil amalga oshirilayotgan bir paytda davlat va jamiyat boshqaruvi siyosatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun turli darajadagi ijro hokimiyati organlarining xalq vakillari: parlament va mahalliy kengashlar oldida hisobot berish amaliyotini keng joriy qilish yuqori samara beradi. Parlament, vakillik va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarur. Har bir davlat xizmatchisi xalq oldida mas’ul ekanini hech qachon unutmasligi lozim. Shu bilan birga, davlat idoralari faoliyatining ochiqligini ta’minlash siyosiy kommunikatsiyaning ajralmas sharti hisoblanadi.

Asosiy maqsad hokimiyatning demokratik tamoyilida ommaviy kommunikatsiyani yaratishdan iborat. Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari umummilliy manfaatlariga daxldor eng muhim vazifalarnigina amalga oshiradi. Mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish shular jumlasidandir. Shu o‘rinda bir misol,

“Fuqarolik jamiyati bu ma’noda davlat tomonidan bevosita nazorat qilinmaydigan, odamlar hayotining xususiy sohasidir. Bunga xususiy mulk munosabatlari, mulkiy va meros munosabatlari, oilaviy-qarindoshlik munosabatlari kabi munosabatlar kiradi. Fuqarolik jamiyati shaxslar va ularning birlashmalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir doirasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, u sezilarli darajada mustaqillik bilan ta’minlangan, chunki u davlatga nisbatan birlamchi sub’yekt sifatida ishlaydi, hamda fuqarolik jamiyati faqat huquq va qonuniylik chegaralarini ta’minlaydigan huquqiy davlat bilan parallel ravishda mavjud bo‘lishi mumkin - fuqarolik jamiyati faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar”¹¹⁸ degan fikrlarda, fuqarolarning davlatdagi huquqiy holatini yoki ularning davlatga huquqiy munosibligini, ikkinchi holatda muayyan davlatning a‘zosi sifatidagi shaxsni belgilaydi.

¹¹⁸ Пономарев Н. Г. Демократия: процедура, идея, симуляция? // Политическая наука и государственная власть в Российской Федерации и новых независимых государствах. – Екатеринбург. 2004. – С. 85.

Davlat boshqaruvi idoralarning barcha bo'g'inlari faoliyatini ko'rib chiqar ekanmiz, ular biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimiz yo'lida xizmat qilayaptimi, jamiyatimizni yanada demokratlashtirishda, yanada rivojlantirishda o'z vakolatlarini amalda bajara olyaptimi? degan savolga javob topish muhim. Vaholanki, samarasiz boshqaruv bo'g'inlari qanchalik ko'p bo'lsa, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lida qiyinchiliklar va to'siqlar shunchalik ko'p bo'lishi hech kimga sir emas.

Ijtimoiy adolat – siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir. Bu ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalardagi imkoniyatlar, kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo'yicha imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi, bu – keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rlikdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, siyosiy kommunikatsiya qonun ustuvorligi va uni qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Qonun matnini shakllantirish jarayonida siyosiy terimonologiya qoidalaridan foydalanish ma'no aniqligiga xizmat qiladi. Ammo bu huquqiy normalarning oddiy fuqarolar tomonidan tushunilishi va idrok etish imkoniyatini susaytiradi. Qonunni hurmat qilish va unga rioya etish – siyosiy kommunikatsiyaning, ommaviy targ'ibotning asosiy maqsadidir. Adolatli boshqaruvni joriy qilish va tushuntirish – huquqiy targ'ibotning usuli hisoblanadi. Davlat hokimiyatining demokratik tamoyillari rivojlanishida nafaqat qonunlar mavjudligi, balki ularning mazmuni va ahamiyatini tushunish, ushbu ma'lumotlarni ommaga yetkazish muhim dolzarb masala hisoblanadi. Jumladan, T.Piters, R.Uotermanning boshqaruv modelida keltirilishicha, “boshqaruv qarorlarni o'z vaqtida qabul qilishga asoslanishi va inson manfaatlariga xizmat qilishi kerak”¹¹⁹ - deya ta'kidlagan.

MDH davlatlari olimlari orasida mahalliy davlat hokimiyati organlari boshqaruvi bo'yicha A.Skokov, M.Lukyanova, A.Gretchenko, Ye.Kuznesovalar tadqiqot olib borgan. A.Skokovning tadqiqotida keltirishicha, mahalliy davlat hokimiyati organlari xorijiy mamlakatlarda jamoat tashkilotlari sifatida faoliyat olib boradi. Shu sababdan xam, mahalliy davlat xokimiyati organlari funktsiyalarini shakllantirishda ularni davlat

¹¹⁹ Ghinea, Valentina & Bratianu, Constantin. Organizational culture modeling // International scientific journal volume 1 issue 8. 2022. – R.8.

boshkaruviga emas, balki xalqqa yaqin organ sifatida keltirish kerak¹²⁰, A.Gretchenko esa mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarini qabul qilishda xalq ishtirokini ta'minlash kerakligini, chunki mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati bevosita xalq to'layotgan soliqlarga bog'lik ekanini, keltiradi¹²¹.

Mahalliy olimlar orasida Sh.R.Xolmo'minov, G.M.Shamarova, A.Xolov tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlarida samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish masalalari o'rganilgan. Jumladan, A.Xolovning keltirishicha, "davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan ularning qonunga rioya qilishlarini, o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishlarini kuzatish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishga doir tartib tamoyillarni belgilashda, eng avvalo, ijro hokimiyati organlari faoliyati haqida quyidagi fikrlarini aytadi, "fukarolarga to'la va haqqoniy axborotlarni yetkazish lozim. Buning uchun ommaviy axborot vositalarida davlat idoralari tomonidan qabul qilingan qarorlarning matnlaridan tashqari, ularning mohiyati, qarordan ko'zlangan maqsad yoritilishi kerak"¹²², Yuqorida ko'rinib turibdiki, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini boshqarish va ularda samarali qarorlar qabul qilish turli davrlarda turli mamlakatlarda doimiy dolzarb bo'lib, boshqaruv sohasi tadqiqotchilarining diqqat-markazida bo'lgan. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot mavzusi dolzarb bo'lib, jamiyat xayotini rivojlantirishning zamonaviy sharoitida davlat boshqaruvining barcha darajalarida davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash muammolarini hal qilish va qayta ko'rib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi demokratik o'zgarishlar davrida mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy hayotida bevosita va faol ishtirok etish istagida bo'lgan fuqarolarning salohiyati to'la namoyon bo'lishini ta'minlash lozim. Bu borada ko'ppartiyaviylik tizimi, partiyalararo bahs-munozara, fikrlar va dasturlar o'rtasidagi raqobatni jadal rivojlantirish konsepsiyasini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

¹²⁰ СКОКОВ А. М. Местное управление и самоуправление в странах СНГ. 2003. №1 – 2.. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mestnoe-upravlenie-i-samoupravlenie-v-zarubezhnyh-gosudarstvah> (data obrasheniya: 25.10.2022).

¹²¹ А.Гретченко. Ключевые проблемы местного самоуправления в России. <https://User/Downloads/110-202-1-SM>.

¹²² O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni. 02.09.1993 yildagi 913-XII-son.

Ommaviy axborot vositalari aholining talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim va ta'sirchan vositasiga, xalqning eng yaqin ko'makchisi – demokratiya ko'zgasiga aylanishi zarur. Ko'rinadiki, davlat rahbari huquqiy targ'ibotni bosqichma-bosqich amalga oshirish asnosida huquqiy tizimni kuchaytirish uchun eng kuchli vosita hisoblangan erkin muloqot tartibotini qo'llaydi. Bunga bugungi kunda o'z faoliyatini olib borayotgan Prezident qabulxonasi, fuqarolar bilan ochiq muloqotlar va boshqa shu kabi xalqning dardini tinglaydigan idoralarni misol keltirish mumkin.

Bunday huquqiy tushunchalar – bevosita ommaviy tarzda o'tkazilayotgan huquqiy kommunikatsiyadir. Bu prinsip mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalarni hal qilishda davlat va shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydigan konstitutsiyaviy asosdir.

Qonunlar fuqarolar huquqlarini himoya qilar ekan, ularning bir-biriga adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Qonunlar mukammal ishlab chiqilar ekan, ular yaxshi targ'ibot qilinsagina davlat va jamiyat hayotini to'liq takomillashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini yaratish nafaqat o'tish davri sharti, balki demokratik huquqiy davlat barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir. O'zbekistonda davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning ishtirokini yanada kuchaytirib borish, ularning ro'lini oshirish borasida ham mavjud qonuniy negizlar bosqichma-bosqich takomillashtirib kelinmoqda. Huquqiy asoslarning bu tarzda yangilanishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli tuzatishlar, shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni talab etadi. Huquqshunos A.X. Shodmonovning fikriga ko'ra, "inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlar ustuvor bo'lib, davlat va davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari faoliyatining asoslari inson huquqlarini himoya qilish va qo'riqlash ishiga safarbar qilingan"¹²³. Qachonki qonunlar qonunchilik holatining barcha xalq xizmatchiligida, xalq manfaatini ko'zlab yaratilsa, ularga rioya qilinishi ta'minlansa, keng omma o'rtasida huquqiy madaniyat shakllanadi. Buning uchun xalq deputatlari

¹²³ Shodmonov A.X. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi. – T.: O'zbekiston. 2011. – B. 11. 52

saylovi davrida xalq ichidan chiqqan jonkuyar, bilimli nomzodlar adolatli tarzda saylanishi kerak.

Davr talabiga mutanosib tarzda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi natijasida islohotlar inson manfaatlarini, munosib turmush tarzini belgilaydi. Mamlakatda siyosiy islohotlarning ustuvor vazifasi sifatida, birinchi navbatda, davlat hokimiyati boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning vakolatlarini konstitutsiyaviy mustahkamlashga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Demokratik jamiyatda ko'ppartiyaviylik tizimini mustahkamlash, jamoat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatini tubdan isloh qilish ishlari me'yorida bajarilishi, hozirgi paytda mamlakat aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, ushbu tizimning tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta sub'yekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

Jamiyat hayotida fuqarolarda huquqiy madaniyat bilan birgalikda ularning siyosiy madaniyati, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki faollashib, siyosiy jarayonga daxldorlik hissi ortib borayotganligi, davlat hokimiyati va boshqaruvining demokratik tamoyillari, ularning vakolati doirasidagi o'zgarishlar, mamlakatdagi hokimiyat tizimi faoliyatida muvozanatining taqsimlanish bosqichida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bosqichida siyosiy kommunikatsiyaning ahamiyati nihoyatda samarali bo'lishiga erishiladi.

Albatta, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarni qabul qilish jarayonining raqamlashtirilishi mamlakat qarorlarning samaradorligini ta'minlash, ularning xavfsizligini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- Mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, xalk deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning xududiy bo'linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash;

- Maxalliy kengashlarning kotibiyatlari faoliyatini yanada kuchaytirish choralarini ko'rish. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan xududiy ijro organlarining shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini bosqichma-bosqich kengaytirish, xududlarda amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha «vakolatlar reyestri»ni shakllantirish¹²⁴.

Shuni xam ta'kidlash kerakki, viloyat, shahar va tuman hokimlarining qarorlari qabul qilingandan so'ng "E-qaror" elektron tizimiga kiritiladi. Ammo ularning loyihasi xalq muhokamasi uchun taqdim etilmaydi. "E-qaror" elektron tizimiga kiritilgan qarorlarni kuzdan kechirish jarayonida shu narsa aniqlandiki, iqtisodiyotning ayrim sohalarigagina taallukli bo'lgan qarorlarning ulushi yuqori ekan. Ularning ayrimlarini hokimliklar qarorisiz, tendr asosida ham amalga oshirilishini yo'lga qo'yish mumkin.

Zamonaviy davlat hokimiyati boshqaruvini demokratlashtirish davlatning birinchi ustuvor vazifasi sifatida alohida qayd etilgan, yangi davrni ochib beruvchi davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlashda siyosiy partiyalarning ro'lini oshirish, mamlakatimiz sud-huquq tizimini, saylov qonunchiligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan qator qonunchilik g'oyalari ilgari surilgan demokratik tamoyilga asoslanadi.

Ingliz faylasufi Jon Lokkning ta'riflashicha, "Insonning tabiiy erkinligi shundaki, u yer yuzida o'zidan yuqori bo'lgan har qanday kuchdan ozod bo'lib, boshqa odamning irodasiga yoki qonun chiqaruvchi kuchiga bo'ysunmaydi, balki faqat tabiat qonuni bilan boshqariladi. Insonning jamiyatdagi erkinligi shundan iboratki, u davlatning roziligi bilan o'rnatilgandan boshqa hech qanday qonun chiqaruvchi hokimiyatga bo'ysunmaydi va hech kimning irodasiga bo'ysunmaydi yoki qonun bilan belgilanadiganlardan tashqari hech qanday qonun bilan cheklanmaydi. Ushbu qonun chiqaruvchi organ unga bildirilgan ishonchga muvofiq"¹²⁵. Lokk an'alariga amal

¹²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga muljallangan YAngi O'zbekistonning tarakkiyot strategiyasi tugrisida"gi Farmoni. 28.01.2022 yildagi PF–60–son. <https://lex.uz/docs/5841063>

¹²⁵ Локк Дж. Сочинения в трех томах: Мысли о воспитании (1691), Что изучат желтенмену (1703). Т.3. – М.: Мысль. 1988. – С. 668.

qilgan holda, erkinlikning uch xil o'lchovini ajratib ko'rsatish odat tusiga kiradi: o'z shaxsiga nisbatan erkinlik, o'z fikr va his-tuyg'ulariga nisbatan erkinlik va shaxsga tegishli bo'lgan narsalarni tasarruf etish erkinligi bilan izohlanadi.

Erkinlikning ushbu uch o'lchovi ko'plab konstitutsiyalar va asosiy inson huquqlari ro'yxatiga kiritilgan. Ko'pgina nazariyalar Lok¹²⁶ning erkinlik ta'rifiga tayangan va izohlagan. O'zbekistonning yangi davrdagi taraqqiyotida siyosiy sohani erkinlashtirish bilan birga davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda asosiy e'tibor quyidagi masalalarga qaratiladi: hokimiyat barcha tarmoqlarining mustaqil faoliyatini ta'minlash; nodavlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish. Bu "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasida belgilab berilgan.

1. Siyosiy hayotning barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish.

2. Ko'ppartiyaviylik muhitini ta'minlash.

3. Nodavlat tuzilmalarni, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish.

4. Fikrlar xilma-xilligiga erishish. Ommaviy axborot vositalarini tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarish.

5. Inson huquq va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni qaror toptirish.

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy asosda bo'linishini ta'minlash; ma'muriy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, yangilash tizimini takomillashtirishdan iborat maqsadlari ilgari surilgan.

Siyosiy kommunikatsiya tizimining asosiy vazifasi olib borilayotgan umumsiyosatning mag'zini jamiyat hayotiga tatbiq etishga mo'ljallangan. Mamlakatda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik

¹²⁶ O'sha manba.

tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Mustaqillik davriga kelib, fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldi. Jumladan, "Mahalla" mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi. Ularning aksariyati o'zining qadimgi nomi va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborini qaytadan tiklab oldi. Aytish joizki, mahalliy o'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari quyidagilardir:

1. Demokratiya, oshkoralik, fikrlar xilma-xilligi.
2. Vorisiylik.
3. Ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish.
4. Yuksak ma'naviyat.
5. Mahalla xavfsizligini ta'minlash;
6. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va maslahatchilarining o'z mas'uliyatini his qilishi;
7. Ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, ijtimoiy kafolat (jamoatchilik va o'zaro yordam);
8. Kengash, mashvarat (maslahatlashish);
9. Insonparvarlik;
10. Mustaqillik.

Davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlar natijasida mahalla institutining ro'li tobora oshib bormoqda. Bu esa fuqarolar turmush tarzining yanada yaxshilanishini, mahalla institutlarining shakllanayotganini ko'rsatadi. Mahallalarning o'zini o'zi boshqarish organlari sifatidagi mavqeini yanada oshirish, ularning ro'li va ahamiyatini tobora kuchaytirish maqsadida davlat rahbari va hukumat tomonidan juda ko'plab farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekistonda o'ziga xos xarakterdagi mahalla instituti boshqa davlatlarda uchramaydigan, betakror milliy qadriyat va an'analarga

asoslangan jamoaviy tuzilmadir. Ya'ni mahalla boshqaruvi davlat hokimiyati organlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy davlat hokimiyatining demokratik tamoyili mavjud sharoitlarning o'ziga xosligini inobatga olib, jahondagi rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan ijobiy foydalanish asosida amalga oshirilmoqda. Shunga ko'ra, ijroiya hokimiyat davlat hokimiyati tizimining bir tarmog'i hisoblanadi.

Qonunlarning ro'yobga chiqarilishida zarur shart-sharoitlarni ta'minlash ijro etuvchi organlarning asosiy vazifasidir. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni mamlakat hukumati Vazirlar Mahkamasiga yuklatiladi. Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Mamlakatda prezidentlik instituti shakllandi, yanada takomillashdi, uning huquqiy negizlari mustahkamlandi. Buning natijasida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, prezidentlik institutini yanada liberallashtirish, dunyodagi rivojlangan davlatlar boshqaruvi tizimiga mos tarzda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda, ijroiya hokimiyat organlari parlamentga o'tkazilgan saylovlardan so'ng kamida bir oy ichida shakllantiriladi. Ijroiya hokimiyat organlari tizimiga Vazirlar Mahkamasi rahbari, Bosh vazir, hukumat-vazirliklari, davlat qo'mitalari rahbarlari, viloyat, tuman va shahar hokimlari, ular rahbarligidagi bo'limlar va boshqarmalar, shuningdek ular tizimidagi korxonalar, tashkilot va muassasalar ma'muriyati ham kiradi.

Ijroiya hokimiyat organlari jamoaviy rahbarlik asosida va yakka tartibda huquqiy hujjatlar qabul qilish yo'li bilan tegishli sohalarni boshqarish, rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, ularni amalga oshiradi. Ijroiya hokimiyat organlarining tizimi, huquqiy maqomi va vakolatlari Konstitutsiyaga binoan Oliy Majlis tomonidan belgilanadi. Ushbu jarayonlarda ommaviy kommunikatsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan davr mobaynida hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish borasida hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini yaratishga doir huquqiy asoslar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning ro'lini kuchaytirish to'g'risida"¹²⁷gi Konstitutsiyaviy qonunning ahamiyatini o'rganishda siyosiy kommunikatsiya tizimi alohida ahamiyatga ega.

Ushbu Konstitutsiyaviy qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini tayinlash va lavozimidan ozod etish, viloyatlar, Toshkent shahar hokimlari nomzodini tayinlash va tasdiqlash tartiblari hamda Xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari deputatlarining, viloyat va Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazorat qilish vazifalari to'g'risidagi masalalarda siyosiy partiyalarning ro'lini kuchaytirishga oid normalarni o'z ichiga oladi. Jamiyatning siyosiy hayotini erkinlashtirish, avvalo, aholining siyosiy faolligini kuchaytirishni, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni taqozo etadi.

Qozon universiteti tadqiqotchisi Yu.A. Semenchenkoning "Politicheskoy kommunikatsii v sovremennix usloviyax" nomli tadqiqot ishida siyosiy aloqaning tuzilishi, siyosatshunoslikda siyosiy muloqotning ikki turi ajratiladi: 1) gorizontal, o'rtasida aloqa o'tkazilganda nisbatan qo'shni institutsional komponentlar yoki ijtimoiy sub'yektlar (turli elita guruhleri yoki ommaviy harakatlarda o'zaro ta'sir qiluvchi oddiy fuqarolar o'rtasida); 2) Ular o'rtasida munosabatlar o'rnatilganda - vertikal makrosiyosiy tuzilmaning turli iyerarxik darajalari, masalan, bu siyosiy partiyalarning ijtimoiy siyosat kursini to'g'rilash to'g'risidagi deklaratsiyasi orqali elektoratning turli guruhleri hukumatga talablari bilan chiqadi.

¹²⁷ (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 151-modda; 2008 y., 52-son, 510-modda; 2011 y., 16-son, 160-modda; 2014 y., 16-son, 177-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Siyosiy aloqa usullari evolyutsiyasini o'rganishda asosiy e'tibor menejerlar va boshqariladiganlar o'rtasidagi munosabatlarni kommunikativ nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratiladi. Fransuz olimi J.M. Kottret ularni quyidagi paradigmadagi ko'rib chiqishni taklif qildi: o'ziga xoslik munosabatlari: menejerlar boshqariladiganlar bilan bir xil; inklyuziya munosabatlari: barcha menejerlar siyosiy jamiyatning a'zolaridir, lekin boshqariladiganlarning hammasi ham boshqaruv doirasiga kirmaydi. Bu munosabatlar o'zaro kirishishni o'z ichiga oladi va menejerlar va boshqaruvchilarning o'zaro ta'siri; siyosiy jamiyatning kengayishi sharoitida menejerlar va boshqariladiganlar o'rtasidagi munosabatlar kesishish munosabatlariga aylanadi. Menejerlar sinfi boshqariladiganlar sinfidan qisman ajratiladi. Siyosiy aloqaning bir qator modellari jamiyatning qolgan qismi ustidan o'z hokimiyatini bevosita emas, balki oraliq aloqalar orqali amalga oshiradigan elita ro'liga e'tibor beradi. unga ko'ra siyosiy tizimning elita, byurokratiya va omma kabi elementlari o'rtasida uzluksiz ma'lumot almashinuvi mavjud va elita har doim o'z kuchini mustahkamlashga yordam beradigan "pastga" ma'lumotlarni tuzadi va uzatadi¹²⁸ degan ilmiy mulohazalarini bayon etgan.

Huquqiy, demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, avvalo, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishni, mamlakat kelajagini ta'minlovchi yetuk mutaxassislarni yetishtirishni taqozo etadi. Bundan ko'rinadiki, jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikni, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash mazkur bosqichdagi dolzarb vazifa bo'lib, jahondagi globallashuv sharoitida turli mintaqalardagi vaziyatning keskinlashuvi, O'zbekistonning suvereniteti va barqaror taraqqiyotiga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqozo etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalqning xohish-irodasi, orzu-umidlari, shuningdek, davlat hokimiyati o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni o'rnatish siyosiy kommunikatsiyaning demokratik tamoyillaridan biri hisoblanadi.

¹²⁸ Семенченко Ю.А. Политической коммуникации в современных условиях. – Казан: Университет. 2018. – С. 24.

2.2. Davlat va jamiyat boshqaruvida inson huquqlari va siyosiy kommunikatsiya tizimi

Davlat hokimiyatining barcha organlari xalq manfaatlari yo'lida harakat qilishi va xizmat qilishi shart, agar ular xalq manfaatlarini poymol etib, bevosita o'zlarining vazifalarini bajarmas ekan, birinchi navbatda, xalqning farovonligi haqida qayg'urmas ekan, xalq uni o'zgartirish, tugatish va qayta saylash huquqiga ega bo'lishi kerak. Konstitutsionalizmning ingliz-amerika modeli erkinlikka eng ustuvor qadriyat sifatida qaragan holda, davlatning fuqarolik hayotiga aralashishiga yo'l qo'ymaydi. Aksincha, aynan fuqarolar davlatning vazifalarini belgilab beradi¹²⁹. AQShning Mustaqillik deklaratsiyasida fuqarolik jamiyatining belgilovchi ro'li quyidagicha aks ettirilgan: xalq hokimiyat manbai va suvereniteti unga tegishli, hukumat xalqning xizmatkori.

Fransuz mutafakkiri J.J. Russo qarashlarida ijtimoiy shartnoma nazariyasi markaziy o'rinni egallab, unda inson, jamiyat va davlat munosabatlari atroflicha tahlil etiladi. Russo o'z davrida ro'y bergan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilar ekan, kishilar o'z salohiyatini birlashtirgan holda hukmron sinfga qarshi tura olishi va ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mumkinligiga urg'u beradi.

Fuqarolik jamiyatini davlat hokimiyatining maqomi nuqtai nazaridan talqin etgan olimlardan biri Sh.L. de Monteske (1689–1755) o'zining “Qonunlar ruhi” nomli asarida davlatni fuqarolik jamiyatida fuqarolarning o'zaro adovatini bartaraf etishga qaratilgan jamoatchilik kelishuvining natijasi sifatida ko'rib chiqadi. Demak, fuqarolik jamiyati xalqning o'zaro munosabatlarini boshqarsa, davlat insonlarning siyosiy huquqlari va erkinligini ta'minlaydi. Sh.Monteskening ta'kidlashicha, “fuqaro uchun erkinlik o'z xavfsizligi borasida ishonchga asoslangan ruhiy xotirjamlikdir. Bunday xotirjamlikka erishish uchun shunday boshqaruv bo'lishi kerakki, bu holatda bir fuqaro boshqa fuqarodan qo'rqmasin”¹³⁰. Fuqarolik jamiyatida qonunlarning hayotda amal qilishiga urg'u bergan holda “men biror mamlakatga borsam, u yerda yaxshi qonunlar

¹²⁹ Qarang: Fuqarolik jamiyati asoslari: o'quv qo'llanma // Jalolov A., Muhammadiev U., Jo'raev Q. va boshq. – T.: Baktria press. 2015. – B. 11.

¹³⁰ Мухаев Р. Политология: учебник для студентов юридических и гуманитарных факультетов. – М.: PRIOR. 2000. – С. 160.

mavjudligi bilan emas, balki qonunlarga qanday itoat etilayotgani bilan qiziqaman”¹³¹, deydi Sh.L. Monteske. Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida asrlar davomida kuchli qonunlar ishlab chiqilgan. Lekin bu qonunlarning joriy qilinish darajasi xalqning qanday qabul qilishi hamda itoat etishi bilan o‘lchanadi.

Davlat insonlarning asosiy huquqlarini himoya qiladi, hokimiyat yordamida tabiiy dushmanlikni chegaralaydi, o‘z yaqinlari va qondoshlari hayotiga nisbatan bo‘lgan tahdidlarni, o‘z moddiy boyligidan xavotirlikni bartaraf etadi, fuqarolik jamiyati bo‘lsa, hokimiyatni jilovlab turadi.

Immanuel Kantning (1724–1804) “Butunjahon fuqarolikda umumiy tarix g‘oyasi” asarida huquqiy fuqarolik jamiyati sifatida davlat tuzilishini butun insoniyat ongiga qanday singdirish mumkin¹³², degan bir qancha masalalar keltirib o‘tilgan. Aynan mazkur jamiyatda uning fuqarolariga nisbatan buyuk erkinlik beriladi hamda bunda antagonizm¹³³ mavjud bo‘lishi ham mumkin.

Davlat va jamiyat to‘g‘risida A.Fergysonning nazariyasi ham juda muhim bo‘lib, uning fikricha, “shaxslarning baxti fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadidir: jamiyat a‘zolari baxtsiz bo‘lgan jamiyat qanday farovonlikka erisha oladi?”¹³⁴. Ommaviy faoliyat yuritish insonga xos bo‘lgan eng ulug‘ xususiyat bo‘lib, insoniyat baxti eng ulug‘ maqsad, jamiyat ichida yashash qobiliyati eng ulug‘ qobiliyatdir. Fergysonning fikriga ko‘ra, “inson faoliyatining ikkita – egoistik (xudbin) va ijtimoiy turi mavjud bo‘lib, birinchisi yopiqlik, raqobat va dushmanlik hissiga yaqin, ikkinchisi jamiyat ichida yashash, insonlarni birlashtirishga xizmat qiladi. Inson jamiyat a‘zosi sifatida butunlikning qismi bo‘lib, aslida u o‘z-o‘ziga tegishli emas. U jamiyat farovonligiga to‘sqinlik qiladigan har qanday erkinlik va baxtdan voz kechishi

¹³¹ Монтеске Ч. Избранные произведения. В 2 – томах / под. общ. ред. Баскин М.П. – М.: Госполитиздат. 1955. – С. 164..

¹³² Кант И. Идея всеобщей истории во всемирно – гражданском плане. // Соч. в 6 т. – М.: 1966. Т. 6. – С. 12.

¹³³ Antagonizm (yunoncha antagonizma – tortishuv, kurash) raqobat, kurash, qarama – qarshilik, dushman kuchlarining keskin kurashlari tamoyillari bilan tavsiflanadi. Xuddi bir – biriga mutlaqo zid bo‘lgan ikki taqdirning kesishuvi natijasi.

¹³⁴ Фергюсон А. Опыт истории гражданского общества // пер. с англ. под. ред. Абрамов М. – М.: Российская политическая энциклопедия. 2000. – С. 107.

kerak”¹³⁵. Ko‘rinib turganidek, A.Fergyuson fuqarolik jamiyatiga erishishda jamiyatning taraqqiy topganligi emas, balki axloqiy tarbiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligiga e‘tibor qaratadi.

Britaniyalik mutafakkir, davlat arbobi Edmund Byork (1729–1797) ko‘pgina ijtimoiy-siyosiy hodisalar, inson tabiati, fuqarolik jamiyati va siyosiy hokimiyatga nisbatan yangicha yondashuvga asos soldi. Xalqlarning taqdiri tarixiy an‘analar bilan bog‘liq ekanini asoslab berdi.

Adolatli fuqarolik jamiyati mamlakatda yashovchi barcha xalqlarning huquqiy va haqiqiy tengligi, ularning qardoshlarcha hamkorligi asosida fuqarolarning do‘stligi va birligini yaratib, g‘oyat uyushgan yuksak ongli va ma‘rifatli kishilarni kamol toptirmoqda, har bir fuqaroning baxt-saodati to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishini o‘z hayotiy qonuni qilib oladigan baynalmilal jamiyatdir. Ta‘kidlash kerakki, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z aksini topgan. 2018 yilda ushbu deklaratsiyaning 70 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. Inson huquqlariga oid birinchi universal xalqaro hujjat bo‘lgan mazkur deklaratsiyaning mazmun-mohiyatini atroflicha targ‘ib etish uchun maxsus davlat dasturi qabul qilindi.

Huquq va erkinliklar inson bilan hamisha birga bo‘ladigan, ayrim istisno hollarda cheklanishi mumkin bo‘lsa-da, ammo har qanday sharoitda mahrum etilishi mumkin bo‘lmagan, hattoki, voz kecha olinmaydigan huquqlardir. Demokratik davlatda tabiiy huquq va erkinliklar himoyasiga qaratilgan qoidalar ishlab chiqiladi. Konstitutsiya asosida kafolatlanadi va barcha boshqaruv organlari ushbu qoidalarga bo‘ysunadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlarini himoya qiluvchi qonuniy hujjat sifatida bugungi demokratik davlatlar orasida eng e‘tiborga molik bo‘lgan hujjat hisoblanadi. O‘zbekistonning o‘ziga xos tarzda rivojlanayotgani inson qadrining bosh mezon darajasiga ko‘tarilishi, qonunlarning takomillashtirilishi bilan ahamiyatlidir. Bunda siyosiy kommunikatsiyaning alohida o‘rin tutib, fuqarolar, davlat va jamiyat o‘rtasidagi aloqani uzviy tarzda ta‘minlaydi. Demak, O‘zbekiston

¹³⁵ Фергюсон А. Опыт истории гражданского общества // пер. с англ. под. ред. Абрамов М. – М.: Российская политическая энциклопедия. 2000. – С. 107.

Respublikasi o'z fuqarolarining huquqiy himoyasini doimiy ravishda ta'minlashni, ular o'z xududida yoki chet davlatda bo'lishidan qat'i nazar kafolatlaydi.

Inson huquqlari bo'yicha ta'lim, shuningdek, o'zaro hurmat va tushunishni o'rganish barchamiz uchun muhimdir. Buning uchun tenglikni targ'ib qilish, shaxslarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barcha fuqarolarning jamiyatdagi ishtiroki, shuningdek nizolarning oldini olish va hal qilishga yordam berishi zarur.

Odamlar o'z huquqlarining to'g'ri amalga oshirilishini, hurmat qilinishini va himoya qilinishini bilishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir" (JK.25-modda) ekani ta'kidlangan. O'lim jazosining bekor qilinishi O'zbekistonda eng ahamiyatli ish bo'ldi va buning uchun "Habeas corpus" instituti ishlamoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning shiddat bilan o'sib borayotgan zamonaviy dunyoqarashiga e'tibor beradigan bo'lsak, asosan davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan hujjatlarda inson huquqlarining himoya qilinishini tubdan takomillashtirgan holda juda katta ishlar olib borilmoqdaki, buning zamirida O'zbekiston aholisining hayotga bo'lgan ishonchi yanada ortib bormoqda. Siyosiy kommunikatsiya tizimida bunday sa'y-harakatlarning asosiy mag'zini xalqqa osonroq tushuntirish imkoniyati tug'iladi. Konstitutsiyada milliy mentalitetni asrash, inson qadrini e'zozlash masalalariga katta e'tibor qaratildi. Qonun ustuvorligi insoniy qadriyatlarning saqlanishida huquqiy qalqon vazifasini o'taydi.

Demokratiyaning asosi sifatida inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish normaga aylanishi uchun fuqarolar, birinchidan, o'z huquq va majburiyatlarini tan olishlari, ikkinchidan, bu sohada ma'lum bilimlarga ega bo'lishlari, uchinchidan, boshqalarning huquqi, qadr-qimmatini hurmat qilishi, to'rtinchidan, ularni himoya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

1993 yil Venada bo'lib o'tgan Inson huquqlari umumjahon konferensiyasida xalqaro hamjamiyat tomonidan inson huquqlariga keng qamrovli yondashish zarurligi ta'kidlangan. Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturining 5-bandida Kofi Annanning

“Inson huquqlari – umuminsoniy qadriyat” mavzusidagi ma‘ruzasida - “Inson huquqlari hech qaysi madaniyatga begona emas va barcha xalqlarga tegishlidir, inson huquqlari umuminsoniy qadriyat hisoblanadi”¹³⁶. Barcha inson huquqlari qadriyat hisoblanadi, ularni bir-biridan ayri tasavvur qilib bo‘lmaydi va ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir, degan fikrlarni aytgan edi.

Xalqaro hamjamiyat inson huquqlariga umumjahon miqyosida bir xil urg‘u berib, odil va teng munosabatda bo‘lish kerak. Milliy va mintaqaviy xususiyatlar, turli tarixiy, madaniy va diniy jihatlarning muhim ahamiyati hisobga olinishi zarur bo‘lsa-da, siyosiy va madaniy tizimlardan qat‘iy nazar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish hamda targ‘ib etish barcha davlatlarning majburiyati hisoblanadi¹³⁷. O‘z fikrini erkin ifoda etish huquqi har qanday demokratik jamiyatda mavjuddir. Bu huquq jamoatchilikning o‘z faoliyatini olib borishida yetarli ma‘lumotga ega bo‘lib turish vositasini ifodalaydi. Aytish mumkinki, yetarlicha ma‘lumot olib turmagan jamiyat haqiqatdan erkin jamiyat bo‘la olmaydi¹³⁸.

Xalq – davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi zamonaviy demokratiyaning asosi hisoblanadi va shuning uchun juda muhimdir. Bunda fuqarolar davlat boshqaruvida ommaviy ishtirok etishlari, ovoz berish va saylash huquqi, hukumat ishida xizmat qilish uchun teng imkoniyatlar bo‘lishi shart.

Fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida belgilanganidek, “1. Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o‘z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega. 2. Har bir inson o‘z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega. 3. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo‘lishi lozim, bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta‘minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o‘tkaziladigan saylovlarda o‘z aksini topishi lozim”¹³⁹. O‘zbekistonda Inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilik quyidagi asosiy yo‘nalishlar

¹³⁶ Qarang: Kofi Atta Annan. Inson huquqlari: Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. – T.: Baktria press. 2019. – B. 25.

¹³⁷ O‘sha joyda. – B. 27.

¹³⁸ Qarang: Inson huquqlari: Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. – T.: Baktria press. 2019. – B. 195.

¹³⁹ O‘sha joyda. – B. 206.

bo'yicha qabul qilindi, xususan, fuqarolarning shaxsiy huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini yaratish ushbu yo'nalish doirasida kengashlar va diniy tashkilotlarning erkinligi, ta'lim to'g'risida, fuqarolarning murojaatlari, huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

Davlat va jamiyat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarning huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda, bu jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi.

Inson huquqlarini tushunib yetish uchun nihoyatda muhim bo'lgan odamlarning tabiiy tengligi, g'oyalari qadim yunon mutafakkirlari (Protagor, Antifon, Likofron) hamda qadimgi Xitoy donishmandlari (Mao-szi, Konfutsiy) siyosiy va huquqiy ta'limotlarida eramizdan oldingi VI–IV asrlardayoq ilgari surilgan. Demak, o'sha davrlardayoq siyosiy kommunikatsiyaning ilk shakllari rivojlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Qonun oldidagi tenglik tushunchasi qadimgi Rim huquqshunoslariga tegishli bo'lib, Sitseron doimiy ravishda o'z ma'ruzalarida "hamma qonun ta'sirida bo'lishi kerak"¹⁴⁰, deb ta'kidlagan. Inson huquqlari jamiyatning taraqqiyot tarixi bilan bevosita uyg'unlikda uzoq tadrijiy takomil yo'lini bosib o'tdi. Buning ibtidosi insonning o'zini qurshab turgan atrof-muhitdagi xatti-harakatlarni tartibga solib turish zaruriyatini taqozo etuvchi ilk jamoaviy hayot shakllarida kuzatiladi.

Цивилизация natijasida fuqarolik tushunchasi shaxs bilan davlat o'rtasidagi barqaror va doimiy siyosiy-huquqiy aloqa bo'lib, ularning o'zaro huquqlari, burchlari va majburiyatlari in'ikosi sifatida ta'riflanadi. Bunday aloqalar inson va fuqarolarning qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini tan olish hamda hurmat qilishga asoslanadi.

Inson huquqlarining tabiiy-huquqiy konsepsiyasini shakllantirishda XVI–XVIII asrlarda yashab o'tgan Jon Lokk (ingliz), Peyn va Tomas Jefferson (amerikalik), Jan Jak Russo, Sharl Monteske, Volter (fransuz), Gyugo Grotsiy (gollandiyalik) kabi ma'rifatparvar mutafakkirlar yetakchi o'rin tutadi.

¹⁴⁰ Рижский М.И. Цицерон Марк Тулий. Философские Трактаты. – М.: 2011. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ucheniya-tsitserona-o-gosudarstve-i-prave>.

Bugungi kunda inson huquqlari mintaqaviy maqomdagi, masalan, “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida” Yevropa konvensiyasi (1950), “Inson huquqlari to‘g‘risida” Amerika konvensiyasi (1969), “Inson va xalq huquqlarining Afrika xartiyasi” (1981), “MDH mamlakatlarining inson huquqlari to‘g‘risida” konvensiyasi (1995) kabi xalqaro bitimlarda mustahkamlab qo‘yilgan.

Hozirda demokratik rivojlanish yo‘lidan ketayotgan har bir davlatning qanchalik demokratik qadriyat va tamoyillarga sodiqligini ko‘rsatuvchi mezonlardan biri bu – inson huquqlarining himoyalanganligidir. Zamonaviy huquqning asosiy tamoyillaridan biri inson huquq va erkinliklarini mustahkamlash hamda ta‘minlashdan iborat.

1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi xalqaro miqyosda inson huquqlari sohasidagi me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga qaratilgan faoliyatlar uchun asos bo‘lib qoldi. Insonning asosiy fundamental huquqlari universal xalqaro shartnomalarda (masalan, 1966 yilgi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi, 1966 yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt va boshqa hujjatlar) mustahkamlab qo‘yilgan¹⁴¹. BMT, XMT hamda YuNESKOning aholi ayrim guruhlarining huquq va erkinliklarini tartibga soluvchi konvensiyalari – BMTning Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (1952), Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (1989), YuNESKOning Ta‘lim sohasida kamsitishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyasi (1960) va hokazolar. Inson huquqlari sohasida kodekslash jarayonining amalga oshirilishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Hozirgi paytda BMTning inson huquqlari borasida 70 ga yaqin konvensiyasi mavjud.

Xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qiluvchi davlatlar uchun inson huquqlari sohasidagi konvensiya tuzish faoliyati faqatgina xalqaro andozalar miqdorini ko‘paytirishga xizmat qilmay, ularni davlat qonunchiligida mustahkamlab qo‘yishga qaratilgan milliy-me‘yoriy hujjatlarni yaratish jarayonlarini ham faollashtirdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda siyosiy kommunikatsiyaning jamiyatda tutgan o‘rnini oshirish, qabul qilingan huquq normalarining ijtimoiy hayotdagi munosabatlar

¹⁴¹ Рижский М.И. Цицерон Марк Тулий. Философские Трактаты. – М.: 2011. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ucheniya-tsitserona-o-gosudarstve-i-prave>.

rivojiga ta'sirini kuchaytirish borasida muayyan sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida shaxsning yetarli turmush darajasiga bo'lgan huquqi ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqqa qo'shimcha ravishda quyidagilarni o'z ichiga olgan:

- Yetarli oziq-ovqatga ega bo'lish huquqi;
- Yetarli kiyim-kechakka ega bo'lish huquqi;
- turar joyga ega bo'lish huquqi;
- sog'liqni saqlash huquqi¹⁴².

Shu o'rinda aytish joizki, inson huquqlari asosida inson qadri turadi. Odatda, inson huquqlarining uch bo'g'ini farqlanadi: ya'ni fuqarolik va siyosiy huquqlar (yashash, qiynoqqa solishning taqiqlanishi, adolatli sudlov, fikr va so'z erkinligi, uyushmalarga birlashish) va iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar (bilim olish, mehnat qilish, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatlardan foydalanish) hamda tinchlikka bo'lgan huquq, rivojlanishga bo'lgan huquqni misol qilib keltirish mumkin.

O'zbekiston keyingi yillarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, himoya qilish borasida umumdunyoviy jarayonlarda faollashdi. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan inson huquqlari sohasidagi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Paktlar (1966), Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1979), Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya (1984), BMTning Bolalar huquqlari to'g'risidagi (1989) konvensiyalari ratifikatsiya qilindi. Bu, o'z navbatida, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro huquqiy andozalarni qabul qilish jarayonining yanada samarali bo'lishiga imkoniyat yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida "Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart"¹⁴³ ekanligi qayd etilgan. Mazkur qoida qonunosti hujjatlarida mustahkamlab qo'yildi.

¹⁴² Qarang: Inson huquqlari: Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: Baktria press, 2019. – B.235.

¹⁴³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat. 2023. – B. 12.

Jamiyat o'z hayotida va barcha sohalarda integratsiya jarayonida misli ko'rinmagan yangi imkoniyatlarga ega. Globallashuv sharoitida bu tabiiy jarayon bo'lib, siyosiy kommunikatsiya tarmoqlari orqali nazoratda bo'ladi.

Inson huquqlarini ta'minlash bu ma'lum masofadan so'ng harakat to'xtaydigan oxirgi bekat emas, balki uzviy davom etadigan jarayondir. Davlat va jamiyat taraqqiyotining mislsiz ildamlab borishida siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligi o'ziga xos ta'sirga ega. Kommunikativ imkoniyatlarning kengayib borishi, axborotni ommaga yetkazishda davr talabiga mos yangi ilg'or texnologiyalarning tatbiq etilishi odamlarning ongini o'zgartirishga yordam beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 400dan ortiq tilda nashr qilingan. Dunyoda biror hujjat bunchalik ko'p tillarga tarjima qilinmagan. Bu esa, uning universal xususiyati va ko'lamidan dalolat beradi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ko'plab demokratik mamlakatlar konstitutsiyalarining asosiga aylangan. U fundamental huquq va erkinliklarga hurmat va rag'batlantirishning mezoni bo'lgan etalon hisoblanadi. Dunyo taraqqiyotidagi integratsion jarayonlar bilan bir qatorda, xalqlar va davlatlarning mustaqilligi va suverenitetini himoya qiluvchi tamoyil mavjudligi bois zamonaviy ochiq dunyoning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va milliy plyuralizmi har doim ham bir xil natijalarga olib kelmaydi, degan xulosa qilishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 9-moddasida mustahkamlanganidek, fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlariga tegishli bo'lgan fuqarolik huquqlarini, shu jumladan, ularni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar. Fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini amalga oshirishdan voz kechishi bu huquqlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutilgan. Ushbu moddaning 3, 4, 5-qismlarida nazarda tutilgan talablarga rioya qilinmagan taqdirda, sud shaxsga tegishli huquqni himoya qilishni rad

etishi mumkin¹⁴⁴. Shuningdek, 10, 11, 12, 13-moddalar bilan mustahkamlangan qoidalarda davlat hokimiyati prinsiplari va siyosiy kommunikatsiya usullarining uyg'unligi mujassam.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari BMTning inson huquqlari bo'yicha yuzdan ortiq xalqaro konvensiya va deklaratsiyalari, mintaqaviy shartnomalari, inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik va davlatlar konstitutsiyasining asosi hisoblanadi hamda ular inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirishni ta'minlab berishga qaratilgan¹⁴⁵.

Inson huquqlari sohasida davlat va jamiyat nazorati turlarini belgilab beruvchi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o'rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi. Shuning uchun har bir davlat tuzilmasining eng muhim vazifasi inson huquqlariga rioya qilishni ta'minlash uchun qonun va boshqa huquqiy hujjatlarning harakatini ta'minlab berishdan iborat¹⁴⁶. Bu yo'nalishda siyosiy kommunikatsiyaning zamonaviy tamoyillarga asoslangan tizimi harakatlanadi. Albatta, siyosiy kommunikatsiya o'ziga xos xarakter kasb etgan holda hayotiy harakatlarning barcha tizimida mavjud bo'lgan aql impulsi sifatida namoyon bo'ladi. Inson huquqlarini himoya qilish tamoyillarida siyosiy kommunikatsiyaning ahamiyati nihoyatda dolzarb.

Zamonaviy sharoitda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu institutni ilmiy tushunish, uning mazmun-mohiyati va huquq tizimidagi o'rnini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak. Inson huquqlari Davlat siyosatini yuritishda asosiy omil sifatida qabul qilinadi.

Inson huquqlari zamonaviy huquqshunoslikning eng muhim kategoriyalaridan biridir; Inson huquqlari instituti uzoq vaqtdan beri rivojlanib kelmoqda. B.S. Ebzeyev to'g'ri ta'kidlaganidek, "inson va fuqarolik huquqlari murakkab va xilma-xil ijtimoiy hodisa bo'lib, o'z taraqqiyotida bir qancha ketma-ket bosqichlarni bosib o'tgan"¹⁴⁷. U yoki bu darajada shaxsiy huquqlar barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda mavjud

¹⁴⁴ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat. 2021. – B. 10.

¹⁴⁵ Mo'minov A., Tillaboev M. Inson huquqlari. – T.: Adolat. 2013. – B. 3.

¹⁴⁶ Mo'minov A., Tillaboev M. Inson huquqlari. – T.: Adolat. 2013. – B. 4.

¹⁴⁷ Эбзев Б. – С. Человек, народ, государство в конституционном строе Российской Федерации. – М.: 2005. – С. 171.

bo'lgan, lekin birinchi va keyingi konstitutsiyaviy hujjatlarda mustahkamlangan holda jahon konstitutsiyaviyligining rivojlanishi bilan to'liq mujassamlashgan¹⁴⁸. Bugungi kunda inson huquqlariga haqli ravishda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy davlat qurishning eng muhim sharti sifatida qaralmoqda¹⁴⁹. Zamonaviy sharoitda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, bu institutni ilmiy tushunish, uning mazmun-mohiyati va huquq tizimidagi o'rnini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Inson huquqlari o'sha murakkab murakkab siyosiy jarayonning o'zagi bo'lib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda jamoatchilik bilan aloqalar¹⁵⁰, deb ataladi. Shu bilan birga "Jamoatchilik bilan aloqalar deganda, biz davlat organlari va ular nazorati ostidagi jamoat tuzilmalarining mamlakat aholisining ijtimoiy o'zaro hamkorligini va ijtimoiy nazoratini ta'minlash maqsadida mamlakat fuqarolariga tizimli va murakkab ta'sir ko'rsatishning tobora murakkablashayotgan jarayonini tushunamiz"¹⁵¹ degan edi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik me'yorlarida o'z ifodasini topgan. Zamonaviy demokratik davlat qurish zamirida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy, ma'muriy, ilmiy, ta'limiy, ommaviy-siyosiy kommunikatsiya shakllari bilan bir qatorda siyosiy va huquqiy kommunikatsiya katta ahamiyatga ega bo'lib, bu tizim xalq bilan davlat o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Amaldagi barcha jarayonlarni muvofiqlashtirib, chambarchas holatda faoliyat ko'zgusiga aylantiradi.

Bugungi shiddatli rivojlanishlar zamirida O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yillari shartli ravishda ikki bosqichga bo'linadi. Bu ikki bosqichning har birida inson huquqlari o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega. 1991–2000 yillarda birinchi darajali

¹⁴⁸ Пашенцев Д.Ф. Права и обязанности в правовом статусе личности: проблемы взаимоотношений // Евразийский юрид. Журнал. 2008. № 4.

¹⁴⁹ Грудцына Л.Ю. Государство и гражданское общество: Монография / Под ред. проф. – С. М. Петрова – М.: Юридическое издательство «YURKOMPANI». 2010. – С. 406.

¹⁵⁰ Рогачева Л.И. Взаимодействие государства и общества в условиях евразийской интеграции // Евразийский юрид. журнал. 2013. № 2. – С. 31.

¹⁵¹ Рогачева Л.И. Взаимодействие государства и общества в условиях евразийской интеграции // Евразийский юрид. журнал. 2013. № 2. – С. 31.

islohotlar va o‘tish davri islohotlari hamda milliy davlatchilik asoslari shakllantirildi. Bu davrda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurishning huquqiy va tashkiliy asoslari barpo etildi, inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, ularga rioya etish hamda himoya qilishning siyosiy tizimi shakllantirildi. Ayni shu yillarda O‘zbekiston BMTning inson huquqlariga oid oltita asosiy hujjatlariga qo‘shildi, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, inson huquqlari sohasida uzluksiz ta‘lim tizimi tashkil etildi. Bu jarayonda ta‘lim kommunikatsiyasining o‘rni dolzarb ahamiyat kasb etgan.

2001 yildan to hozirgi kunga qadar faol demokratik yangilanish va mamlakatni modernizatsiyalash muhim siyosiy huquqiy-kommunikatsiya davrdir. Bu davrda umumdavlat va mintaqalar manfaatlarini ifodalovchi ikki palatali parlamentning tashkil etilishi hamda faol ishlashi asosida qonunchilik hokimiyatining ta’siri kuchayib bordi. Davlat miqyosidagi muhim qarorlar qabul qilinishida siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlari oshirildi. Davlat tuzilmalari ustidan jamoatchilik nazorati va monitoringini amalga oshirish borasida nodavlat notijorat tashkilotlarining nufuzi oshirildi. Sud-huquq tizimini liberallashtirishga qaratilgan tub islohotlarning amalga oshirilishi, jazo tizimidan o‘lim jazosining chiqarib tashlanishi, sud hokimiyati mustaqilligi va samaradorligining mustahkamlanishi hamda inson huquqlari bo‘yicha ta‘lim sohasida keng axborot-ma‘rifiy ishlarning amalga oshirilishi jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish bilan xarakterlanadi.

F.M. Rudinskiyning inson huquqlari muammolariga inson huquqlari fanini shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan. Uning faoliyati inson huquqlari sohasida shogirdlari va izdoshlari tomonidan shakllantirilgan ilmiy maktabni yaratishga yordam berdi. Inson huquqlarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar natijalari bir qator ilmiy nashrlarda, jumladan, “Moskva Davlat Pedagogika Universitetining xabarnomasi” jurnali sahifalarida o‘z aksini topgan. “Huquqiy fanlar” turkumi. Yu.V Gavrilova tomonidan nashr etilgan nashrlarda. insonning iqtisodiy huquqlarining ba‘zi jihatlari ochib beriladi, inson huquqlari tizimidagi o‘rnini ko‘rsatadi¹⁵². Ilmiy bilimlarning ushbu sohasining ahamiyati iqtisodiyotning rivojlanishi bilan belgilanishi,

¹⁵² Гаврилова Ю.В. Экономические права в системе прав человека // Вестник МГПУ. Сер. «Юридические науки». 2008. № 1 (21). – С. 8. Ее же. Право на предпринимательскую деятельность в системе экономических прав // Там же. 2010. № 1 (5). – С. 8.

birga mamlakat fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishda ulkan ro'l o'ynaydi¹⁵³. Bunday sharoitda siyosiy huquqlar muloqoti shaxsning huquqiy maqomining muhim elementini ifodalaydi. Aynan siyosiy kommunikatsiya insonning asosiy hayotiy ehtiyojlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi va natijada jamiyat va davlat mavjudligini belgilaydi. Yu.V. Kurakina inson huquqlari va fuqarolik huquqlari o'rtasidagi munosabatlar muammosini ishlab chiqadi, bu "Moskva Davlat Pedagogika Universitetining xabarnomasi"¹⁵⁴ sahifalarida chop etilgan bir qator maqolalarda ham o'z aksini topgan. Siyosiy inson huquqlarining xususiyatlari S. A. Afanasevaning nashrlarida o'rganiladi¹⁵⁵. Ular siyosiy inson huquqlari demokratiyaning asosini tashkil etishini ta'kidlaydilar. Bu huquqlar zamonaviy konstitutsiyaviylikning eng yuqori tamoyili sifatidagi demokratiyaning nazariy va amaliy mujassamlanishida ifodalangan¹⁵⁶.

A.A. Krikunovanning maqolalari insonning ijtimoiy huquqlariga bag'ishlangan. Yevropa huquqlar sudi tomonidan ijtimoiy huquqlarni himoya qilishga alohida e'tibor beradi¹⁵⁷. Ijtimoiy huquqlar birinchi avlod huquqlariga tegishli emas. Shu bilan birga, bugungi kunda, Konstitutsiya Rossiyani ijtimoiy davlat deb e'lon qilganda, shaxsning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish birinchi o'ringa chiqadi va jamiyat taraqqiyotining barqarorligini kafolatlaydi, deya o'z fikrlarini misollar orqali ifodalaydi tadqiqotchi. An'anaga ko'ra, fakultetda vijdon erkinligi bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor qaratiladi, bu F.M. Rudinskiy tomonidan qo'yilgan an'analarga sodiqligini aks ettiradi. I.V.Shisheninaning maqolasi konstitutsiyaviy loyihalarda vijdon erkinligiga bag'ishlangan¹⁵⁸. Vijdon erkinligi haqidagi bir qator nashrlarda ham S.A.

¹⁵³ Грудцына Л.Ю. Экономика и гражданское общество: введение в проблему // Право и жизнь. 2012. № 163. – С. 153..

¹⁵⁴ Куракина Ю.В. Понятие «права человека» и «права гражданина» в законодательстве и научной литературе // Там же. 2008. № 1 (21). – С. 120.; Ее же. Соотношение понятий «права человека» и «права гражданина»: культурологический аспект // Там же. 2010. № 1 (5). – С. 14..

¹⁵⁵ Афанасева С.А. Становление и развитие института политических прав и свобод в России // Там же. 2009. № 2 (4). – С. 115..

¹⁵⁶ Пашенцев Д.А. Конституция России: этапы развития. – М.: Готика. 2008.

¹⁵⁷ Крикунова А.А. Защита социальных прав человека Европейским Судом по правам человека // Там же. 2010. № 2 (6). – С. 118.; Гайдидей Ю.М. О защите прав и свобод человека в европейском суде по правам человека // Евразийская адвокатура. 2013. № 2 (3). – С. 81.

¹⁵⁸ Чишенина И.В. Свобода совести в проектах Конституции РФ (1990 – 1993) // Там же. 2008. № 1 (21). – С. 19.

Buryanovning Vijdon erkinligi konstitutsiyaviy tamoyilining buzilishiga Rossiya davlatining dunyoviylik tamoyiliga qat'iy rioya qilgani uchun qat'iy qarshi chiqqan¹⁵⁹. Shunday qilib, "Moskva Davlat Pedagogika Universitetining xabarnomasi" sahifalarida taqdim etilgan ilmiy nashrlarni kuzatar ekanmiz inson huquqlari bilan bog'liq turli jihatlar kuzatildi: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy. Shu bilan birga, ayrim mualliflar, xususan, D.A. Pashensev, "inson huquqlari shaxsning majburiyatlari bilan uzviy bog'liqligi va ular bilan dialektik birlikni tashkil qilishiga e'tibor qarating"¹⁶⁰ nomli maqolasida Muallif inson huquqlari toifasidan siyosiy maqsadlarda foydalanishning zamonaviy tendensiyasini, inson huquqlarining demokratiya muammosi bilan aloqasini, shaxsning huquqiy maqomi tarkibidagi huquq va majburiyatlarning birligini ko'rsatadi.

Inson faoliyati boshlanibdiki, uni chinakam inson darajasiga yetkazishda huquqiy va siyosiy kommunikatsiya tizimining o'rni beqiyos. Konstitutsiya, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro bitimlarda mustahkamlab qo'yilgan normalar va andozalar inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston qonunchiligining negizi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan o'ndan ortiq qonun qabul qilingan bo'lib, ular inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar huquqiy maqomi, vakolatlari va majburiyatlari doirasida faoliyat yuritadi. Shu orqali inson huquqlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, hozirgi kunda O'zbekistonda inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi va ularni himoya qilishning milliy mexanizmi shakllangan. Bugun yangi davr ostonasida globallashtirilgan innovatsion g'oyalar, ilg'or texnologiyalar, zamonaviy dunyoqarash zamirida insoniyat o'zligini anglagan holda jamiyat va davlat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishi uchun har bir inson ongli ravishda mas'uliyatni his qilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari sohasidagi siyosatini quyidagi tamoyillar negizida kafolatlaydi:

Birinchi tamoyil – inson huquqlari sohasida umume'tirof etilgan g'oyalar va qadriyatlar hamda xalqaro majburiyatlarga sodiqlik;

¹⁵⁹ Бурянов С.А. Свобода совести как право человека и институт российского конституционного права // Там же. 2010. № 1 (5). – С. 23..

¹⁶⁰ Пашенцев Д.А. Несколько тезисов о правах человека // Там же. 2011. №1. – С.122.

Ikkinchi tamoyil – inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining huquqiy davlatchilik va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga asoslangan asosiy milliy manfaatlardan kelib chiqish;

Uchinchi tamoyil – shaxs manfaatlari ustuvorligini ta'minlashda Konstitutsiyamizda mustahkamlangan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining muvozanati;

To'rtinchi tamoyil – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va sud-huquq sohalaridagi barcha islohotlarning tadrijiy, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va tizimlilik xususiyati;

Beshinchi tamoyil – alohida toifadagi shaxslar, xususan, bolalar, yoshlar, ayollar, nogironlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilishning ustuvorligi;

Oltinchi tamoyil – ochiqlik va oshkoralik;

Yettinchi tamoyil – davlatning fuqarolik jamiyati institutlari va OAV bilan ijtimoiy hamkorligi;

Sakkizinchi tamoyil – inson huquqlari sohasida faol xalqaro hamkorlik¹⁶¹.

Ushbu sakkizta tamoyil zamonaviy jamiyatda inson huquqlari kafolatlari uchun asos vazifasini o'taydi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi katta miqdordagi normativ-huquqiy hujjatlardan (Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar, qonunosti hujjatlari) tashkil topgan. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining inson huquqlariga doir bo'limida Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasida nazarda tutilgan inson huquqlarining barcha turlari o'z aksini topgan. Konstitutsiyaga muvofiq kompleks qonunlar qabul qilinib, insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari tasdiqlangan. Ular Fuqarolik, Fuqarolik-protsessual, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Xo'jalik-protsessual, Jinoyat-ijroiya, Mehnat, Oila, Yer, Uy-joy, Soliq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi 15 ta kodeks va 600 dan ziyod qonunlarda yanada mustahkamlangan.

Parlament va siyosiy partiyalarning demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash, fuqarolik institutlarining inson huquqlarini himoya

¹⁶¹ URL: <https://insonhuquqlari.uz/uz/menu/inson> – uulari – soasida – davlat – siesati. Murojaat vaqti: 10.09.2023.

qilishdagi ro`lini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda sud-huquq tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh etish siyosati "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida o'z aksini topmoqda. Shunday ekan, Konstitutsiyada va qonunlarda insonning asosiy huquqlarini cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Bugungi kunda birgina "Huquqlar to'g'risidagi bill"¹⁶²da sud maslahatchilarining huquqlari sezilarli darajada kengaytirildi. Bu hukumat tomonidan sud maslahatchilarini ixtiyoriy o'zgartirilishiga qarshi kafolatlar o'rnatilganini ifodalaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'yekti sifatida BMTning ustav va shartnomaviy organlari, maxsus mexanizmlari bilan inson huquq va erkinliklari sohasida xalqaro standartlarni implementatsiya qilish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, O'zbekistonda va BMTga a'zo bo'lgan boshqa davlatlarda inson huquqlari sohasidagi vaziyatning xalqaro va milliy monitoringini takomillashtirishda faol ishtirok etayotganining o'zi asosiy maqsadga erishganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat barpo etish, inson, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat hisoblanadigan adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamlı sa'y-harakatlar butun hayotimizdagi ulkan yangilanishlar, beqiyos o'zgarishlar timsolida, ayniqsa, yurtdoshlarimizning ko'tarinki kayfiyati, yuksak bunyodkorlik ruhi, Vatan taqdiriga daxldorlik hissida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Fuqarolarning inson huquqlari va erkinliklari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash hamda ularda insonlarga, ularning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatiga nisbatan hurmat hissini yanada oshirishni talab etadi. Shunga mos ravishda jamiyatda huquqiy ong va siyosiy savodxonlikni yanada yuksaltirish maqsadida siyosiy kommunikatsiyani rivojlantirish fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

¹⁶² Билл о правах // Русский орфографический словарь: около 180 000 слов [Электронная версия] / О. Е. Иванова, В. В. Лопатин (отв. ред.), И. В. Нечаева, Л. К. Челцова. – 2 – е изд., испр. и доп. – М.: Российская академия наук. Институт русского языка имени В. В. Виноградова. 2004. – С. 960. – ISBN 5 – 88744 – 052 – X.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, siyosiy huquq va erkinliklar shaxsga siyosiy jarayonning mustaqil va erkin ishtirokchisi sifatida o'zini namoyon qilish, shuningdek, alohida guruhlar, birlashmalar, harakatlar va boshqalar tarkibida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Siyosiy huquq va erkinliklarning boshqa konstitutsiyaviy huquqlardan farqi shundaki, siyosiy huquqlar – saylash va saylanish, referendumda ishtirok etish huquqi, boshqaruv huquqi bilan bog'liq. Fuqarolar siyosiy huquqlarining kafolati bevosita davlatning demokratiya darajasiga, mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylik rejimiga, siyosiy an'analarga bog'liqligi bilan belgilanadi.

Takliflar.

1. “Fuqarolarning psixologik xavfsizligi asoslari to'g'risida”gi qonun ishlab chiqish, bu inson hayotining ayrim sohalarida (ta'lim muassasalarida, qamoqxonalarda, armiyada va boshqalarda) va ekstremal vaziyatlarda (halokatlar, harbiy harakatlar va boshqalar) psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu omil siyosiy jarayonlarda davlat fuqarolarining huquqiy muhofazasiga asos bo'ladi.

2. “Inson huquqlarini himoya qilish va turli xavflardan asrash” bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun o'qitishning davlat tizimini yaratish. Davlat organlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha nodavlat tizimini yaratishga faol yordam berishi zarur. Bunday tizim ijro etuvchi hokimiyatdan mustaqil bo'lgan nazorat, murojaat va tadqiqot tuzilmalarini o'z ichiga olib, fuqarolar undan o'zi qonuniy ehtiyojlariga muvofiq foydalanadi.

2.3. Jamiyatning ijtimoiy tizimidagi siyosiy kommunikatsiya

Siyosiy kommunikatsiyani jamiyatning ijtimoiy tizimida rivojlantirishda bir qancha qonunlar majmui ta'siri ancha jonlandi.

Mamlakatda huquqiy demokratik davlat qurish va fukarolik jamiyatini barpo etish jarayonida islohotlarni amalga oshirish natijasida umumta'rif etilgan xalqaro huquq normalariga asoslangan holda, azaliy qadriyatlarimizga xos xususiyatlar aks ettirilgan milliy qonunchilikka asos solindi. Zamonaviy taraqqiyotning o'ziga xos shakli huquqiy kommunikatsiya sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Siyosatning tobora kuchayib borayotgan “vositalanishi” va davlat organlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish fuqarolarni bevosita hokimiyat manbasidan ma’lum bir yo’nalishda boshqariladigan odamlar massasiga aylantirish xavfini keltirib chiqaradi. Bu jarayonlar siyosiy makonda axborot almashinuvi ustidan nazorat qilish, elitaga tegishli bo’lib, jamoatchilik manfaatlarini e’tibordan chetda qolgan demokratik rejim o’rnini bosuvchi siyosiy rejimning mediakratik shaklini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitdir. Bu fuqarolarning davlat hokimiyatiga bo’lgan ishonchini yo’qotishiga olib keladi va natijada butun siyosiy tizimning beqarorlashuvi xavfini tug’diradi.

Bunday sharoitda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan olib borilayotgan siyosatning oshkoralik fenomeni yangilanmoqda. I.M. Dzyaloshinskiyning fikriga ko’ra, siyosatning ommaviyligining ma’nosi “jamiyatning siyosiy jarayondagi ishtirokini qo’llab-quvvatlash va kengaytirish”dir¹⁶³ deya ta’kidlaydi.

Aynan axborot-kommunikatsiya jarayonlari fuqarolar uchun davlat siyosati makonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlovchi mexanizmdir. Shaffoflik va oshkoralik tushunchalari ma’no jihatidan juda yaqin, ba’zan ilmiy adabiyotlarda ular sinonim sifatida tushuniladi. Lekin, shu bilan birga, davlat siyosati makonining bu xususiyatlari turli xil ta’riflarga ega. Rossiyalik olim Strizoye, Aleksandr Leonidovich o’zining “Siyosat va jamiyat” nomli monografiyasida quyidagicha fikr bildiradi “O’z tabiatiga ko’ra, hokimiyat jamoat maydonidan tashqarida mavjud bo’lolmaydi. Hokimiyat makonining oshkoraligi siyosiy qarorlarning aksariyat qismini qabul qilish va amalga oshirishda ochiqlik, oshkoralik bilan sinonimdir”¹⁶⁴, ya’ni shaffoflik deganda ommaviy axborot vositalari va boshqa siyosiy kommunikatsiya institutlarining faoliyati tushuniladi, bu esa fuqarolarga davlat hokimiyati organlari tomonidan siyosiy qarorlar qabul qilishning aniq jarayonini ta’minlaydi va ochiqlik shaffoflikka asoslanadi.

¹⁶³ Дзялошинский И.М. Гражданские коммуникации и публичная политика // Михайловна – <http://www.regnum.ru/news/427660.html> (data obrasheniya 10.04.2009); Красин ЙУ.А. аспирант кафедры Публичная сфера и публичная политика в российском измерении // Политика, политологии СЗАГС №3(34), 2004, стр.7.

¹⁶⁴ Стризое А.Л. Политика и общество. Социальнофилософские аспекты взаимодействия. – Волгоград: Изд – во ВолГУ. 1999. – С.302.

Oshkoralik deganda fuqarolar va davlat siyosati makonidagi boshqa subektlarning siyosiy va kommunikatsiya jarayonlarida ishtirok etish orqali davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga real ta'sir ko'rsatish imkoniyati tushunilishi kerak.

Klassik tushunchalar nuqtai nazaridan siyosiy kommunikatsiya siyosiy tizimning funksiyasi, ya'ni uning mulkidir. Global jarayonlar natijasida yuzaga kelgan siyosiy sohadagi o'zgarishlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishini hisobga olgan holda, siyosiy aloqa mustaqil hodisa sifatida tushunila boshlaydi: funktsiya sifatida emas, balki jarayon. Ikkinchisi doirasida siyosiy ma'lumotlar siyosiy tizim elementlari o'rtasida, shuningdek, siyosiy tizim va tashqi muhit o'rtasida uzatiladi siyosiy kommunikatsiya o'z vazifasini bajaradi.

Siyosiy nazariya doirasida siyosiy kommunikatsiya o'zining muhim, konseptual jihatlarida ko'rib chiqiladi, ular siyosat sohasidagi kommunikativ jarayonlarni tushuntiruvchi modellarni qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, hokimiyatdan foydalanish va taqsimlash, siyosiy qarorlar qabul qilish, siyosiy xatti-harakatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Biroq, siyosiy muloqot tadqiqotchilari yangi kommunikativ voqelik bilan bog'liq yangi muammolarga duch kelishadi. Siyosiy aloqa shakllarining o'zgarishi, yangi aloqa kanallarining paydo bo'lishi, tadqiqotchilarning an'anaviy ro'llarini yo'q qilish jarayonida, aloqa va ommaviy axborot vositalari siyosatini shakllantirish, siyosiy kommunikatsiyani o'rganish asosidagi an'anaviy yondashuvlar umumlashtirilishi va qayta ko'rib chiqilishi kerak. Shu munosabat bilan, ushbu yondashuvlarning rivojlanish imkoniyatlarini baholash, shuningdek, o'rganish ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi mavzularni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, siyosiy muloqotni tushunish har doim uning ijtimoiy ahamiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Inson muloqot jarayonlaridan, jumladan, siyosat sohasidan ham uzoq turolmaydi. Siyosiy kommunikatsiya an'anaviy ravishda manipulyatsiya vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan ommaviy kommunikatsiya shaklida amalga oshiriladi. Zamonaviy jamiyatdagi siyosiy kommunikatsiya jarayonlarini o'rganish fuqarolik ongini shakllantirish va siyosiy madaniyatni

rivojlantirishga yordam beradi, ishtirokchilarga siyosiy tizimdagi o'z ro'llari va pozitsiyalarini tushunishga, shuningdek, kommunikatorlarning manipulyativ ta'siriga qarshi turishga imkon beradi.

Siyosiy aloqaning tabiatini ilmiy o'rganish XX-asr boshlariga to'g'ri keladi va hozirgi kunda turli xil tadqiqotlar bilan ifodalanadi.

Zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan xalqlar taqdiri uchun muayyan rivojlanish bosqichiga xos ustuvor tamoyillar hayotiy ehtiyojga aylandi. Tajribadan ma'lumki, aynan shunday davrlarda dolzarb ehtiyojni zukkolik bilan anglaydigan, voqealar rivojini oldindan ko'rib, davr talablariga javob bera oladigan yo'l boshchilar Yetakchiligidagi xalqlargina ko'zlagan maqsadlariga erishishi muqarrar.

Bugungi davr milliy davlatchiligini tiklab, mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan O'zbekistonning taraqqiyot bosqichi uchun ustuvor yo'nalishlar va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mamlakatni eng ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqish uchun davlat siyosati barcha uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xalqning milliy salohiyatini yanada yuksak cho'qqilarga ko'tarish, jamiyatning barcha sohalarida tub islohotlar va ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish, mamlakatda demokratik qonun ustuvorligi va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish davlat siyosatining asosiy maqsadiga aylandi. Ayni paytda amalga oshirilayotgan natijalarda mustaqillikning ilk kunlaridanoq belgilab olingan va bugun butun dunyo e'tirof etayotgan taraqqiyot modeli va rivojlanish tamoyillarining samarasi davlat siyosatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jumladan, Konstitutsiyaviy normalarning to'g'ridan-to'g'ri harakati, xalqaro huquq normalari ustunligi, inson huquqlari ustuvorligi, qiyosiy huquqning intensivlashtirishuvi davlatlar, xalqlar o'rtasida huquqiy aloqalarning rivojlanishi, davlatlararo va davlatlardan ustun turuvchi xalqaro tashkilotlar huquqlarining rivojlanishi, dunyo davlatlari huquqining unifikatsiyalashuvi, huquqning globallashtirishuvi va standartlashuvi kabilar jahon siyosatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatni demokratlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan sa'y-harakatlar samaradorligi, konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqib,

Prezident Sh. Mirziyoyev o‘z ma‘ruzasida mamlakatning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar hayotiga oid eng muhim ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy taklif va g‘oyalarni ilgari surdi.

Birinchi ustuvor yo‘nalish – bu davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish. Unda hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy tamoyilini amaliyotga tatbiq etishni yanada takomillashtirish, hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini amalda ta‘minlash, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati organlari vakolatlari hamda nazorat vazifalari doirasini aniq belgilab berish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis (uning palatalari), Bosh vazir vakolatlari tizimiga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalariga zarur o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish borasida qator takliflar bildirildi.

Har qanday demokratik va insonparvarlik darajasi uning insonga bo‘lgan munosabati inson huquq va erkinliklarining to‘liq himoya qilinishi bilan baholanadi. Shu nuqtai nazardan milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarni implementatsiya qilish jarayoni qonun ijodkorligi sohasi vakillari oldiga mas‘ul vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur yo‘nalishda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakili (Ombudsman), Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi o‘rtasida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha memorandum va kelishuv bitimlari tuzilgan bo‘lib, ular bilan birgalikda qo‘shma tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Inson huquqlarining ustuvorligi demokratik davlatchilik tamoyili sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumi asoslariga kiritilgan va uning natijasida yuzaga keladigan boshqa tamoyillar, ya‘ni hokimiyatning bo‘linishi, g‘oyaviy va siyosiy hurfikrlilik, ko‘ppartiyaviylik, ijtimoiy adolat, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarishi kabilar bilan uzviydir.

Insoniyat jamiyati davlat va shaxs o‘rtasida o‘zaro hamkorlik bo‘lgandagina muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy tamoyilidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat‘iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xalos bo‘lishi mumkin emas.

“Demokratik jamiyat qurish jarayonida kuchli jamiyatni tashkil etish yuksak siyosiy madaniyatsiz, fuqarolarning siyosiy faolligisiz yuzaga kelmaydi. Shuning uchun ham jamiyat siyosiy madaniyati shaxs siyosiy madaniyati kabi bilish, baholash, xulq-atvor va siyosiy faoliyatda namoyon bo‘ladi”¹⁶⁵. Huquqiy kommunikatsiyaning asosiy maqsadi – bu davlatning, ijtimoiy guruhlarning, shaxslarning qonuniy manfaatlarini kelishilgan va to‘liq hamda doimiy ravishda qondiriladigan samarali o‘zaro ta‘sirni ta‘minlashdir. Demokratik tamoyillar asosida shakllanayotgan milliy taraqqiyotimiz qonuniyatlar va manfaatlar uyg‘unligiga mos kelib, mustaqillikni mustahkamlash va uni asrab-avaylash, himoya qilish omili sifatida bunyodkor g‘oyalar sari yo‘naltiriladigan oliy qadriyat deb tushunish lozim.

Konstitutsiyaning 3-bob 15-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar”¹⁶⁶, deya mustahkamlab qo‘yilgan. Qonun ustuvorligining mohiyati va ma‘nosi shundaki, konstitutsiya va qonun oldida barcha birday mas‘uldir. Mamlakat qonunlariga jamoa, fuqarolar yoshi, mansabi, millati, irqi va dinidan qat‘i nazar, birdek bo‘ysunmog‘i ham farz, ham qarz.

Demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi hamda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta‘minlashdir. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi shuni ifodalaydiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun yo‘li bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun huquqiy javobgarlikka tortiladilar.

Qonun fuqarolar huquqlarini himoya qiladi, ularning bir-birlariga adolatli tarzda bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuning evaziga jamiyat uchun kuchli qonunlar zarur.

Demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lini tanlagan O‘zbekiston uchun inson huquqlari va manfaatlarini, jamiyatni rivojlantirish

¹⁶⁵ To‘raev SH. O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma‘naviy omillar uyg‘unligi. – T.: O‘zbekiston. 2011. – B. 50.

¹⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2017. – B. 7.

hamda davlat qurilishining butun ichki va tashqi siyosatining eng ustuvor yoʻnalishi etib belgilandi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan keyin qoʻshilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat boʻldi. Mazkur deklaratsiya qoidalari Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarining ishonchli himoya qilinishini taʼminlaydigan milliy qonunchilik meʼyorlarida oʻz ifodasini topgan.

Sud-huquq tizimining izchil liberallashtirilgani inson huquqlariga rioya etilishining muhim kafolatiga aylandi. Oʻzbekistonda oʻlim jazosining bekor qilingani, qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga oʻtkazilgani bu boradagi muhim qadamlardan boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligida inson huquqlari himoyasi boʻyicha maxsus tuzilgan boʻlinmalar inson huquqlarini taʼminlash yuzasidan faol ish olib bormoqda. Bularning barchasi Konstitutsiyamizning 13-moddasida Oʻzbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga koʻra, inson, uning hayoti, erkinligi, shaʼni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi¹⁶⁷, deya qayd etilgan.

Mamlakatimiz demokratik taraqqiyotining asosi va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy tamoyillarini belgilab bergan Konstitutsiyamizning qoida va normalariga tayanish alohida ahamiyatga ega. Bu boradagi ishlar soʻnggi 10 yillikda yanada faollashtirildi, uning koʻlami va miqyosi tobora kengayib bormoqda.

Konstitutsiyaning 14-moddasida belgilab qoʻyilganidek, “Davlat oʻz faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlaniishini taʼminlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”¹⁶⁸.

¹⁶⁷ Ismoilov B. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi demokratik islohotlarning huquqiy kafili sifatida. – T.: Gʻafur Gʻulom. 2017. – B. 27.

¹⁶⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Oʻzbekiston. 2023. – B. 4.

Qonunlar mukammal ishlab chiqilgan bo'lsa, ular targ'ibot qilinsa, faqat o'shandagina davlat va jamiyat hayotini yaxshi tashkil etishning imkoni bo'ladi.

“O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylangan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin”¹⁶⁹(10-modda).

Fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishdagi ishtiroklari saylovlar davrida aniq va ravshan namoyon bo'ladi.

Qonunni keng jamoatchilik o'z ixtiyori bilan tan olib, bajarish zarur. Buning aksi bo'lsa, qonunga nisbatan hurmatsizlik hukm sursa, u huquqiy negilizmga aylanadi. Huquqiy negilizm – bu jamiyatdagi qonunlarning obro'sizligi, ularga fuqarolarning rioya qilmasligidir. Bunday paytda parokandalik paydo bo'lishi muqarrar. Demak, qonunni hurmat qilish va bajarish – huquqiy kommunikatsiyaning, ommaviy targ'ibotning asosiy maqsadidir.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda.

O‘zbekistonda huquqiy siyosatning yo‘nalishlaridan biri bu inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklaridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, burchlari mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari, aynan u yoki bu huquq yoki burch qonun bilan rivojlantirilgan. Jumladan, bu siyosiy kommunikatsiya elementlarining to‘liq va izchil amalga oshirilishini ta‘minlaydigan mexanizmlarni optimallashtirishdir. “Davlat boshqaruvi idoralarining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini ko‘rib chiqar ekanmiz, ular biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarimiz yo‘lida xizmat qilayaptimi, jamiyatimizni yanada demokratlashtirishda, yanada rivojlantirishda o‘z vakolatlarini amalda bajara olyaptimi? – degan savolga javob topish muhim. Vaholanki, samarasiz boshqaruv bo‘g‘inlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lida qiyinchiliklar va to‘siqlar shunchalik ko‘p bo‘lishi hech kimga sir emas”¹⁷⁰.

¹⁶⁹ O‘sha joyda. – B. 6.

¹⁷⁰ Shodmonov A. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston. 2011. – B. 9.

Qonunda O‘zbekiston Konstitutsiyasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi hokimiyatining yuqori organi sifatidagi huquqiy holatini belgilab beruvchi 98-modda yangi tahrirda bayon qilindi va u ilgari tahrirdan quyidagi holatlar bilan farq qiladi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga parlament tomonidan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish instituti joriy etilmoqda. Endilikda Bosh vazir va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisi muhokamasida Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqida masala kiritiladi. Bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Bunda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste‘foga chiqadi.

2023 yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 38-moddasiga ko‘ra, fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega¹⁷¹. “Konstitutsiyaviy davlat – bu Konstitutsiya normalari asosida shakllantirilgan davlat organlari tizimidir”¹⁷².

Insonlarda qonunga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Huquqiy kommunikatsiyaning ushbu jarayonni tashkil etishda maqsadga erishish uchun huquqiy aloqa, qonuniylik, adolatlilik, inson va fuqaroning huquq va erkinliklari, insonparvarlik, oshkoralikning eng to‘liq va izchil kafolatlariga asoslanishi kerak. Kommunikatsiyaning maqsadlari,

¹⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat. 2023. – B.24.

¹⁷² Ismoilov B. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi demokratik islohotlarning huquqiy kafili sifatida. – T.: G‘afur G‘ulom. 2017. – B. 24.

natija, sub'yektlar, o'zaro ta'sirga kirishish, aniqlik, erishish mumkinligi, huquqiy va izchil bo'lishi kerakligini anglatishi bilan e'tiborga molikdir.

Mamlakatda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma'naviy o'zgartirish sohasida keng ko'lamlı islohotlar o'tkazilmoqda. Bugungi islohotlarning qonuniy zamini yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanmoqda va takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy voqealar, jamiyatning rivojlanishi va davlat qurilishida yangi bosqichga o'tganimizdan dalolat beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Jamiyat va davlat qurilishi tizimida tub o'zgarishlarning ro'y berishi qonunchilikning rivojlanishiga va uning vazifalarini yangi sharoit talablariga moslashtirishga olib keldi. Bu borada fuqarolik huquqi zimmasiga katta vazifa yuklatildi. Davlat mulkining hukmronlik holatidan voz kechilishi, jamiyatda mulkning barcha shakllari, jumladan, xususiy mulk huquqining joriy qilinishi va ular asosida bozor munosabatlarining tarkib topishi hamda rivojlanishi, iqtisodiyotning boshqarish tizimida ma'muriy-buyruqbozlik uslubidan voz kechish va demokratik uslub va shakllarni qo'llashga o'tish – bular yangi jamiyatning tabiatiga monand bo'lgan, uning xususiyatlarini o'zida mukammal ifodalaydigan va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatadigan qoidalardan tashkil topgan yangi fuqarolik huquqini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz hayotida yuz bergan tarixiy voqealar, uning ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi tub o'zgarishlar va shu tufayli huquqiy islohotlarning amalga oshirilishi yuridik fanlar hamda ta'limning hozirgi zamon talabi nuqtai nazaridan anglashni, o'zlashtirish va o'rganishni talab qiladi. Shunday ekan, inson huquqlarining muayyan institutlari, ularning jamiyat rivojlanishida tutgan o'rni, ahamiyati va istiqboli borasida muntazam ravishda chuqur asoslangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlarining asosiy institutlari qatorida uning sub'yektlari alohida institut sifatida markaziy o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy va huquqiy islohotlar natijasida ushbu institutning mavqei yanada oshdi. Avvalgi fuqarolik

qonun hujjatlariga muvofiq fuqaro (jismoniy shaxs) huquq sub'yekti sifatida faqat shaxsiy mulk huquqiga ega bo'lishi, yuridik shaxs esa, asosan, davlat mol-mulki asosida faoliyat yuritishi mumkin edi. "Davlatning o'zi esa fuqarolik huquqining sub'yekti sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda faqat davlat miqyosida, ya'ni o'z hududi doirasida ishtirok etish huquqiga ega edi, tashqi, ya'ni boshqa davlatlar bilan o'rnatilgan bunday munosabatlarda sobiq SSSRning nomidan uning tegishli organlari ishtirok etardi. Mustaqil O'zbekistonning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar xususiy mulk huquqiga ega bo'ldilar va bunday mol-mulk asosida ularga tadbirkorlik faoliyatining turli sohalarida "qonunga zid bo'lmagan har qanday" shartnomani tuzish uchun yo'l ochildi"¹⁷³ shartnoma insonlar va davlatlar o'rtasidagi bitim bo'lib huquqiy kommunikatsiyaning yozma va og'zaki shakllarida ifodalanadi. Bunday huquqiy maslahatlar – bevosita ommaviy tarzda o'tkazilayotgan kommunikatsiyadir.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari borasida ta'kidlash joizki, eski, sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyot yangi jamiyatni shakllantirish uchun asos bo'la olmas edi.

Istiqlol yillarida bu sohada nihoyatda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi iqtisodiy tizim va mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Bozor munosabatlari va iqtisodiy plyuralizm bunda bosh yo'nalish qilib olingan bo'lsa-da, aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor jihati sifatida belgilandi. Ana shularning barchasi mamlakatimizda bu sohadagi yangilanish va zamonaviy tamoyillarni shakllantirish borasidagi tub o'zgarishlarning iqtisod bilan bog'liq asoslarini yaratish imkonini berdi.

Yangi jamiyatni barpo etishning siyosiy asoslari mustahkam bo'lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'p bor isbotlangan haqiqatdir. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylangan O'zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi.

Xalqaro andozalarga to'la mos keladigan saylov tizimi shakllandi. Qonun ustuvor bo'lgan demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatining asoslari

¹⁷³ Raxmonqulov H. Fuqarolik huquqining sub'ektlari. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston, 2008. – B. 4.
86

mustahkamlandi. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tizimi yanada takomillashdi. Ana shularning barchasi yurtimizda islohotlarning ijobiy natijalarini ta'minlaydigan ijtimoiy-siyosiy asoslarni yaratish imkonini berdi. Har qanday jamiyat va mamlakatda xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongi o'zgarmasa, shu joyda yashaydigan xalq va millat o'zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishi qiyin.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab yuqorida keltirilgan muammolar bilan uyg'un holda hal qilish bu boradagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan ijtimoiy-siyosiy asoslarni shakllantirishga yordam berdi.

Ma'naviy asoslar qonun ustuvorligini ta'minlagan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan ma'naviy sohadagi o'zgarishlar bu yo'nalishdagi islohotlarning tarkibiy qismidir. Xalq ma'naviyatining yuksalishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog'liq sa'y-harakatlar bu borada katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, xalqimizning tarixiy xotirasi, o'tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to'la-to'kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs, turli qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Bu esa davlatimiz siyosatining jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashariy qadriyatlar mazmuniga mosligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Prezidentining tarixiy dalil va raqamlarga, teran ilmiy fikr va xulosalarga asoslangan ma'ruzasi Vatanimizning istiqlol tarixini, jamiyatimizning taraqqiyot bosqichlarini, bugungi kundagi ustuvor yo'nalishlar va vazifalarning mohiyati va mazmunini chuqur o'rganish, ushbu milliy tajribani o'zga mamlakatlarda qo'llash jarayoni boshlangan hozirgi kunlardagi o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy imkoniyatlarini yanada yaqqolroq anglashda, hech shubhasiz, mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu ma'noda, xalqimiz tomonidan istiqlol yillarida bosib o'tilgan tarixiy yo'l, barcha sohalarda qo'lga kiritilgan ulkan yutuq va marralar, mamlakatimizning barqaror

taraqqiyot strategiyasini yaqqol aks ettirgan ushbu ma'ruzaning ahamiyatini har bir zamondoshimiz qalbi va ongiga singdirish bugungi ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy yo'nalishiga aylandi. Bu esa, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, yosh avlod tafakkurida mustaqil taraqqiyot davomida erishilgan natijalarni his qilib yashash, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish borasida barchamizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari belgilandi. Davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratlashtirish sohasidagi islohotlar asosan hokimiyatlar bo'linishida konstitutsiyaviy tamoyillarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan bo'lib, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va muvozanatni ta'minlashning samarali tizimini shakllantirishga, parlamentning ro'lini oshirishga, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirildi.

Konsepsiyada ilgari surilgan Prezident taklifiga binoan 2011 yil 18 aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-285-sonli Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 16 martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2011 yil 25 martda ma'qullangan) va 2017 yil 6 aprelda qabul qilingan qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 4-bandi, 81-moddasining yettinchi qismi, 83-moddasi, 93-moddasi birinchi qismining 13 va 14-bandlari, 107-moddasining birinchi qismi, 110-moddasining birinchi va uchinchi qismlari, 111-moddasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 31 martda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasi 5 va 12-bandlari, 93-moddasining birinchi qismi 13-bandi va 108, 109-moddalariga o'zgartirish kiritilgan. Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99 va 102-moddalariga o'zgartirishlar kiritilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur o'zgarishlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 18 aprelda qabul qilingan Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida", "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning ro'lini kuchaytirish to'g'risida"gi Qonunlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Ma'lumki, jamiyat hayotini demokratlashtirish, inson huquq va erkinliklarini amalda ta'minlash masalasi mamlakat aholisini axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish erkinligi, ommaviy axborot vositalari mustaqilligining ta'minlanishiga bevosita bog'liq.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasining "Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash" deb nomlangan uchinchi ustuvor yo'nalishida bu borada mamlakatimizda hozirga qadar olib borilgan muhim tadbirlarni e'tirof etgan holda, sohani rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining huquq va erkinliklarini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bunda davlat tomonidan ularni qo'llab-quvvatlashni qonuniy asosga qo'yish singari muhim yo'nalishlarda qator yangi qonunlarni qabul qilish, mavjud qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni hayotning o'zi talab qilayotganini ta'kidladi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatda besh mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbek jamiyatiga xos bo'lgan mahalla instituti o'zining huquqiy maqomini topdi. To'rtinchi hokimiyat hisoblangan ommaviy axborot vositalari ham inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish sohasida o'zining mustaqil o'rnini topa boshladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasida davlat siyosati ba'zi tamoyillar negizida rivojlanib bordi. Masalan,

- inson huquqlari sohasida umume'tirof etilgan g'oyalar va qadriyatlarga, inson huquqlari yo'nalishida o'zining majburiyatlariga sodiqlik;

- inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga asoslangan asosiy manfaatlardan kelib chiqqan holda inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlashda O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining muvozanati tamoyili;

- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va sud-huquq sohalaridagi barcha islohotlarning tadrijiy amalga oshirilishida tizimlilik, zaif qatlamdagi shaxslar, bolalar, yoshlar, ayollar, nogironlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish zarur. Unda inson manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik, oshkoralik tamoyillari va davlatning fuqarolik jamiyati institutlari hamda OAV bilan ijtimoiy hamkorlik.

Inson huquqlari bo'yicha ta'lim tizimini shakllantirish va uni takomillashtirib borishda:

demokratiya va inson huquqlarining konstitutsiyaviy asosi bo'lgan umuminsoniy va milliy davlatning ajralmas birligini ta'minlash;

O'zbekiston kamida 2,5 ming yillik tarixiy *цивилизация*ning ma'naviy salohiyatiga mos ravishda inson huquqlarining umume'tirof etilgan xalqaro standartlarini maqsadli ravishda ilgari surishga intilishi;

O'zbekiston Yevropa va Osiyo *цивилизация*sini bog'laydigan ulkan xalqaro yo'llarning chorrohasida bo'lgan va hozir ham shunday bo'lib turibdi. O'zbekiston juda qadimiy va o'zining ajdodlariga ega bo'lgan xalqdir.

O'zbek etnosida 14 asrgacha mo'g'ullar, arablar va fors-tojik madaniyati vakillari genetik ta'sirlarni o'tkazganlar. Agar tarixning tub negiziga nazar tashlaydigan bo'lsak, nafaqat genetik, balki hindu, xitoy ellaridan kelgan o'zbek ajdodlarining madaniy ta'sirini ham ko'rishimiz mumkin.

XIX asrning oxiridan boshlab slavyan va boshqa elat vakillari O'zbekiston xalqlari oilasiga qo'shilishgan. Bularning barchasi ma'lum bir tarixiy va etnik o'ziga xoslikdagi inson huquqlarining tabiiy kelib chiqishi hamda konstitutsiyaviy rivojlanishning dalilidir.

Beruniy va al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ulug‘bek singari namoyondalarning xalqaro birlashmalari tuzilgan bo‘lib, ushbu mutafakkirlarning ijodiy dahosi butun insoniyatga tegishlidir. Islom цивилизацияsining Imom Muhammad al-Buxoriy, Imom Termiziy kabi musulmonlar olamining taniqli mutafakkir va huquqshunoslarining madaniy boy merosi dunyoqarashimizni to‘ldirdi va boyitdi.

So‘nggi yillarda zamonaviy dunyo tubdan o‘zgarmoqda, mamlakatimizdagi o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi odamlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, erkinlik va baxtga bo‘lgan intilishlari ularning qalbida ishonch paydo bo‘lganidan darak beradi. O‘zbekiston xalqi demokratik adolatli jamiyat, odil sudlov yo‘lidan bordi. XXI asrda barqaror, gullab-yashnayotgan va demokratik mamlakat sifatida цивилизацияlashgan insoniyat oilasiga kirdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, demokratlashtirish va inson huquqlari tushunchasi fuqarolarning davlat va jamiyatdagi ishtirokini nazarda tutadi. Bu jarayonlar siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlarining faoliyatida, hayotning barcha jabhalari, jumladan, inson huquqlari sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda o‘z aksini topadi.

Xalqning xohish-irodasi, orzu-umidlari, shuningdek, davlat hokimiyati o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni o‘rnatish siyosiy kommunikatsiyaning demokratik tamoyillaridan biri hisoblanadi;

siyosiy huquq va erkinliklar shaxsga siyosiy jarayonning mustaqil va erkin ishtirokchisi sifatida o‘zini namoyon qilish, shuningdek, alohida guruhlar, birlashmalar, harakatlar va boshqalar tarkibida ishtirok etish imkoniyatini beradi;

siyosiy huquq va erkinliklarning boshqa konstitutsiyaviy huquqlardan farqi shundaki, siyosiy huquqlar – saylash va saylanish, referendumda ishtirok etish huquqi, boshqaruv huquqi bilan bog‘liq. Fuqarolar siyosiy huquqlarining kafolati bevosita davlatning demokratiya darajasiga, mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylik rejimiga, siyosiy an‘analarga bog‘liqligi bilan belgilanadi;

demokratlashtirish va inson huquqlari tushunchasi fuqarolarning davlat va jamiyatdagi ishtirokini nazarda tutadi. Bu jarayonlar siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlarining faoliyatida, hayotning barcha jabhalari, jumladan, inson huquqlari

sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda o'z aksini topadi;

“Fuqarolarning psixologik xavfsizligi asoslari to'g'risida”gi qonun ishlab chiqish, bu inson hayotining ayrim sohalarda (ta'lim muassasalarida, qamoqxonalarda, armiyada va boshqalarda) va ekstremal vaziyatlarda (halokatlar, harbiy harakatlar va boshqalar) psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu omil siyosiy jarayonlarda davlat fuqarolarining huquqiy muhofazasiga asos bo'ladi;

“Inson huquqlarini himoya qilish va turli xavflardan asrash” bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun o'qitishning davlat tizimini yaratish. Davlat organlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha nodavlat tizimini yaratishga faol yordam berishi zarur. Bunday tizim ijro etuvchi hokimiyatdan mustaqil bo'lgan nazorat, murojaat va tadqiqot tuzilmalarini o'z ichiga olib, fuqarolar undan o'zi qonuniy ehtiyojlariga muvofiq foydalanadi.

Siyosiy kommunikatsiya bir tomondan, kommunikatorlarning yashirin niyatlarini aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, o siyosiy ong va xulq-atvorni shakllantirishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydigan pozitsiyasini qabul qilishga yordam beradi. Siyosiy kommunikatsiya demokratiya samaradorligiga ta'sir etuvchi jarayon sifatida qaraladi.

III BOB. DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA SHAKLLARI VA TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH

3.1. Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tizimida siyosiy kommunikatsiyaning o'рни

Adolatli davlat boshqaruvini joriy qilish va tushuntirish, huquqiy targ'ibot tartibi bilan shug'ullanuvchi shaxslarga baho berish hamda qonunlarning mazmuni va ahamiyati to'g'risida ommaga yetkazish muhim masala hisoblanadi. Qonun, eng avvalo, ma'naviy, tarbiyaviy, axloqiy kuchga ega bo'lgandagina xalq uni qabul qiladi.

Huquqiy davlatda fuqarolik jamiyatini qurishning zaruriy sharti – bu qonunlarning adolatli tarzda bajarilishidir. Qonunga rioya qilish uning borligi va undan ko'pchilik xabardor bo'lishiga bog'liq, bu esa targ'ibot-tashviqotga, ya'ni siyosiy kommunikatsiyaga asoslanadi.

Albatta, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishning o'zi yetarli emas. Shu bilan bir qatorda ularni keng ommaga yetkazish zarur bo'ladi, bu esa ko'proq huquqiy yo'nalishdagi ommaviy aloqalar yordamida amalga oshiriladi. Bugungi zamonaviy yashash tarzining dolzarbligi shundaki, hayotga oqilona yondashuvni davrning o'zi taqozo etmoqda, bunday keskin talablardan aslo voz kechish mumkin emas. Shunday ekan, insonlarning ongida mustaqil fikr uyg'otish zaruriyati tug'iladi. Inson qadriyati ulug'lanayotgan zaminda inson taqdiri, uning jamiyatdagi o'рни, qolaversa, huquq va erkinliklari, osoyishta turmush tarzi davlat tomonidan kafolatlanishi oliy qadriyat sanaladi.

Davlat va jamiyat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini yaratish masalalari bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo'lgan jiddiy masala hisoblanadi. Mamlakatda olib borilayotgan davlat siyosati, uning strategik maqsadlarini to'g'ri va to'liq tushunish hamda xalqning ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun munosib sharoit yaratish imkoniyatlari tug'ilmoqda.

Davlatimiz rahbari o'zining birinchi ish kunidan yangi qonunlar, farmonlar ijrosini juda boshlab yuborganligi, davlat boshqaruvining barcha jabhalarida uzluksiz

muloqotlar, aholi bilan uchrashuvlar, yozma va ogʻzaki muloqot turlari, vizual shakllardagi aniq va ravshan koʻrsatmalari asosida ish olib borilayotganligi va bajarilayotgan vazifalar toʻgʻrisida xalq oldida hisobot berib borilayotganligi buning isbotidir.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ijtimoiy hayot va komil inson masalasi, inson shaxsining qadrlanishi, uning jamiyatdagi oʻrni, madaniy va maʼnaviy dunyoqarashining shakllanishida, zamonaviy va texnikaviy ilmlarni qunt bilan oʻrganishi, oʻz fikrlarini, oʻz qarashlarini erkin ifodalashi, saylov huquqiga egaligi, qadriyatlarining qadrlanishi, zamonaviy jamiyatda inson huquqlari kafolatlari konstitutsiyaviy qonunlar bilan belgilangani eʼtiborlidir.

Davlat taraqqiyotining yangi davri va bosqichi, eng avvalo, davlat boshqaruvi tizimini bugungi va ertangi kun talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirishni, davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Shuning uchun ham ushbu vazifa birinchi ustuvor yoʻnalish sifatida belgilab olindi va “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasi qoidalarini toʻliq oʻzida aks ettiradi. Inson huquqlari jahonda yetakchi maqomga ega. Har qanday rivojlangan demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda inson huquqlari roʻliga yetarli baho bermaslik mumkin emas.

XX-XXI asrlar boʻyicha kuzatilgan aloqa texnologiyalarining jadal rivojlanishi ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan axborotni ishlab chiqarish va tarqatishni sezilarli darajada osonlashtirdi va global axborot makonining shakllanishiga olib keldi. Unga butun jamoalar: siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy muassasalar jalb qilingan. Millionlab odamlarga katta hajmdagi maʼlumotlarni uzatuvchi zamonaviy texnik aloqa vositalari ularning ish, kundalik hayoti, dam olish, siyosiy hayot sohalariga sezilarli taʼsir koʻrsatadi, ularning xatti-harakatlarini belgilaydi, jamoatchilik fikrini aks ettiradi va shakllantiradi¹⁷⁴.

Bugungi kunda jamiyat zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalari qudratli va ahamiyatli kuch ekanligini aniq anglaydi. Fantastik yozuvchilarning asarlaridan yaxshi maʼlum boʻlgan “ijodkor” va uning yaratuvchisini nazoratdan chiqarishga qodir

¹⁷⁴ Гемеват П. Почему мир “не плоский”? //Pro et contra.2007. №3. – С. 104.

bo‘lgan “yaratuvchi” muammosi biroz boshqacha, ammo juda o‘ziga xos konturlarni olishni boshlaydi. Turli xil bilim sohalari mutaxassisleri - siyosatshunoslar, faylasuflar, sotsiologlar, huquqshunoslar, psixologlar, texnika fanlari vakillari - ommaviy axborot ta’sirida ushbu vositalarning haqiqiy imkoniyatlarini muhokama qiladilar. So‘nggi adabiyotlarda insoniyat “virtual haqiqat” atrofida dunyoning ko‘p jihatdan haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan qiyofasi bo‘lgan davrga kirayotgani haqidagi fikr tobora ko‘proq eshitilmoqda. U ommaviy axborot vositalari va eng avvalo televideniye orqali shakllantiriladi va so‘nggi yillarda Internet inson uchun keng imkoniyatlar yaratdi. “Eng so‘nggi kommunikatsiya texnologiyalari, ma’lum bir vaqt juda nisbiy bo‘lganda, tubdan farq qiladigan global makonni yaratadi, chunki u yoki bu voqea qachon va qanday sodir bo‘lganligi muhim emas, balki qachon va qanday taqdim etilganligi va idrok etilganligi muhimdir”¹⁷⁵. Shunday qilib, bugungi kunda siyosiy kommunikatsiya hokimiyatni qonuniylashtirishning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, tegishli o‘rganishni talab qiladi. Shu bilan birga, texnologik determinizmning haddan tashqari holatlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki oxir oqibat, texnik va texnologik innovatsiyalarning taqdirini oldindan belgilab beradigan va ko‘pincha ijtimoiy ehtiyojlar paydo bo‘lish ehtimolini nazarda tutgan holda ish olib borish.

Zamonaviy siyosatshunoslik uchun yana bir muammo - bu “global shaxs”ni shakllantirishga intilish, sayyora miqyosida odamlarning didi va xatti-harakatlari me‘yorlarini birlashtirish kabi axborot makonining globallashuvi oqibatidir. Ijtimoiy ahamiyatga ega axborot, jumladan, siyosiy xarakterdagi axborot milliy agentliklar va kanallar tomonidan emas, balki global miqyosda tobora ko‘proq tarqalmoqda. Natijada, dunyoga G‘arb va ko‘pincha Amerika o‘ziga xosligi, madaniyati, belgilari, ramzlari va voqealarga “Amerika uslubidagi” qarashlari yuklanadi. Axborotning bunday kengayishi, ba‘zi tadqiqotchilarning fikricha, xalqlar uchun ijtimoiy-madaniy suverenitetning yo‘qolishiga va ularning turmush tarzining o‘ziga xos milliy xususiyatlarini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin¹⁷⁶. Siyosatning o‘zi, inson faoliyatining har qanday sohasi kabi, aloqa tamoyilini ham o‘z ichiga oladi, bu o‘zaro

¹⁷⁵ O‘sha manba.

¹⁷⁶ Оболонский А.Б. Мораль и право в политике и управлении //Общественные науки и современность. – М.: 2007. №1. – С. 68.

munosabatlarning o'ziga xos tarixiy shakllarida, turli siyosiy sub'yektlar - shaxslar, ijtimoiy hamjamiyat va institutlarning vujudga kelishi, jamiyatdagi va hokimiyatdagi o'zgarishlar faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq manfaatlarini ifodalovchi kommunikatsiya namoyon bo'ladi.

Siyosiy aloqa haqidagi zamonaviy nazariy g'oyalarning kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Aloqa siyosiy ta'sir vositasi sifatida qadim zamonlardayoq konsepsiyalanganligini bizgacha yetib kelgan qadimgi yunon va rim manbalari ishonchli tasdiqlaydi. Masalan, Aflotun umumiy farovonlikka erishish yo'lida fuqarolarning siyosiy ongi va xulq-atvoriga maqsadli ma'lumot ta'sirining o'ziga xos shakllari haqida gapirdi, u o'z fikrlarida ideal davlat haqidagi fikrlarida tarbiyaviy maqsadlarda afsonalarni qayta yozish orqali yetkazdi. Aristotel, aslida, birinchi bo'lib siyosiy faoliyatning kommunikativ jihatiga e'tibor qaratdi va uni eng yuqori umumiy manfaatga erishishga qaratilgan (bugun biz nazarda tutayotgan kommunikatsiyani) "muloqot" deb talqin qildi. Keyinchalik, siyosatning kommunikativ mohiyati haqidagi ba'zi g'oyalar "umumiy huquqiy tartib" o'rnatish maqsadi bilan siyosiy aloqa haqida gapirgan Sitseron asarlarida huquqiy ma'noga ega bo'ldi¹⁷⁷. G'arbiy Yevropa o'rta asrlarining atoqli mutafakkirlari Avgustin Blajenni va Foma Akvinskiy o'zlarining diniy-falsafiy asarlarida ilohiy belgilab qo'yilgan tabiatiga ko'ra insoniy muloqot Kommunikatsiyaning turli ko'rinishlariga e'tibor qaratganlar. Uyg'onish davrida odamlarning kayfiyati va xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan siyosiy ongga ta'sir qilish muammosi N.Makiavelli ishida ishlab chiqilgan¹⁷⁸.

Zamonaviy davrda, matbaa tarqalishi va rivojlanishi, erkin matbuot g'oyasi atrofidagi fikrlarning davom etayotgan kurashi davomida, kommunikatsiyaning siyosiy ro'lini tushunish uchun turli xil konseptual yondashuvlar shakllandi, ular bugungi kunda ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday qilib, T.Gobbs davlatni zaiflashtiradigan yoki uni tanazzulga olib keladigan "isyonkor ta'limotlar zahari"ga qarshi kurashish zarurligi haqidagi tezisni asoslab berdi¹⁷⁹, shu bilan birga mutafakkir

¹⁷⁷ Цицерон . О государстве. // Цицерон. Диалоги. – М.: 1994. – С. 20.

¹⁷⁸ Антропология мировой политической мысли в 5 – ти томах. Т 2. – М.: 1999. – С. 581.

¹⁷⁹ Гоббс Г. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского//ГоббсТ\ Сочинения в 2гг. 1.2. – М. 1991. – С. 250.

qonun kuchidan adashganlarga qarshi emas, balki xatolarning o'ziga qarshi foydalanishga chaqirgan. XVIII-XIX-asrlarda liberal-demokratik fikr vakillari boshqa pozitsiyani himoya qildilar. J. Milton, J. Lokk, S.L. Monteske, J. St. Mill va boshqalar¹⁸⁰, ular asosan mamlakatlarda siyosiy kommunikatsiyalar faoliyati va rivojlanishining me'yoriy-qiymatli asosining mohiyatini oldindan belgilab berganlar. XIX-asrning o'rtalaridan boshlab, siyosiy aloqaning individual muammolari mafkuraning marksistik konsepsiyasi doirasida ko'rib chiqiladi, bu hali ham o'zining muhim ta'sirini saqlab qoladi. Ushbu konsepsiyaning asosiy jihati shundaki, matbuot materiallari va zamonaviy sharoitlarga nisbatan – butun OAV tizimi tomonidan uzatiladigan xabarlar ma'lum qadriyatlar, e'tiqodlar, g'oyalarni ifodalash va targ'ib qilish shaklini ifodalaydi shunga ko'ra, "har qanday davrning hukmron g'oyalari har doim faqat hukmron sinf g'oyalari bo'lgan"¹⁸¹. O'tmish mutafakkirlarining siyosiy nazariyaning umumiy muammolariga bag'ishlangan asarlari orasida siyosiy aloqaning turli jihatlari davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning mohiyati va mexanizmlarini bilish kontekstida o'rganilganligi alohida o'rin tutadi. M. Veber, K. Mangeym, T. Parsons, P. Sorokin asarlari bilan band. Ushbu taniqli olimlar tomonidan bildirilgan g'oyalar siyosiy aloqani bir yo'nalishli axborot ta'siri yoki bunday harakatlar ketma-ketligi sifatida ko'rsatadigan soddalashtirilgan talqinni yengib o'tishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va ko'p jihatdan u haqidagi zamonaviy g'oyalarning shakllanishini oldindan belgilab berdi.

Siyosiy aloqa jarayonlari va hodisalarini tizimli o'rganish G.Lassvell asarlarida boshlangan. Ular Birinchi jahon urushi davridagi targ'ibot hodisasini tahlil qilishga bag'ishlangan¹⁸². Siyosiy aloqa sohasidagi fundamental tadqiqotlar "jamoat hayotining

¹⁸⁰ Милтон Д. Ареопагетика: Речь о свободе печати, обращение к парламенту // О свободе: Антропология западноевропейской классической либеральной мысли. – М.: 1993. – С. 19. Локк Дж. Два трактата о правлении/ Локк Дж.сочинения в 3-х томах. Т.3. – М.: 1988. – С. 135., Монтеске Ш. О духе законов. – М.: 1999. МИЛЛ Дж. О свободе. //Наука и жизнь. 1993. №11. – С. 20.

¹⁸¹ Избранные произведения. – М.: 1990 / Манхеум К. Диагноз нашего времени. – М.: 1994; Парсонс Т. О структуре социального действия. – М.: 2002.; Сорокин П. Социальная и культурная динамика Исследования изменений в больших системах искусства, истины этики, права и общественных отношений. Спб. 2000.

¹⁸² Lasswell H. Propaganda, Communication, and Public Opinionra comprehensive reterence guide. London. 1946.

axborot-siyosiy sohasining tabiati va tuzilishini, uning xarakterli mexanizmlari va ijtimoiy munosabatlarini o'rganuvchi fan sifatida, jamoatchilik va nodavlat aloqalarni rivojlantirish tendensiyalari, hukmron doiralar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi aloqa evolyutsiyasi shakllari"¹⁸³ deb ajratdi. Ko'pgina fanlararo tadqiqot yo'nalishlarida bo'lgani kabi, bilimning barcha tegishli sohalarida siyosiy aloqa masalalari bilan bog'liq bo'lgan nazariy ishlanmalarni u yoki bu tarzda to'liq ko'rib chiqish juda ko'p. Shu munosabat bilan, siyosiy kommunikatsiyaga bilvosita aloqador bo'lgan ayrim masalalar bizning ko'rib chiqish doiramizdan tashqarida qolmoqda. Shu bilan birga, agar biz faqat siyosatshunoslarning nazariy ishlanmalariga e'tibor qaratsak va boshqa fanlar vakillarining ishlarini hisobga olmasak, unda sohaga tegishli bo'lgan turli xil muammolarni ko'rsata olishimiz dargumon. Shuning uchun, oqilona murosa kelsak, aloqa nazariyasi, sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya sohasidagi individual ishlarga murojaat qilish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda siyosiy kommunikatsiyani o'rganishning umumiy nazariy va uslubiy jihatlarini tushunishda axborotlashtirish va axborot jamiyatini shakllantirishning ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish muhim ro'l o'ynaydi. Taniqli xorijiy tadqiqotchilar – P. Burde¹⁸⁴, D. Bell¹⁸⁵, N. Viner¹⁸⁶, M. Kastels¹⁸⁷, Maklyuan M¹⁸⁸, E. Toffler¹⁸⁹, Olimlar: R.F. Abdeyev¹⁹⁰, A.B. Baxmetev¹⁹¹, V.JI. Inozemsev¹⁹², K.K.

¹⁸³ Политическая коммуникация/ Под ред. А.И.Соловьева. – М.: 2004. – С. 5.

¹⁸⁴ Бурде П. Социология политики. – М.: 1993.

¹⁸⁵ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. – М.: 1999.

¹⁸⁶ Винер Н. Человеческое использование существ: кибернетика и общество // Винер Н. Человек управляющий. СПб. 2001.

¹⁸⁷ Кастелс М. Информационная эпоха: экономика, общество, культура. – М.: 2000. Он же галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнес и общество. Екатеринбург. 2004.

¹⁸⁸ Маклюэн М. понимание медиа: внешние расширения человека. – М.: 2003.

¹⁸⁹ Тоффлер Э. Метаморфозы власти: знание, богатство и сила на пороге ХХИ века. – М.: 2003. ученые: Р.Ф. Абдеев., А.Б. Бакметев., В. ЖИ. Иноземцев., К. К. Колин., Н. Н. Моисеев., А. Н. Панарин., Г. Н. Попов. Va boshqalar.

¹⁹⁰ Авдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации. – М.: 1994.

Бакметев А. В. Социальные факторы формирования информационного общества. – М.: 200.

Иноземцев В. Л. Современное постиндустриальное общество: природа, противоречия, перспективы. – М.: 2000.

Колин К. К. Информационная цивилизация. – М.: 2002.

Моисеев Н. Н. Универсум. Информация. Общество. – М.: 2001.

Панарин А.Н. Информационная война, ПР и мировая политика. – М.: 2006 Avdeev R.F. Filofofiya informatsionnoy tsivilizatsii. – М.: 1994.

¹⁹¹ Бакметев А. В. Социальные факторы формирования информационного общества. – М.: 200.

Kolin¹⁹³, N.N. Moiseyev¹⁹⁴, A.N. Panarin¹⁹⁵, G.N. Popov¹⁹⁶ va boshqalar bilan bir qatorda mamlakatimiz olimlari ham ushbu muammoni ishlab chiqishda katta hissa qo'shdilar. Ko'rib chiqilayotgan masalalar kontekstida ijtimoiy kommunikatsiyalar, ommaviy kommunikatsiya jarayonlari, ularning odamlar ongiga ta'sir qilish mexanizmlari va natijalarini tahlil qilish sohasidagi nazariy ishlar alohida ahamiyatga ega. Sovet davrida ommaviy axborot vositalari nazariyasi va amaliyoti va sotsialistik jamiyatni ommaviy kommunikatsiyaning burjua tushunchalari bilan targ'ib qilish o'rtasida ma'lum bir mafkuraviy qarama-qarshilikka qaramay, G.K. Ashin, E.G. Bagirov, V.Yu. Borev, Yu.P. Budansev, B.A. Grushin va boshqa olimlar¹⁹⁷ ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbekistondagi eng muhim insonparvarlik qadriyatlaridan biri Sharq *цивилизация* sig a xos bo'lgan oilani to'liq qo'llab-quvvatlash tamoyilidir. Qonun ustuvorligi deganda, Kant "huquqiy qonunlarga bo'ysunadigan ko'p odamlarning birlashishi"ni tushunadi. Kantning fikricha, "huquqiy davlatning muhim jihati davlat va shaxsning o'zaro javobgarligi g'oyasidir. Jismoniy shaxs va boshqaruvchi shaxs hamkorlik va javobgarlik to'g'risida shartnoma tuzgan teng huquqli sheriklar shaklida vakil bo'lishi kerak"¹⁹⁸.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishga yo'naltirilgan qonun va qonunosti hujjatlarida "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun" degan eng muhim tamoyilni amalga oshirish asosiy maqsad qilib olinganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Davlatni samarali boshqarish uchun to'g'ri va aniq axborotdan foydalanish talab qilinadi. Ayni bugungi demokratik davlat qurish rivojlanayotgan bir davrda, qonunchilik tizimining yetakchi vazifasi – huquqiy me'yorlarni xalqqa tushuntirishdan

¹⁹² Иноземцев В. Л. Современное постиндустриальное общество: природа, противоречия, перспективы. – М.: 2000.

¹⁹³ Колин К. К. Информационная цивилизация. – М.: 2002.

¹⁹⁴ Моисеев Н. Н. Универсум. Информация. Общество. – М.: 2001.

¹⁹⁵ Панарин А.Н. Информационная война, ПР и мировая политика. – М.: 2006..

¹⁹⁶ Попов Г. Н. Переход России к информационному обществу. – М.: 2001

¹⁹⁷ Попов Г. Н. Переход России к информационному обществу. – М.: 2001..

¹⁹⁸ Кант И. К вечному миру [ред. Д. Рындин; пер. И.Д. Копцев, И.А. СХапино, Ц.Г. Арзаканян] // И. Кант. – М.: Рипол – Классик. 2018. – С. 434.

iborat. Ya'ni samarali ommaviy-huquqiy kommunikatsiya jarayonlari rivojlantirilishi lozim.

“Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayonida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasining amalda joriy etilishi, “Kuch – adolatda” tamoyilini amalga oshirish orqali jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligining kafolatidir. Aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta'minlashning eng muhim omilidir”¹⁹⁹. Davlat va jamiyat boshqaruvida huquqiy kommunikatsiya tizimining qonuniy tamoyillar asosida rivojlanib borishini tahlil qilar ekanmiz, inson manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan bugungi yangilanishlar odamlar bilan muloqot qilishga tayanishni ta'kidlash lozim. Xalqning dardu tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish hamda hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilgan.

Mazkur tuzilmalar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, shuningdek joylardagi muammolarni chuqur tahlil etish mexanizmi va davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirish, ularning faoliyatini baholash mezoniga aylandi. Mamlakatning demokratik davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarida huquqiy kommunikatsiya tizimining ahamiyatli jihati shundaki, bugungi soat sayin rivojlanib borayotgan O'zbekistonning qaysi bir jabhasini kuzatmang barcha sohalarda eng yangi va zamonaviy talablarga javob beradigan yangilanishlar mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimiga kiritilgan. Mukammal ishlab chiqilgan qonunlar adolatli targ'ibot qilinsa, faqat shundagina davlat va jamiyat hayotini yaxshi tashkil etishning imkoniyatlari rivojlanib boradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish tamoyillari davlat, mamlakat va fuqarolarni kelajakka da'vat qiladigan ma'naviy ehtiyoj, taraqqiyotga undaydigan omillardan biri tarzida yuzaga keladi, kishilarni boshqarish vazifasini bajarayotgan siyosiy partiyalar, rahbar shaxslar, aql-zakovati va salohiyatini o'zida ifodalaydi.

¹⁹⁹ To'raev T., Xusainov U., Ilhomjonov B., Bobojonov O., Nodirov A. Huquqiy etuklik – barkamolikka oltadi. – T.: Adolat. 2011. – B. 91.

Bugungi ishlab chiqilayotgan qonunlarni joriy etishning o'zi kifoya qilmaydi, balki uning mazmuni va ahamiyatini tushunish, ushbu ma'lumotlarni xalqqa to'liq holatda yetkazish zarur bo'lib, bu asosan huquqiy yo'nalishdagi ommaviy aloqalar yordamida amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish, bu jarayonda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson haq-huquqlarini ta'minlash, gumanizm va insoniy qadriyatlarga rioya qilib yashash tamoyilini jamiyat hayotining asosiy davr talabiga aylantirish²⁰⁰, jamiyatda olib borilayotgan islohotlar va o'zgarishlarning asosiy maqsadi bo'lgan demokratik davlat, huquqiy jamiyat, qonunning ustuvorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra, xalqimiz, mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda mustaqillik yillarida shakllanib rivojlanayotgan milliy g'oya muhim o'rin tutadi. Milliy g'oya tamoyillari demokratik jamiyat qurish tamoyillari bilan uyg'unlikda mamlakatning ichki hayotini boshqarishning asosiy mezonlaridan biri bo'lish bilan birga, tashqi siyosatda davlatning salohiyatini ko'rsatadigan, uning jahon hamjamiyati va xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini namoyon qiladigan ma'naviy qadriyat mezonlarini, inson huquqlari, fuqarolarning imkoniyatlari, umumbashariy muammolarni hal qilish istiqbollari qay tarzda amaliyotga aylanayotganligini bildiradigan omil bo'lib xizmat qilishi mumkin²⁰¹. Bugun jamiyatda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni qurish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilab olindi. Shu bois, demokratik jamiyat barpo etish va bu jarayonda ma'naviy, iqtisodiy omillarning ahamiyati, ularning o'zaro aloqadorlikdagi ijtimoiy mohiyatini tahlil etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Jamiyat hayotida kechayotgan demokratik islohotlar jadal sur'atlar bilan rivojlanishida muhim bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda, mamlakatda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish kabi maqsadlar sari intilish kuzatilayotgan ekan, demokratiyaning taqdiri ham, kuchli fuqarolik jamiyatining qaror topishi ham fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayondagi ishtirokiga bog'liq.

²⁰⁰ O'sha manba.

²⁰¹ 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: Adolat. 2017. – B. 14.

Demokratik jamiyatning shakllanishi mavjud ijtimoiy-siyosiy munosabatlar barqarorligining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda bu jarayonning izchil, tizimli va ob'yektiv amalga oshirilishida davlat hamda jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, harakatlarning pirovard maqsadlarini ifodalaydigan mafkuraviy jarayonlar ham muayyan o'rin egallaydi²⁰². Shu o'rinda aytish mumkinki, siyosiy kommunikatsiya jamiyat va davlatning siyosiy tamoyillarining strategik maqsadini ommaga yetkazishga qaratilgan ma'rifiy va huquqiy usullarni o'z ichiga oladi.

Manuel Kastelsning "Kommunikatsiya kuchi" nomli asarida "Hokimiyat jamiyatdagi eng asosiy jarayondir, chunki jamiyat qadriyatlar va institutlar bilan belgilanadi, va institutsionalizatsiya qilinadi hokimiyat munosabatlari bilan belgilanadi. Hokimiyat – tegishli imkoniyatga ega bo'lgan ijtimoiy ishtirokchiga boshqa ijtimoiy subektlarning qarorlariga assimetrik tarzda istalgan tarzda ta'sir o'tkazish imkonini beradigan munosabatni ifodalovchi, qobiliyatidir"²⁰³.

Hokimiyat munosabatlari hukmronlik orqali shakllanadi, bu hokimiyat jamiyat institutlarida ildiz otadi. Hokimiyatning nisbiy qobiliyati hukmronlikning strukturaviy imkoniyati bilan shartlangan, lekin belgilanmaydi. Institutlar o'z sub'yektlari ustidan amalga oshiradigan hukmronlik asosida hokimiyat munosabatlariga kirishishi mumkin.

Siyosiy aloqa siyosiy kurashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri, zamonaviy siyosiy jarayonni rivojlantirishning asosiy mexanizmi, hokimiyat va uning qarorlarini qonuniylashtirishning yetakchi qurolidir. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, bugungi kunda aloqa siyosatning tizim tuzuvchi elementiga aylandi va unda o'zining oldingi yordamchi va texnik xususiyatini yo'qotib, yangi ontologik maqomga ega bo'ldi. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'zini siyosat sohasiga faol ravishda kiritib, nafaqat eski g'oyalar, qarashlar va stereotiplarni sifat jihatidan o'zgartirdi, balki siyosiy institutlar va shaxslar o'rtasidagi munosabatlar modellarining o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Siyosiy aloqaning yangi ekstensiv kanalini shakllantirish jarayoni faol davom etmoqda, uning rivojlanish dinamikasi siyosiy faollikni ta'minlash tizimi va siyosiy

²⁰² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi boqichga ko'taramiz. 1 – jild. – T.: O'zbekiston. 2018. – B. 500.

²⁰³ Мануэл Кастелс Власт коммуникации / М. Кастелс – «Высшая СХкола Экономики ВСХЭ», 2013 – (Переводные учебники ВСХЭ) Издателский дом Высшей школы экономики. 2016; 2017; 2020. – Б. 34.

o‘zaro hamkorlikda o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun subektlar haqidagi g‘oyalarni o‘zgartirmoqda.

Siyosiy kommunikatsiya siyosatning zaruriy tarkibiy qismi bo‘lib, u siyosatning guruh maqsad va manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan, bir vaqtning o‘zida butun jamiyat manfaatlariga daxldor bo‘lgan jamoaviy, murakkab tashkil etilgan maqsadli faoliyat sifatidagi xususiyatidan kelib chiqadi. Muloqot jarayonining xususiyatlarini o‘rganish fuqarolik ongini va unga mos keladigan huquqiy va siyosiy madaniyatni, siyosiy subektlarning ijobiy va faol ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, siyosiy jarayon ishtirokchilariga jamiyat taraqqiyoti maqsadlarini tushunishga yordam beradi; ularning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlardagi siyosiy pozitsiyalari va rollarini aniqlaydi.

Jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni aks ettiruvchi eng harakatchan sohalardan biri bo‘lgan siyosiy kommunikatsiyalar ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning mohiyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Muloqot an‘analarining o‘zgarishi siyosiy strategiyalardagi ma‘lum o‘zgarishlardan dalolat beradi, chunki ularning belgilari odatda siyosiy jarayon ishtirokchilarining nutq tuzilmalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aloqa texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib boradi, ammo ularning ta‘siri siyosatda eng sezilarli ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda ijtimoiy-siyosiy leksika “elektron hukumat”, “raqamli demokratiya”, “kommunikatsiya demokratiyasi”, “elektron fuqarolik” va boshqalar tushunchalari bilan boyidi. Axborot jamiyati juda jadal rivojlanmoqda, shuning uchun bunday tadqiqotlarning nafaqat nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish, balki amaliy materiallar yordamida ushbu muammoni o‘rganish ham muhimdir.

Fuqarolik jamiyati kabi siyosiy kommunikatsiya institutlari ham alohida qiziqish uyg‘otadi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi bilan siyosiy muloqot samaradorligi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud bo‘lib, fuqarolik jamiyati rivojlanishi va barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun har bir fuqaro “davlat-jamiyat” tizimi hayotida o‘zini qiziqtirgan barcha masalalar bo‘yicha tezkor va ishonchli axborot olishi, erkin axborot almashishi zarur, ushbu tizimning faol sub’yekti sifatida katta ahamiyat kasb etdi.

Axborotni ommaviy ravishda bepul olish va tarqatish inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, shu bilan birga fuqaroning jamiyatning o'ziga va davlat hokimiyatiga haqiqatda ta'sir ko'rsatishini ta'minlashning asosidir. Bularning barchasi fuqarolik jamiyatining umume'tirof etilgan asosiy xususiyatidir. Fuqarolik jamiyatining siyosiy o'zini-o'zi belgilashi - bu ijtimoiy tashkilotning ushbu turiga xos bo'lgan institutlar va tuzilmalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, u siyosiy muloqotda ommaviy nutq orqali o'zining funksional ifodasini topadi va bir vaqtning o'zida siyosiy ishtirok etish madaniyatini o'zgartiradi.

Hokimiyat va jamoatchilik o'rtasidagi ikki tomonlama aloqaning alohida tizimi qatorida ommaviy axborot vositalari, PabloRileyshnz agentliklari, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, Nodavlat notijorat tashkilotlari tuzilmalarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning sinovdan o'tgan shakllari jamoatchilik ekspertizalarini o'tkazish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, hokimiyat organlariga tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu aloqa kanallari fuqarolarni davlat siyosatini amalga oshirishga jalb qilishning samarali usullarini ishlab chiqishi kerak, bu esa davlat boshqaruvi tizimi va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati natijalarini yaxshilashga yordam berishi kerak.

Xulosa o'rnida tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mintaqaning siyosiy kommunikatsion makonining mafkuraviy va tarkibiy bo'linishi, manipulyativ texnologiyalar bilan to'yinganligi mintaqaviy siyosatning muammoli maydonini virtualizatsiya qilish tufayli hukumat ta'siriga ochiq va jamoatchilik ta'siriga nisbatan yopiq xarakterga egadir.

3.2. Siyosiy kommunikatsiya tarmog'i O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning zaruriy sharti sifatida

O'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari insonning jamiyatdagi o'rni, uning ulkan salohiyatiga yuqori baho berganlar, inson har taraflama kamol topishining ahamiyatini uqtirganlar. Abu Ali ibn Sino "inson boshqalarning ehtiyojlarini qondirishi sababligina inson bo'ladi, boshqalar ham shunday yo'l tutadi. Birov ekin ekadi, boshqa odam non yopadi, uchinchisi kiyim tikadi, to'rtinchisi igna yasaydi va hamma bir-birining

ehtiyojini qondirish uchun to'planadi'²⁰⁴, deb qayd etgan. Germaniyalik sotsiolog M.Veber ta'limotiga ko'ra, jamiyat – shaxslar jamlanmasi bo'lib, ularning har biri o'z maqsadlariga erishishga intiladi²⁰⁵. Umuman olganda, jamiyat – odamlarning jamoaviy faoliyatiga asoslangan murakkab, keng ko'lamlı, ko'p darajali ochiq tizimdir. Jamiyatning mohiyati ijtimoiy organizm – ijtimoiy institut asosidagi tizimdir.

Globalashuv jarayonlari va axborot kommunikatsiya vositalarining misli ko'rilmagan rivoji davlat va xalqlarning o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga kuchli turtki bo'lmoqda.

Mamlakatda zamonaviy demokratik davlat barpo etish jarayonida inson manfaatlarini ta'minlash va kafolatlash alohida ahamiyatga ega. Shunday ekan, inson huquqlari to'g'risidagi qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazish, ularning insonlar ongiga ta'sirini kuchaytirishda siyosiy kommunikatsiyaning ahamiyatini mustahkamlash zarurati dolzarb masala bo'lib turibdi.

Zamonaviy siyosiy tizimlarning barqaror vertikal institutsional integratsiyasi siyosiy munosabatlarni tartibga solishning yagona muqobil va eng samarali tizimi sifatidagi maqomini yo'qota boshladi. Rivojlanishning birinchi multilokal bosqichida gorizontal integratsiyalashgan aloqa tizimlarining paydo bo'lishi ommaviy siyosiy faollikning o'sishi bilan bog'liq umidlarni keltirib chiqardi. D. Naisbitt 1980-yillar boshida o'zining "Megatrendy" asarida siyosiy qarorlar qabul qilishda ijtimoiy va professional tarmoqlarning ta'siri kuchayishini bashorat qilgan edi²⁰⁶. Biroq tarmoq kommunikatsiyalarini rivojlantirishning navbatdagi global bosqichi davlat va iqtisodiy chegaralardan tashqarida yangi gorizontal jamoalarni qurish imkonini berdi. Shu sababli, ontologik rejimda virtual siyosiy makon va topologik rejimda tarmoq siyosiy makonining paydo bo'lishi haqida gapirish mumkin. Tarmoqlar va virtual qobiqlar tomonidan qurilgan yangi siyosiy makon siyosiy faoliyatning boshqa shakllarini o'z ichiga oldi va siyosiy erkinliklarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar berdi.

²⁰⁴ Raхimov S.R. Psixologo-pedagogicheskie vzglyady Abu Ali ibn Siny. – T.: Ukituvchi 1979. – S. 120.

²⁰⁵ Фролов С. Основы социологии. – М. 1997. – С. 14

²⁰⁶ Олейник А. Н. Модел сетевого капитализма // Вопросы экономики. № 8: [Электронный ресурс]. URL: http://www.situation.ru/app/j_art_366.htm.

Bu yerdan biz siyosiy kommunikatsiyalar tarmog'iga aylanishining muqarrarligini va ehtimol, siyosiy kommunikatsiyalarning tarmoq shakllari siyosiy hokimiyatning institutsional shakliga aylanishi mumkinligini tushunishimiz mumkin. Tarmoqlarning kuchayib borayotgan ta'siri haqidagi g'oyalarning rivojlanishini postindustrial kelajak kontekstida M.Kastelsda, so'ngra tashkiliy tuzilmalarni sotsiologik modellashtirish doirasida R.Burtda topish mumkin. Ammo A.Bard va J.Soderkvistning netokratiya tushunchasi siyosiy voqelikka eng yaqin bo'lib chiqdi²⁰⁷, unda tarmoq rivojlanishi davrining kelishi munosabati bilan quvvat taqsimoti modeli butunlay qayta ko'rib chiqildi. Aynan eksklyuzivlik kapitalizm va netokratiya mantig'ini ajratib turadi. Ushbu postulatda ratsionallik haqiqatan ham mavjud va axborot mahsulotlariga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq bahslarni hisobga olish kerak. Axborot va dasturiy mahsulotlarga bo'lgan huquqlarni cheklash tarafdorlari iqtisodiy almashinuv modellarining taniqli taqqoslashlariga ishora qiladilar.

Siyosiy kommunikatsiyaning eng keng va umumiy ta'rifini fransuz siyosatshunos olim Roje Jerar Shvarsenberg o'ziga xos shaklda, "siyosiy kommunikatsiyani siyosiy tizim ichida ham, undan tashqarida ham, ya'ni siyosiy va ijtimoiy tizimlar o'rtasida uzatish jarayonlari"²⁰⁸ deb tushuntiradi. L.Payning ta'kidlashicha, "siyosiy muloqotda, siyosiy elitaning ommaga bir tomonlama, bevosita axborot ta'siri bilan cheklanib qolmay, balki axborot uzatishning turli norasmiy jarayonlarini o'z ichiga oladi va shu bilan axborot uzatishning norasmiy manbalarining muhim rolga e'tiborni qaratadi"²⁰⁹. L.Posiker siyosiy muloqotni og'zaki muloqotga qisqartirib, siyosiy aloqani siyosiy tizim doirasidagi siyosiy matnlarning aylanish jarayoni sifatida belgilaydi.

Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda rivojlanish bosqichi sifatida paydo bo'lishi odatda mualliflar tomonidan ajratilmaydi. Bundan tashqari, paydo bo'lish ba'zan rivojlanishga ham kiritilmaydi. Bu, bir tomondan. Boshqa tomondan, ba'zi mualliflar paydo bo'lishni shakllanish bilan tenglashtiradilar. Biroq, uchinchi nuqtai

²⁰⁷ Бард А., Зодерквист Я. Нетократия. Правящая элита и жизнь после капитализма [Текст] / А. Бард, Я. Зодерквист. – СПб. 2004. – Б. 5.

²⁰⁸ Шварценберг Р.Ж. политическая социология. часть III. – М.: НАУКА. 1992. – С. 17.

²⁰⁹ Парсонс Т. Система современного общества. – М.: 1998. – С. 36.

nazar mavjud. Rus olimi A.N.Averianovning fikricha, “paydo bo‘lish, shakllanish ham rivojlanish jarayonining mustaqil davridir”²¹⁰ deydi.

Marchlarning “Institutlarni qayta kashf qilish: siyosatning tashkiliy asoslari”, nomli asarida shunday fikr bildirganlar: “Iqtisodiyot va tashkiliy nazariyadan kelib chiqqan oqilona tanlov institutsionalizmi institutlarni qoidalar va rag‘batlantirish tizimlari deb biladi. Qoidalar siyosiy aktyorlarning bir guruhiga boshqasiga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini berish uchun bahsli. Siyosiy qarorlarni qabul qilish modellashtirish va o‘yin nazariyasi taxminlari bilan izohlanadi, chunki siyosiy hokimiyatga da’vogarlar va egalar o‘zlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishadi. Shunday qilib, oqilona tanlov tadqiqotchilari ko‘pincha ma’lum bir vaqt oralig‘ida bitta muassasaga e’tibor berishadi, garchi ba’zilar institutlarni o‘z vaqtida ko‘rib chiqadilar. ijtimoiy institutsionallashtirish esa sotsiologiya, tashkiliy nazariya, antropologiya va madaniyatshunoslikdan kelib chiqqanligi sababli ushbu yo‘nalish institutsional madaniyatlar g‘oyasini ta’kidlaydi. Ushbu yo‘nalishdagi olimlar institutsional qoidalar, me’yorlar va tuzilmalarni dastlab oqilona yoki samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki madaniy jihatdan qurilgan deb bilishadi. Ular institutsional madaniyatlarni yaratishda afsona va marosimning ro‘lini, shuningdek, ramzlar tizimlari, kognitiv sценарийlar va axloqiy naqshlarning ro‘lini ko‘rib chiqishga moyildirlar. Ba’zida ular siyosiy institutlarni o‘rganishda me’yoriy (odatiy va belgilangan) yondashuvga rioya qilishadi va institutlar va madaniyat o‘rtasidagi chegarani buzishga moyildirlar”²³⁵, deyiladi. Institutlar hayotiga axloqni kiritadigan, fuqarolik va jamoaviylikni siyosiy jamiyatning asosi sifatida ta’kidlaydigan tushunchalar shaxsiy axloq va tinchlik bilan bog‘liq umumiy g‘oyalarga yo‘l ochadi, qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi muzokaralar paydo bo‘lida asosiy ahamiyat kasb etadi.

Siyosatshunos olim Mixail Vershinin shunday fikrlar bildiradi, “Axborot jamiyatida siyosiy kommunikatsiya: tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishlari” nomli asarida, “Milliy o‘ziga xoslik siyosat, iqtisod va madaniyat sohalarida milliy ramzlarga munosabat muammosidan tortib, yagona hudud, umumiy tarixiy xotira, umumiy madaniyat, umumiy iqtisodiy makon haqidagi o‘ziga xos g‘oyalar, umumiy ijtimoiy va siyosiy huquqlar, o‘zining ijtimoiy hamjamiyat sifatida millat qadriyatlarini shaxsning

²³⁵ March J. Olsen J. Rediscovering Institutions: The Organizational Basis of Politics. N.Y.; L. 1989. Publisher The Free Press. – P.13.

ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatishda keng namoyon bo'ladi. Agar davlatdagi mavjud vaziyatga nisbatan milliy o'ziga xosligini shakllantirish vazifasini milliy xavfsizlikning tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblasak mubolag'a bo'lmaydi. Va bularning barchasi ommaviy kommunikatsiyalar yordamida sodir bo'ladi, uning ushbu jarayonga qo'shgan hissasini ortiqcha baholash qiyin"²³⁶ - deb hisoblaydi.

Globallashuv jarayoni, elektron aloqa vositalarining ko'lami va misli ko'rilmagan xilma-xilligi bugungi kunda mutlaqo yangi aloqa holatiga olib keldi. Zamonaviy globallashuv voqelikning o'ziga xos xususiyati global bozorning shakllanishi va milliy chegaralarning izchil yo'q qilinishiga olib keladigan transmilliy axborot oqimlaridir. Mashhur kanadalik madaniyatshunos G. M. Maklyuen o'z asarlarida "global qishloq" deyilgan atamaning aniq chizmalarini ko'ramiz.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning axborot texnologiyalari kirib bormagan sohasini nomlash qiyin, siyosat ham bundan mustasno emas. Faol infiltratsiya bu yerda yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari siyosiy institutlar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi xatti-harakatlar shakllari va munosabatlar modellarida tub o'zgarishlarga asos soldi. A.A. Chesnakovning so'zlariga ko'ra, "siyosiy aloqaning yangi keng ko'lamli kanalini shakllantirish boshlanadi, uning rivojlanish dinamikasi siyosiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimi g'oyasini o'zgartirishi mumkin"²³⁷ deb ta'kidlaydi. Axborot texnologiyalari nafaqat demokratik tartib-qoidalar shaklini, balki ijtimoiy jarayonlar rivojlanishining mohiyatini ham o'zgartirdi.

Internetning siyosiy institutlari va jarayonlariga ta'sir ko'rsatishning tabiati va yo'nalishi, bu ta'sirning mohiyati va chuqurligi haqidagi savol olimlar va siyosatchilar o'rtasida qizg'in muhokamalarni keltirib chiqarmoqda. Internetning siyosiy vaziyatga va demokratik institutlarning rivojlanishiga ta'siri istiqbollari muammosi bo'yicha uchta asosiy nuqtai nazar paydo bo'ldi.

²³⁶Вершинин М. – С. Политическая коммуникация в информационном обществе: перспективные направления исследований // Актуальные проблемы теории коммуникации: сборник научных трудов. – СПб. 2004. – С. 253.

²³⁷Шеснаков А.А. Ресурсы Интернет и российские политические технологии: состояние и перспективы развития // Вестник МГУ. Серия 18. Социология и политология. 1999. № 4. – С. 65.

Lourens Kugelmass Grossmannning “Internet ma’lum bir hukumat siyosatiga bevosita individual ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’ladi²³⁸” deydi Bunday tushunchalar vakillarining ta’kidlashicha, Internet yordamida aholi va hukumat o’rtasidagi aloqani “vositachilar” ishtirokisiz ta’minlash, shuningdek, siyosiy partiyalar va ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi guruhlar ta’sirida oddiy odamlarning saylangan mansabdor shaxslarga qaramligini minimallashtirish mumkin bo’ladi²³⁹, deyiladi.

Axborot almashish jarayonida ko’proq imkoniyatlar yaratadigan internet, bir tomondan, oddiy fuqarolarning siyosiy arboblarga ta’sirini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, hozirda ommaviy axborot vositalariga ega bo’lganlarning ta’sirini susaytirishi ham mumkin.

Ko’rib chiqilayotgan nazariyaning mohiyati shundan iboratki, aloqa vositalari aholining siyosiy faolligini belgilovchi omilga aylanadi, “Internet oddiy fuqarolarning ma’lumot almashish imkoniyatini markazsizlashtirishga yordam beradi, ularning siyosiy faolligi, umuman ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’siri kuchayishi natijasida ortib bormoqda. Ushbu konsepsiya vakillari buni yetarli deb hisoblashadi, bu jarayon rivojlanib, zamonaviy jamiyatning o’zgarishiga olib keladi²⁴⁰” deyiladi.

Monnet – Shumannning Kommunitar usuli²⁴¹ bo’lib, u Shumann rejasining asosini tashkil qiladi. Internet yordamida turli ijtimoiy qatlamlarning ijtimoiy hayotini belgilaydigan aloqalarning o’zgarishi sodir bo’ladi. Internetning asosiy vazifasi “jamiyatlar”ni shakllantirish va rivojlantirishdir (biz buni bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar misolida ko’ramiz). X.Reingoldning fikricha, “jamiyatlar” internetda birlari bilan uzoq muddatli o’zaro ta’sir natijasida odamlar yetarlicha mustahkam aloqalar hosil qilganda yaratiladi. Bu holda internet fenomeni shundaki, u foydalanuvchilarning bir-biridan jismoniy masofasini yengib o’tishga muvaffaq bo’ldi

²³⁸ Grossman L.K. The Electronic Republic: Reshaping Democracy in the Information Age. N.Y.: 1995. – S. 4.

²³⁹ Browning G. Electronic Democracy: Using the Internet to Influence Politics. Wilton. 1996. – R. 7.

²⁴⁰ Корнилов Е.А., Корнилова Е.Е. Массовые коммуникации на рубеже тысячелетий. – М.: 2013. – С. 11.

²⁴¹ “Kommunitar usuli” Yevropa xalqlarining real kuchga ega bo’lgan yagona tashkilot doirasida birlashishini nazarda tutadi.

va jamoalarni shakllantirish jarayonini bunday cheklovlardan ozod qildi²⁴². Natijada, fazoviy joylashuv bilan bog‘liq cheklovlardan xalos bo‘lgan mahalliy jamoalar, ma’lum sharoitlarda, kengroq miqyosda (xudud yoki butun dunyo) kengayish imkoniyatiga ega.

Bu erda juda ko‘p imkoniyatlar mavjud: “o‘zaro tushunish va turli nuqtai nazarlarga hurmatni oshirish, irqiy yoki gender kamsitishlarga barham berishdan umumiy qadriyatlarni yaratishgacha. Agar birinchi nazariya, eng avvalo, fuqarolarning hukumat bilan o‘zaro munosabatlaridagi o‘zgarishlarni tahlil qilsa, kommunitar usul tarafdorlari asosiy e’tiborni fuqarolarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlarini kuchaytirishga qaratadilar. Uchinchi nuqtai nazar esa ikkita farazni o‘z ichiga olgan plyuralizmning jadal rivojlanish konsepsiyasidir”²⁴³.

Aloqa axborot oqimini oshiradi, axborot almashinuvini tezlashtiradi va shu orqali ko‘proq odamlarni siyosatda ishtirok etishga jalb qilishga yordam beradi, shu bilan birga siyosatchilar, faollar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun bu jarayonni tashkil etish va amalga oshirishni osonlashtiradi. Qolaversa, axborotdan keng foydalanish imkoniyatining mavjudligi turli siyosiy jarayonlarni tezlashtiradi. Internet tabiiy ravishda jamoaviy harakatlarni tashkil qilish uchun katta xarajatlarni talab qilmaydi, shuning uchun bu, ayniqsa, an’anaviy davlat va xususiy tashkilotlar doirasidan tashqarida bo‘lgan, biznes jarayonlarida ishtirok etmaydigan yoki biron bir professional tashkilotlarga aloqasi bo‘lmagan guruhlar uchun foydalidir.

Zamonaviy jamiyatning siyosiy jarayonlarni allaqachon Internet texnologiyalarining ulkan ta’sirida his qilmoqda va bu ta’sir kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan aholining siyosiy faolligi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik nazariy va empirik jihatdan hozirgi kungacha aniqlanmaganiga qaramay kuchayadi.²⁴⁴.

Siyosiy soha uchun internetdan foydalanishning dolzarbligi nafaqat axborot oqimining samaradorligi va shaffofligini oshirishda, balki, birinchi navbatda, aholini

²⁴² Rheingold H. A Slice of Life in my Virtual Community // Global Networks / ed. L.M. Hara – sim. Cambridge. 1993. – P. 21.

²⁴³ Rheingold H. A Slice of Life in my Virtual Community // Global Networks / ed. L.M. Harasim. Cambridge. 1993. – P. 23.

²⁴⁴ Политическое проектирование в пространстве социальных коммуникаций: материалы 10 Международной научной конференции: в 2 ч. – М.: 2013. III. 2.

siyosiy jarayonlarga jalb qilish uchun har bir qulay daqiqadan foydalanishidir. Aloqa texnologiyalarining siyosatga beradigan eng muhim imkoniyatlari samarali tashkiliy harakatlari orqali samarali boshqaruvni tashkil etishidir, siyosat va fuqarolar o'rtasidagi doimiy aloqani ta'minlash, aholining faolligi va motivatsiyasini oshirish, shuningdek, odamlarni internet orqali real hayotda siyosiy harakatlarga jalb qilish va hokazo.

Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealardan ko'rinib turibdiki, Internetning imkoniyatlari cheksiz bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda siyosiy hokimiyatlar, partiyalar va tashkilotlar hukumat va jamiyatni birlashtiruvchi asosiy ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish va mustahkamlash uchun yangi aloqa kanallari imkoniyatlaridan samarali foydalana oladimi, degan dolzarb savol hisoblanadi. Internet axborotni yaratish va tizimlashtirish hamda uning shaffofligini oshirish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Internet orqali milliy va xalqaro darajadagi hokimiyatlarning faoliyati ochiq bo'lib, fuqarolar va vositachi tashkilotlar o'rtasidagi interaktiv aloqa kanallari mustahkamlanmoqda. Internet ushbu o'ziga xos funktsiyalarni boshqa ommaviy aloqa vositalariga qaraganda yaxshiroq amalga oshirishga qodir. Masalan, Internet kichik siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining aholi bilan o'zaro aloqalarini an'anaviy ommaviy axborot vositalariga (gazeta, radio, televideniye) nisbatan ancha osonlashtiradi, jurnalistlarni qiziqtirgan ma'lumotlardan, rasmiy hujjatlardan, amaldagi qonunchilik tashabbuslari va takliflaridan bir martalik keng foydalanish imkoniyatini ta'minlay oladi. Shuningdek, partiyalarning ichki tashkiliylikini va uning a'zolarining o'zaro hamkorligini mustahkamlashga hissa qo'shadi va hokazo.

Ammo boshqa tomondan, elektron aloqa vositalari ma'lum bir xavfga ega, ya'ni yetarli darajada himoyalanganligi sababli turli ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish imkoniyati, jamiyatni axborotga ega bo'lgan va unga ega bo'lganlar va bunday foydalanish huquqiga ega bo'lmaganlarga bo'linish imkoniyati va buning natijasida tanlov demokratiyasi tamoyiliga rioya qilmaslik, jinoiy va ekstremistik, millatchi guruhlarni tashviqot qilish va ularning yosh avlodga ta'sirining real imkoniyatlari mavjudligi alohida xavf tug'diradi.

Agar biz O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan aloqa texnologiyalarining istiqbollari haqida gapiradigan bo‘lsak, bugungi kunda eng muhimi “elektron demokratlashtirish” jarayonlarini rivojlantirishda ishtirok etuvchi Internet texnologiyalarini, ya’ni undan foydalanishning asosiy maqsadlari quyidagilarni hisoblaymiz: birinchidan, saylovchilar va ommaviy axborot vositalarining qonun ijodkorligidan foydalanish imkoniyatlari kengaydi; ikkinchidan, saylovchilarni birlashtirish va ularning birlashmalarini tuzish xarajatlari kamaydi; uchinchidan, saylovchilar va ularning qonun chiqaruvchi organlardagi vakillari o‘rtasidagi fikr almashish samaradorligi oshdi.

Internet-texnologiyalarning rivojlanishi bilan siyosiy soha qanday yangilikni qo‘lga kiritdi? Bular, albatta, Internet-bloglar (inglizcha web-log, web-logdan). Ular birinchi marta AQShda paydo bo‘lgan va shaxsiy onlayn kundaliklar sifatida mavjud bo‘lib, unda muallif va uning do‘stlari - obunachilarning manfaatlari muhokama qilinadi. Ularni individuallashtirish yo‘nalishi bo‘yicha Internet-forumlarning ijodiy rivojlanishi deb hisoblash mumkin. Olimlarning ta’kidlashicha, zamonaviy jamiyatda bloglar zamonaviy odamlarning o‘zini namoyon qilish, o‘zlarining ijtimoiy doiralarini, shuningdek, axborot manbalarini mustaqil ravishda shakllantirishga bo‘lgan intilishlari ortishi tufayli mashhur bo‘ldi.

Davlat va jamiyat boshqaruvida zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish masalalari siyosiy kommunikatsiyaning bir shakli sifatida rivojlanib boryapti. Bugungi davr talabiga xos davlat va jamiyat boshqaruvining zamonaviy vazifalari xalq farovonligi yo‘lida davlatning tinchligi, osoyishtaligi va obodligi, kishilarning yangi hayotga bo‘lgan qiziqishlarining ortib borishining asosiy omili bo‘lmoqda. Shu o‘rinda davlat va jamiyat tushunchasi bo‘lgan inson, huquq va erkinliklarining oliy darajada qadrlanayotganligi, qonunlarning yanada takomillashtirilayotgani zamirida inson kamoloti ulug‘lanayotganligi aks etishini alohida ta’kidlash lozim.

O‘zbekistonda demokratik davlat qurishning muhim shartlari shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat. Inson huquqlarining kafolatlari tizimini yaratishda fuqarolik jamiyati va davlat manfaatlari yo‘lidagi siyosiy kuchlarning konsentratsiyalashuvi demokratiya sub’yektlari faoliyati, kelishuvi, цивилизацияsida plyuralizmni ta’minlashdan iboratdir.

Insonning huquqiy maqomini hal qilish, jamiyatni rag‘batlantirish – davlat qarorlarini ishlab chiqish zarur. Qarorlar qabul qilinishi, xalqning maqbul xizmat bilan ta‘minlanishi hamda jamoatchilik fikri va fuqarolar faoliyatida (qarorlar, buyruqlar, xatlar, bayonnomalar va boshqalar orqali) yozma kommunikatsiya shakllarining – davlat bilan xalq o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamligini kengroq ta‘minlash imkoniyatlari yaratilganligi fikrimizning isbotidir. Masalan, keyingi yillarda davlat boshqaruvi tizimida yangi zamonaviy g‘oyalarni tatbiq etish maqsadida Prezident devoni va hukumat ijro etuvchi tuzilmasi qayta ko‘rib chiqildi. 18 ta vazirlik, idoralarning vazifa va funksiyalari takomillashtirildi. 24 ta davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi²⁴⁵.

Bugungi yangilanishlar davrida davlat boshqaruvi tizimining tez fursatda rivojlanib borishi o‘ziga xos xarakterga ega. Jamiyatni yangilash, demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish jarayonida qonun hujjatlarining ijrosi va mazmun-mohiyatini aholiga yetkazishda huquqiy kommunikatsiya muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Davlat va jamiyat boshqaruvida, davlat va xalq muloqotlari masalasida ham huquqiy kommunikatsiya o‘ziga xos xarakterga egadir. Ayniqsa, islohotlarning huquqiy asoslarini nafaqat tushunish, balki ularni xalq amaliyotiga tatbiq etishda ahamiyatlidir. Davr talabi bo‘lgan rivojlanish, yuksalish va dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari qatoridan joy olish darajasiga erishish yo‘lida O‘zbekiston bugungi kunda ma‘naviy-ma‘rifiy, iqtisodiy, siyosiy jabhalarda shahdam qadamlar bilan oldinga intilmoqda.

Davlat tizimi faoliyati o‘zining ochiqligi, xalq bilan doimo hamnafas tarzda siyosat yuritayotganligi, inson huquq va erkinliklari yuzasidan yangi qonunlarning paydo bo‘lishi, tadbirkorlik uchun imtiyozlar yaratilganligi bilan xalqning ishonchiga sazovor bo‘lmoqda.

Mamlakatda davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda, bu aholining hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirish imkonini oshirmoqda. Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida iqtisodiy,

²⁴⁵ 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: Adolat. 2017. – B .15.

siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda o'zaro uyg'un aloqadorlik jamiyat hayotini oliy darajadagi ijtimoiy tizim sari yetaklaydi. Qonun ustuvorligi, huquqiy me'yorlar, siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida fuqarolik jamiyati barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish darajasi aynan qonunlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni hamda davlat idoralari tomonidan fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishiga uzviy bog'liqdir. Fuqarolarning o'z huquqlarini erkin amalga oshirishlari va burchlarini bajarishlari, eng avvalo, aholining ma'naviy-axloqiy kamoloti namoyon bo'lgan kuchli fuqarolik jamiyatidagi huquqiy kommunikatsiya tizimi sharoitidagina real voqelikka aylanadi.

Agar fuqarolar davlat tomonidan belgilangan huquqiy qoidalarga rioya qilib yashashni oddiy turmush tarziga aylantirsa, o'z xatti-harakatini muayyan qonun-qoidalar asosida yuksak darajada huquqiy idrok etgan holda huquqiy madaniyatini namoyon eta oladi. Shundagina jamiyatdagi barkamol insonlarning huquqiy tafakkuri baralla gavdalanadi. Hozirgi yangilanishlar davrining yana bir shakli bo'lgan, davlat tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlardan biri, davlat xizmatlardan aholi hamda tadbirkorlar foydalanishining eng qulay imkoniyatlarini yaratish maqsadida elektron davlat xizmatlarining soni oshirildi²⁴⁶. Natijada jamiyatda insonparvarlik shaxsiyatiga ega fuqaro tarbiya topmoqda. Bunday shaxslar ayni davrda yangicha fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi davr talabi davlat xizmatlarini taqdim etishning milliy shakli bo'lgan sifat jihatidan yangi darajaga o'tishiga ayrim tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 dekabrda "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjat davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkonini tubdan oshirish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ulug'vor

²⁴⁶ 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: Adolat. 2017. – B. 16.

g‘oyani so‘zsiz amalga oshiruvchi asosiy g‘oyalarni belgilab berdi. Mazkur g‘oyalarning amalda tatbiq etilishi davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida “Fuqarolar emas hujjatlar harakatlanadi” degan, muhim tamoyilni joriy etish imkonini beradi. Demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, qonun hujjatlarining mohiyatini aholiga yanada kengroq va chuqurroq yetkazish, ularda qonunga nisbatan hurmat hissini shakllantirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy faolligini oshirish muhim ahamiyatiga ega. Shu maqsadda huquqiy kommunikatsiyaning turli shakllaridan foydalanish davr talabidir.

Ma‘lumki, qabul qilinayotgan yangi qonunlar aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. Bunda ommaviy-huquqiy kommunikatsiyaning samarali faoliyati, yangi qonunlarning mohiyatini anglash, inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalardandir.

Demokratiya – ommaviy-huquqiy kommunikatsiyaning siyosiy tizimdagi shakli bo‘lib, u davlatchilik, siyosiy tuzilmalar, ijtimoiy-siyosiy hayot va jamiyatning barcha tarmog‘ini qamrab oladi. U aholining savodxonligini oshirishga bo‘lgan sa‘y-harakatlar, inson shaxsining huquqiy jihatdan kafolatlanganligi, siyosiy jamiyat, ya‘ni huquqiy davlatning mavjudligini anglatadi.

Masalan, bugun davlat siyosatini amalga oshirishga mas‘uliyat yuklangan alohida davlat organi – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etilgan. Bu esa amalga oshirilayotgan islohotlarning uyg‘unligi va izchilligini ta‘minlaydi, davlat xizmatlarini sifatli bajarish uchun vakolatli organlar va tashkilotlarning javobgarligini oshiradi. Shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida boshqaruvni amalga oshirishning aniq tashkiliy-institutsional asoslarini shakllantirish ta‘minlanmoqda. Keyingi ikki-uch yillik qisqa davr ichida zamonaviy yangilanishlarni o‘zida mujassam etgan demokratik jarayonlar, huquqiy kommunikatsiya tizimining yangi bir shakli – fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda mahalla institutini aholiga yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning ijrosini samarali ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlarini, hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilish amaliyoti joriy etildi²⁴⁷.

Mustaqil davlatning asosiy vazifalaridan biri o'z fuqarolarining demokratik huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda uni qo'riqlashdir. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining huquqiy ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiyada fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan moddalar aniq va ravshan ishlab chiqilgan hamda birmuncha kengaytirilganligini ko'rish mumkin.

Konstitutsiyada mamlakatimiz fuqarolarining demokratik huquq va erkinliklari yuzasidan yangi-yangi tamoyillar o'z o'rniga egaligi hamda kafolatlanganligi bilan katta ahamiyatga egadir.

Shunday ekan, demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tizimida boshqaruv huquqini yanada yuksaltirish, siyosiy tizimni takomillashtirish, xalqning ma'naviyati va huquqiy bilimlarini oshirish, davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan qonunlarga fikr-mulohazalarini erkin bildirish kabi ta'limiy manbalar borki, xalq buni ongli ravishda anglay bilishi, tushunishi dolzarb masaladir. Shunday ekan ushbu masalalarning yechimini topishda va ularning amalga oshirilishini ta'minlashda OAVning ro'li muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatdagi har bir inson siyosiy jarayonlarni tushunmas ekan, uning ongida insoniylikka zid bo'lgan g'oyalarga ergashish moyilligi kuchayadi. Insonning aksariyat huquq va erkinliklari aynan fuqarolik jamiyati doirasida mujassamlanganligi, demokratik taraqqiy etgan mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari qonun doirasida qo'llab-quvvatlanishi, siyosiy kommunikatsiya tizimi tarmoqlarining uzviy ravishda davlat va xalq o'rtasidagi zanjirlarni mustahkamlashiga xizmat qilishi bu fikrimizning

²⁴⁷ 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: Adolat. 2017. – B. 19.

puxta asosi hisoblanadi. Davlat va jamiyat boshqaruvida qadim zamonlardan to bugungi kunga qadar insonlar o'rtasidagi ilk muloqotlardan biri bo'lgan ramzlar ommaviy kommunikatsiyaning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy innovatsion texnologiyalarning samaradorligi huquqiy kommunikatsiya tizimining yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan o'lchanadi. Demokratiya, huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati parallel holda taraqqiy topadigan hamda bir-birini taqozo qilgan jarayondir.

Insonning aksariyat huquq va erkinliklari aynan fuqarolik jamiyati doirasida mujassamlangan. Shuning uchun ham demokratik taraqqiyotdagi mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari qonun doirasida qo'llab-quvvatlanadi va himoya qilinadi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi muhim vazifa – bu qonunchilik hokimiyati bo'lgan parlamentning ro'li va ta'sirini kuchaytirib borishdan iborat deb hisoblanadi.

Qonunlarga rioya qilish, ularni ijro etish va qonun normalari bilan tartibga solish uchun ehtiyoj tug'ilayotgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash, amaldagi qonun hujjatlarini hayot talablari bilan muntazam uyg'unlashtirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshiriladigan parlament nazorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bosh qomusimizning har bir moddasi biz uchun dasturulamal, hayotimiz qoidasiga aylanishi zarur²⁴⁸. Asosiy qonunimiz bilan barcha fuqarolar zimmasiga Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyati yuklatilgan²⁴⁹. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, avvalambor, tarbiya va muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Davlat va jamiyat shakllanishida qaysi tashkiliy tuzilma ko'proq ahamiyatga ega, degan savolga, albatta, birinchi o'rinda, davlat boshqaruvi deb javob beriladi. Ushbu masala yuzasidan manbalarga murojaat qilinganda, adolatli boshqaruvni joriy qilish va

²⁴⁸ Qarang: Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir // Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. (2018 yil 7 dekabr). – T.: O'zbekiston. 2018. – B. 22.

²⁴⁹ O'sha joyda. – B. 21.

tushuntirish, siyosiy-targ‘ibot tartibi bilan shug‘ullanadigan shaxslarga baho berish hamda qonunlarning mazmun va mohiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ommaga yetkazish muhim masala hisoblanadi.

Shu o‘rinda, Aflotunning fikriga ko‘ra, “hukumat mansablariga intilayotgan shaxslar o‘zlarining ham, nasl-nasablarining ham bolalikdan boshlab to saylanish vaqtlarigacha qilgan ezgu ishlariga yetarlicha dalillar taqdim etsinlar. O‘z navbatida, bo‘lg‘usi saylovchilar ham qonunlar ruhiyati bo‘yicha yaxshi tarbiyalangan bo‘lishlari zarur. Toki, tanbeh yoki ma‘qullash yo‘li bilan har bir saylanuvchini ko‘rsatgan xizmatiga ko‘ra, yo saylasinlar yoxud rad etsinlar”²⁵⁰. Bu bilan hukumat mansablariga saylanayotgan nomzodning nasl-nasabini, bilimini, aql-zakovatini, nomzodlikka loyiq ekanligini, qilgan ishlarini hisobga olish nazarda tutilmoqda.

Insoniyat bir tomondan, adolatli qonunlarga bo‘ysunishi, ikkinchi tomondan esa, aynan o‘sha adolatli qonunlar uni o‘z himoyasiga olishi lozim. Manbalarda keltirilganidek, dunyoda mutlaq adolatli bo‘lish oson emas, amalda buning iloji yo‘q deyiladi. Ammo Aflotun o‘zining “Qonunlar” kitobida bu savollarga javob berishga intilganligini ko‘rish mumkin.

Manbalarga murojaat qilar ekanmiz, ko‘zlangan asosiy maqsad davlat rahbarlarining davlat boshqaruvida xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashda huquqiy ommaviy kommunikatsiya shakllaridan nechog‘li samarali foydalanganligining ahamiyatini kengroq o‘rganishdir. “Qonunchilik – buyuk ish. Ammo yaxshi tartibot berilgan davlat, yaxshi o‘rnatilgan qonunlar ustidan yaroqsiz hokimiyatni qo‘yadigan bo‘lsa, u holda bu qonunlar hech qanday foyda keltirmaydilar va ancha kulgili holat yuzaga keladi; yanada yomonrog‘i, davlat uchun u juda ulkan zarar keltiradi va uni halokatga olib boradi”²⁵¹.

Shu o‘rinda aytish joizki, davlat boshqaruviga aloqador turli asarlarda huquqiy tartibotlar, huquqiy madaniyat va huquq etikasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni uchratamiz. Bundan ko‘rinadiki, insoniyat asrlar davomida xalqning erkinligi, jamiyatning tinchligi va turli sharoitlarda insonni himoya qilib turuvchi qonunlar yaratgan va bu qonunlar

²⁵⁰ Aflotun. Qonunlar. Tarjimon Urfon Otajon. – T.: YAngi asr avlodi. 2008. – B. 161.

²⁵¹ O‘sha joyda.

bilan qanday kishilar ishlashlari mumkinligini ham dolzarb muammo sifatida qonunlar tarkibiga kiritgan.

Aflotun “namunaviy (ideal) davlatni tashkil etish uchun davlat obodonchiligiga ikki narsa taalluqli: birinchidan, mansablar va mansabdorlarni tayinlash, ya’ni ularning soni (miqdori) va mansabga qo’yish usulini aniqlash; ikkinchidan, har bir mansab qanday qonunlar bo’yicha ish olib borishini belgilash hamda bu qonunlarning soni va sifatini aniqlash. Ammo bu tanlovni (saralashni) o’tkazishdan oldin bir oz to’xtab olamiz va buning munosabati bilan lozim bo’lgan fikrni bildiramiz”²⁵² – deydi. Bundan ko’rinadiki, o’sha davrlarda ham hozirgi kundagi singari tanlovlar olib borilgan.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, “sohibi qonun, birinchidan, qonunlarni joriy qila olishi, ikkinchidan, farmon berishni bilishi zarur. Agar u o’zi buyurgan narsani joriy etolmasa, agar boshqalar bo’ysungan narsaga o’zi amal qilmasa, u holda uning so’zlari qo’l ostidagilarga ta’sir etmaydi”²⁵³. Demak, ma’muriy boshqaruvning muhim vazifalaridan biri – qonunni va ular yordamida davlat boshqaruvini ta’minlashdir. Qonun chiqaruvchi shu qonunlarga amal qilishi zarur. Aks holda, Forobiy aytganidek, uning so’zlari qo’l ostidagilariga ta’sir etmaydi. Sohibi qonun tarixiy an’analarni, falsafa, huquq haqidagi asarlarni o’rganib, qonun chiqarishni uddalashi va farmon berish san’atini o’zlashtirishi shart bo’lgan. Shundan kelib chiqib, barcha davrlarda qonunshunoslarni tayyorlashda, huquqiy masalalarni mukammal o’rganishda o’ziga xos tizim qo’llanilganligini ko’rish mumkin. “U Aflotun sohibi qonunga murojaat etib, agar sohibi qonun yoshligidan boshlab davlat ishlari bo’yicha foydali mashqlar qilib yurishga, davlat ishlarining to’g’ri va noto’g’riligi haqida mulohaza yuritishga o’rgangan bo’lsa, u holda vaqti-vaqti bilan o’zi qonun ustidan nazorat o’rnatishi hamda avvallari shug’ullangan va hozir ham davom ettirayotgan mashg’ulotlariga sabot va qunt bilan qarashi zarurligini tushuntiradi”²⁵⁴.

Forobiyning ushbu asarida Aflotun, Yevklid, Ptolemey, Porfiriy kabi olimlarning qo’lyozmalaridagi manbalardan foydalanar ekan, ayrim qismlari

²⁵² Aflotun. Qonunlar. Tarjimon Urfon Otajon. – T.: YAngi asr avlodi. 2008. – B. 161.

²⁵³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. – B. 20.

²⁵⁴ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. – B. 36.

rivojlantirilib, sharhlanib, keyingi avlodlarga uning ahamiyati haqidagi fikrlari tushuntirilgan holda bayon etib borilgan. Boshqa bir joyda muallif shunday deb yozadi, “hokimlar o‘rtasida tabiiy tartibni o‘rnata olmagan qonun chiqaruvchi ko‘p o‘tmay masxara bo‘ladi. Va nihoyat, uning ishlari tushunarsiz bo‘lib, chiqargan qonun va u bilan shaharning o‘zi ham inqirozga yuz tutishi mumkin”²⁵⁵.

Asarda davlat boshqaruvida hokimlar faoliyatiga ham e‘tibor berilganligi va ushbu me‘yorlar ommaviy bog‘lanishlar yordamida keng targ‘ib etilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Davlat boshqaruvining turli xil usullari va ular haqidagi ma‘lumotlarni ommaga yetkazish zarurligi yuzasidan aytilgan fikrlar asarda bayon etilgan manbalarga hamohang tarzda rivojlanib boradi. Masalan, “Fozillar shahrining birinchi boshlig‘i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo‘lib, u tabiatan o‘n ikkita xislat-fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarur.

Fozillar shahri hokimi birinchidan, to‘rt muchchasi sog‘-so‘lim bo‘lib, o‘ziga yuklangan fazilatlarni bajarishida biror a‘zosidan nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog‘-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim. Ikkinchidan, hokim tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur. Uchinchidan, u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarini xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur. To‘rtinchidan, u zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur. Beshinchidan, o‘z fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur. Oltinchidan, u (ustozlardan) ta‘lim olishga, bilim, ma‘rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish, o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi zarur. Yettinchidan, taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo‘lmasligi, aksincha, o‘zini idora qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi (qimor yoki boshqa) o‘yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi zarur. Sakkizinchidan, u haq-haqiqatni, odil, haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi zarur. To‘qqizinchidan, u o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli

²⁵⁵ O‘sha joyda.

odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur. O'ninchidan, bu dunyo mollariga dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur. O'n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, birinchi bo'lib adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni boshqalarga ham ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga yo'l qo'ymasligi zarur. Mana shu barcha xislatlarning bir odamda jamlanishi amrimahol, zero bunday tug'ma fazilatlar sohibi bo'lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Mabodo fozillar shahrida barkamol inson topilib qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi yoki beshtasi kamol topganida ham u aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi"²⁵⁶. Muallif sohibi qonunning xislatlarini sanar ekan, o'n ikkita xislatga ega bo'lishi zarurligini aytadi, yana o'zi bunga fikr bildiradiki, talab qilinayotgan o'n ikkita fazilatning bir kishida jamlanishi amri mahol ekan. Haqiqatdan ham bu fikrlar bugungi kun uchun ham juda dolzarb masaladir.

Abu Nasr Forobiy katta ilmiy va amaliy tajribani umumlashtirgan, keng miqyosdagi axloqiy va huquqiy masalalarni o'rtaga tashlagan holda, e'tiborini birinchi o'rinda qonun ijrosiga qaratgan. Uning ta'kidlashicha, "sohibi qonun mamlakat aholisini boshqaruv silsilasidagi qonunlarga rioya qilishlarini va bo'ysunishlarini ta'minlay olsagina, a'lo darajadagi davlat tuzumi bo'lishi mumkin". Qonunga rioya qilish, eng avvalo, uning borligi va undan ko'pchilik xabardor bo'lishiga bog'liq. Bu esa targ'ibot-tashviqotga, ya'ni kommunikatsiya tizimining qanday tashkil etilganligiga bog'liqdir. Qachonki qonunlar yaratilsa, ularga rioya qilish ta'minlansa, davlat va jamiyat o'rtasida huquqiy madaniyat shakllanadi. Markaziy Osiyo hududida katta bir imperiyani boshqargan sohibqiron nomini olgan, huquqiy tadbirlari bilan butun jahonga tanilgan, buyuk siymo Amir Temur "davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va

²⁵⁶ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Yangi asr avlodi. 2016. – B. 41.

maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat, har biri o‘z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo‘lib, undan ortig‘iga da‘vogarlik qila olmadim”²⁵⁷, deydi. Sohibqironning mamlakatni boshqarish siyosati juda samarali bo‘lgan va u “Kuch – adolatdadir” shiori ostida o‘z g‘oyalarini amalga oshirgan. Natijada yirik davlat yaratgan. Saltanatni mustahkamlashda tuzukka katta e‘tibor berilib, ommaviy axborotdan unumli foydalanilgan. Uning tuzuklarida, “dono vazir shulki, saltanat korxonasining ishlarini eng to‘g‘ri chorayu tadbirlar qo‘llab, yaxshi anglagan holda amalga oshirib, davlatni tartib-intizomga keltiradi”²⁵⁸, deya baralla xitob qiladi.

Ayni bugungi demokratik davlat qurilishi rivojlanayotgan bir davrda qonun birinchi o‘rinda turishi va u jismoniy kuch ishlatilishiga asoslanmasligi zarurligi, uni xalqqa tushuntirishdan iborat ekanligi samarali siyosiy kommunikatsiya jarayonlarini rivojlantirish, ma‘naviy, tarbiyaviy, axloqiy kuchga ega bo‘lishi bilan ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, siyosiy kommunikatsiya turli ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida siyosat va boshqaruvning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlaydi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va yangilanishlarning tub mohiyatini anglab yetish, ularni yanada chuqurroq o‘rganish siyosiy kommunikatsiyani joriy etishni taqozo etmoqda.

4.2. Jamiyat siyosiy makonida axborot - kommunikatsiya boshqaruv jarayonlari

Mamlakatimizda zamonaviy demokratik jamiyat qaror topayotgani va izchil rivojlanayotgani aholining hayot darajasi va sifatining yuksalib borishiga zamin bo‘layotgan iqtisodiyotimizning barqaror sur‘atlar bilan o‘sayotganidan, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy obro‘-e‘tibori tobora ortib borayotganidan darak beradi. Har qanday davlatda qonun ustuvorligi, uning joylardagi ijrosi, qonun ijodkorligi faoliyatning tizimli va sifatli tashkil etilishi davlat siyosatining to‘g‘ri olib borilishi bilan baholanadi. Tolkott Parsons ta‘kidlaydiki,

²⁵⁷ Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU. 1996. – B. 69.

²⁵⁸ O‘sha joyda. – B.91.

“Siyosatshunoslikning aksariyat vakillari boshqa ta’rifni tanlashlarini va bu yerda hokimiyat misolini ko‘rishlarini yaxshi bilaman, lekin men o‘z ta’rifimga sodiq holda, undan kelib chiqadigan oqibatlarini o‘rganish niyatidaman. Men qonuniylikni hokimiyat xususiyatlari orasida ikkinchi o‘ringa qo‘yaman. Bu, albatta, mening hokimiyatni “ramziy” deb tushunishimdan kelib chiqadi, u jamiyatning samaradorligi uchun haqiqatan ham muhim narsaga, ya’ni itoatkorlikka almashtirilganda, sotib oluvchiga hech qanday foyda keltirmaydi, ya’ni majburiyatni bajaruvchi shaxs uchun “moddiy qiymat”i yo‘q”²⁵⁹, deyiladi, muallifning fikrlarida o‘ziga xoslikni ko‘rish mumkin, ya’ni hokimiyat to‘g‘risida gapirilganda ikkala mezonni birlashtirgan holda hokimiyatga egalik qilish va undan foydalanishning qonuniyligi shubha ostiga olinganida itoatkorlikka erishish uchun tobora kuchayib borayotgan vositalardan foydalanish zarurati tug‘ilishi hamda bunday vositalarning samarali bo‘lishi bilan birgalikda ob‘yektlarning maxsus holatiga yaxshiroq moslashishi kerakligi qonunning samaradorligi omili sifatida asta-sekin ahamiyatsiz bo‘lib qolishi ham inobatga olinishini aytadi.

Siyosiy qo‘llab-quvvatlash mandati umumlashtirilgan taqdirda muayyan qarorlar evaziga, saylovlar orqali o‘rnatiladigan hokimiyat va ta’sirning tenglashtirilishi tufayli, konstitutsiya doirasida hukumat darajasida ko‘rinadigan harakatga mos keladigan jarayonni amalga oshirish vositasiga aylanadi. Professor M.A Vasilik va dotsent M.S Vershininlar aytganidek, “qabul qilingan mas‘uliyatni kundalik vazifalarga qaratilgan ma‘muriy javobgarlikdan farqini ta’kidlab, boshqaruv javobgarligi deb atash qonuniy bo‘lishi mumkin”²⁶⁰ deyiladi, yuqoridagi manbalardan ko‘rinadiki, davlat va jamiyat taraqqiyotida siyosiy kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish dolzrb masalaga aylantirilishi zarur.

Ingliz olimi Djon Milton “Platon va uning maktabiga borib taqaladigan davlat nazorati va taqiqlash tizimini oqilona erkinlik talabiga qarama-qarshi qo‘yadi. U boshqaruv, fikr va ifodadagi bir xillikka nafaqat erishib bo‘lmaydigan, balki umuman istalmagan narsa sifatida e’tiroz bildiradi va oqilona, ammo erkin tartibga solinadigan

²⁵⁹Парсонс Т. О понятии «политическая власть». <http://read.virmk.ru/p/Parsons.htm>.

²⁶⁰ Vasilik M.A., Vershinin M.S Pechataetsya po: Politologiya: xrestomatiya / – M.: Gardariki. 2000. – S. 843.

xilma-xillik asosida shaxsiy va milliy farovonlik idealini loyihalashtirish kerak”²⁶¹, degan fikrni keltiradi. Erkinlik, Djon Milton siyosiy falsafasining asosiy mavzusiga aylangan edi. Erkinlikni kafolatlovchi siyosiy tizim sifatida, hokimiyatning xalqqa tegishli bo‘lishi kerakligini aytadi, u xalq tomonidan berilgan hokimiyatni shakllantirishga xizmat qiladigan har qanday tashkilotni qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanligini takidlaydi.

Boshqaruv tizimida siyosat markaziy o‘rinda va davlat yagona siyosiy tashkilot sifatida faoliyat yuritir ekan, hokimiyat davlat suverenitetga ega bo‘lgan barcha hokimiyat organlari ustidan ustunlikni egallaydi, jamiyatning bunday siyosiy tizimini muvofiqlashtirish jarayonida, axborot siyosiy kommunikatsiya katta ahamiyatga ega.

Rossiyalik olim K.V. Simonovning ta‘kidlashicha, “yirik kompaniyalar siyosiy vaziyatni shakllantirishda faol ishtirok etadilar. Demak, ular siyosiy elita bilan ijro hokimiyati darajasida o‘z manfaatlarini lobbi qilish orqali, muxolifat bilan ham hamkorlik qilib, qonun hujjatlarini parlament orqali tezroq qabul qilish ustida ishlay oladilar”²⁶², deydi. Bundan kelib chiqadiki, davlat siyosiy tizimi jamiyatning siyosiy, tarkibiy, hududiy shakllanishi sifatidagi o‘ziga xos, alohida siyosiy jarayonlarning eng muhim elementi hisoblanib, o‘z vazifalarini siyosiy kommunikatsiya asosida boshqa ijtimoiy institutlar, partiyalar va jamoat tashkilotlari, mahalliy hokimiyat organlari bilan o‘zaro hamkorlikda bajaradi.

Ko‘p tarmoqli plyuralistik jamiyat turli xil manfaatlarni keltirib chiqaradi, ularning kommunikatorlarining mazmuni va ijtimoiy mavqei yangi bo‘lib, bu hukumat tuzilmalari va manfaatlar guruhleri o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish muammosini siyosatning amaliy sohasiga o‘tkazadi va ijtimoiy rivojlanishning muhim siyosiy omiliga aylanadi.

Ushbu yondashuv bilan bog‘liq holda, siyosiy tizimni amerikalik siyosatshunos Gabriel Almondning ta‘riflashicha, “Siyosiy tizimda huquqiy me‘yorlarni tartibga solish, (parlamentlar, ijro etuvchi va ma‘muriy organlar, sudlar, byurokratiya va boshqalar kabi) va maqomlar (fuqarolar va guruhlar) va agentlarning o‘ziga xos

²⁶¹ Milton J. Parts from Christian Doctrine. The Norton Anthology of English Literature, rejim dostupa: <http://www.datmouth.edu/milton>.

²⁶² Симонов К.В. Политический анализ. – М.: Логос. 2002. – С. 31.

jihatlari, ularning amaliyoti va faoliyati turlari hamda ular o'rtasidagi aloqalar tizimning yanada aniq talqini, hamda modeliga partiyalar, guruh birlashmalari, fuqarolarning faoliyatini birlashtirishga imkon berdi.

Bunda Gabriel siyosiy tizimning elementlari sifatida uchta guruh funktsiyalarini aniqladi:

- fuqarolarni ijtimoiylashtirish, siyosiy ishtirokchilarni jalb qilish va jamoatchilik bilan aloqa qilish vazifalarini o'z ichiga olgan tizim funktsiyalari;

- jarayon funktsiyalari, ular artikulyatsiya, umumlashtirish, qarorlar qabul qilish va normalarning qo'llanilishi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi;

- siyosiy munosabatlarni tartibga solish, resurslarni taqsimlash, jamoatchilik fikriga javob berish, davlat maqsadlarini amalga oshirish uchun inson va boshqa resurslarni safarbar qilish maqsadlarini o'z ichiga olgan siyosiy masalalar funktsiyalari"²⁶³dir.

Keyinchalik shunga o'xshash g'oyalarni madaniy yondashuv vakillari Rozenbaum U., Yelazar D., Devin D, va siyosiy tizimni siyosiy madaniyatning moddiy timsoli deb hisoblagan boshqa olimlar qabul qildilar va rivojlantirdilar.

Devid Istonning aytadiki, siyosiy tizim bu "qadriyatlar jamiyatga avtoritar tarzda olib kelinadigan o'zaro ta'sirlar to'plamidir, bu siyosiy tizimni u bilan o'zaro ta'sir qiluvchi boshqa tizimlardan ajratib turadigan narsadir"²⁶⁴ deydi. Siyosatning bunday talqini nafaqat uning siyosiy tizimning nufuzli xususiyatini ta'kidlash, aynan o'sha tizimning sifat jihatidan ishonchliligini saqlab qolish qobiliyati sifatida tan olinishi bilan izohlanadi. D. Iston "siyosiy hayotni tizimli tahlil qilish, siyosiy jarayonlarni doimiy va o'zaro bog'liq xatti-harakatlar oqimi sifatida talqin qilish" ga asoslanish kerak²⁶⁵, degan xulosaga keladi, aslida siyosiy tizimning yana bir xususiyati axborotni o'zgartirish, uni kanaldan - kanalga o'tkazish jarayonidir. Hukumatning nufuzli vakolatlari nafaqat jamiyatda qadriyatlarni taqsimlash, balki jamoatchilik ko'pchilikni ushbu qadriyatlarni qabul qilishga undash imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, siyosiy tizim

²⁶³ Алмонд Г. Сравнительная политология сегодня: мировой обзор / Г. Алмонд, Дж. Б. Пауэлл, К. Стром, Р. Далтон. – М.: Аспект Пресс. 2002. – С. 537.

²⁶⁴ Easton D. Categories of Policy Analysis System // Political Science: tutorial / comp. M. A. Vasilik, M. S. Vershinin. – М.: Gardariki, 2000. – P. 319.

²⁶⁵ Истон Д. Новая революция в политической науке // Соц. – полит. журн. – 1993. – № 8. – С. 115.

barqarorligini saqlashning shartiga aylanadi, davlatning jamiyat siyosiy tizimidagi alohida oʻrni va roʻli uning oʻz qoʻlida ulkan moddiy va moliyaviy resurslarni jamlashi, maxsus nazorat va majburlash apparatining mavjudligi bilan belgilanadi.

Gabriel Almond oʻzining siyosiy tizim modelini yaratib, siyosiy voqelikni tahlil qilishda makro va mikro yondashuvlarni uygʻunlashtirishga harakat qiladi. Veber esa siyosatni nafaqat rahbarlikning mustaqil faoliyati, balki maʼlum bir hududda qonuniy jismoniy majburiy usullar boʻyicha davlat monopoliyasini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlgan maʼlum bir soha sifatida tushuntirishlar olib borish kerakligi va Parsonning siyosiy tizimning bir qismi sifatidagi taʼrifidan boshlab, ijtimoiy shakldagi Almond siyosiy tizimni nisbatan mustaqil va jamiyatning boshqa qismlaridan ajratilgan deb tan olishi asosida oʻz konsepsiyasini ishlab chiqadi.

Davlat jamiyat siyosiy tizimining turli elementlari orasida keng huquqiy vositalar tizimiga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Ular unga iqtisodiyotning koʻplab tarmoqlarini tezda boshqarish va barcha ijtimoiy munosabatlarga taʼsir qilish imkoniyatini beradi. Davlat vakolatlariga ega boʻlgan turli davlat organlari oʻz vakolatlari doirasida nafaqat normativ-huquqiy va individual hujjatlar ishlab chiqardi, balki ularning bajarilishini ham taʼminlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati - islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi qonun ijodkorligi jarayoni bilan bevosita bogʻliqdir. Qonun ustuvorligini taʼminlashga intilayotgan har qanday mamlakat oʻzining siyosiy tizimini muntazam takomillashtirib boradi. Oʻtgan davr mobaynida qonunchilik bazasini tizimlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni siyosiy jihatdan tartibga solish barqarorligini taʼminlash, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish borasida muayyan tizimlar ishlab chiqilayotganligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Tashkiliy jihatdan toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiluvchi qonunlarni qabul qilishning samarali mexanizmlarini joriy etishda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni imkon qadar qisqartirgan holda, aniq sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimlash, kodifikatsiyalash sohasida ijobiy samara berishi natijasida koʻzlangan maqsadlarga toʻliq erishishga imkon yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 mayda qabul qilgan “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu yo‘nalishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, norma ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, huquqni qo‘llash amaliyotini birxillashtirish, aholining siyosiy huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish borasida adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirishda muhim tashkiliy-huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ma‘lumki, har qanday jamiyatda qonun ustuvor bo‘lishi bilan birga qabul qilinadigan barcha normativ-huquqiy hujjatlar qonun talablariga zid bo‘lmasligi, qonunda belgilanganidan boshqacha talqin qilinmaslik kerakligi mustahkamlab qo‘yilgan. Ma‘muriy usulda tartibga solish hamda jismoniy va yuridik shaxslar uchun javobgarlikni belgilovchi tashkiliy huquqiy normalarning qonunosti hujjatlarida aks etilishi amalga oshirilayotgan islohotlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatish bilan birgalikda qonunchilikka ishonchsizlik keltirib chiqaradi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimizda inson manfaatlariga, uning siyosiy-huquq va asosiy erkinliklariga oliy qadriyat sifatida e‘zozlanadi.

Masalan, qonunosti hujjatida chet el investoriga nisbatan qonunda nazarda tutilmagan javobgarlikning belgilanishi yoki bo‘lmasa unga qo‘shimcha majburiyat yuklanishi, uning mamlakatimiz qonunchiligiga nisbatan ishonchsizligiga sabab bo‘ladi. Shu sababli xorijiy hamkor qonun bilan o‘zining huquq va majburiyatlarini aniq belgilab qo‘yilgani holda, ertaga qonunosti hujjati bilan muayyan holatda javobgar bo‘lib qolishdan qo‘rquv hissi paydo bo‘ladi. Shunday ekan, “huquqiy axborot tegishli manbalarda to‘planadi va siyosiy sohadagi harakat yo‘nalishini belgilaydi va ishonchlilik, to‘liqlik, ochiqlik, tushunish kabi xususiyatlar bilan tavsiflanishi kerak”²⁶⁶ deyiladi. Albatta, mazkur talablardan kelib chiqib, parlament tomonidan qonunlarni qabul qilishda qonun ijodkorligi faoliyatini zamonaviy siyosiy uslublarini joriy etish, islohotlar jarayonida samarali, ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri

²⁶⁶Романова В. Юридическая ответственность государства // дис.канд.юрид.наук. – Казан. 2007. – С. 29.

amal qiluvchi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Davlat taraqqiyotining yangi davri, eng avvalo, davlat boshqaruvi tizimini bugungi va ertangi kun talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirishni taqozo etadi. 2022–2026 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor, eng avvalo, davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilishga qaratiladi hamda “kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasi qoidalarini to‘liq o‘zida aks ettiradi.

“Siyosiy hokimiyat jamiyat hayotining barcha jabhalarida o‘z ta’sirini kengaytirganda, ayni paytda ulardagi resurslarga tayanadi. Ayni paytda asosiy Qonun talablarini to‘liq amalga oshirish borasidagi katta vazifalar turganligini, ya’ni “eng avvalo, odamlarimiz islohotlar samarasini kelajakda emas, balki bugun o‘z hayotida his etishlari zarur”²⁶⁷ deya o‘z fikrlarini bildiradi.

Fuqarolik jamiyati – bu ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda faol qatnashadigan, davlat va uning faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘ymaydigan huquqiy makon hukmron bo‘lgan, fuqarolar va davlat hamkorligi asosida ishlaydigan ongli individlar jamiyatidir.

Demokratik davlat fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotimizni bozor munosabatlariga o‘tkazish va rivojlangan davlatlar qatoridan munosib joy olish yo‘lida erishgan marralarimiz jahon ahlini haqli ravishda hayratda qoldirmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti dunyo ahlida qiziqish uyg‘otmoqda. Shu o‘rinda, Hindistonlik olim Rajan Madxu o‘z fikrlarini shunday ifodalaydi, “O‘zbekiston qisqa vaqt mobaynida iqtisodiy o‘sish sur‘atlari bo‘yicha dunyoning ko‘p mamlakatlarini ortda qoldirib, rivojlanishda katta yutuqlarga erishdi. Mamlakatda xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratilgan, to‘qimachilik, axborot texnologiyalari, oziq-ovqat maxsulotlarini qayta ishlash, mineral o‘g‘itlarni qazib olish va qayta ishlash kabi sohalarda ishga solinmagan ulkan potensial mavjud”²⁶⁸.

²⁶⁷Синчук, Ю. В. Лекции по политологии: учеб. пособие / ЙУ. В. Синчук. – М.: ЙУридический институт МИИТа, 2015. – С. 214.

²⁶⁸ Radjan Madxu. Hindiston va MDH. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: Adolat. 2017. – B. 39.

Huquqiy davlatda fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti – bu qonunlarning adolatli tarzda bajarilishi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan va fuqarolarning har tomonlama himoya qilinishini ta‘minlashga asoslangan.

2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, joylarda ishlarni tashkil etish, birinchi navbatda, jamoatchilik oldida hisobot berish shakllari va uslublarini takomillashtirish, aholining hayot sifati va darajasini yuksaltirish, davlat organlari rahbarlarining mas‘uliyatsizligi holatlarining yuzaga kelishiga qat‘iy ravishda barham berishdan iborat ekanligi ta‘kidlanadi.

Aholining murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Xalqning manfaatlarini ta‘minlash hayotiy muammo va ehtiyojlarini o‘rganish asnosida hal etishga qaratilgan ustuvor maqsadlarga erishildi. Bugungi zamonaviy jamiyat qurilishining milliy mentalitetga xos tarzda sharqona rivojlanishida, huquqni tashkil etilishida axborot-huquqiy kommunikatsiyaning o‘rni alohida ahamiyatga egadir. Qonunni ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish o‘z o‘rnida axborot-huquqiy kommunikatsiya orqali huquqiy-nazariy tahlil qilish jarayonlarini takomillashtirish, qo‘llanilgan huquqiy vositalarning to‘g‘ri ta‘rifi, yagona ta‘riflar tizimini yaratish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Davlat va jamiyat boshqaruvida axborot-huquqiy kommunikatsiya konsepsiyasi masalalarining mohiyati ilmiy nuqtai nazardan o‘rganilganda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida axborotlarni tahlil qilish orqali jamiyat hayotida ro‘y berayotgan yangilanishlar, rivojlanish tamoyillari, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan sa‘y-harakatlarda namoyon bo‘ladi.

Mamlakatda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida islohotlarni amalga oshirish, natijada umume‘tirof etilgan xalqaro huquq normalariga asoslangan azaliy qadriyatlarimizga xos xususiyatlar aks ettirilgan milliy qonunchilikka asos solingan. Buning uchun, albatta, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishning o‘zi yetarli emas. Shu bilan bir qatorda ularni keng ommaga yetkazish zarur bo‘lgan hollarda ko‘proq tashkiliy-huquqiy yo‘nalishdagi ommaviy aloqalar

yordamida amalga oshiriladi. Tashkiliy-huquqiy tizimning yetakchi vazifasi huquqiy meʼyorlarni xalqqa tushuntirish, yaʼni samarali axborot-huquqiy kommunikatsiyaning maxsus tizimlashtirilgan boshqaruvi orqali amalga oshirilishidir.

Zamonaviy taraqqiyot yoʻlidan borayotgan xalqlar taqdiri uchun muayyan rivojlanish bosqichiga xos ustuvor tamoyillar hayotiy ehtiyojga aylandi.

Xalqning milliy salohiyatini yanada yuksak choʻqqilarga koʻtarish, jamiyatning barcha sohalarida tub islohotlar va ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish zarur. Bugun butun dunyo eʼtirof etayotgan taraqqiyot modeli va rivojlanish tamoyillarining samarasi yaqqol namoyon boʻlmoqda. Jumladan, konstitutsiyaviy normalarning toʻgʻridan-toʻgʻri harakati, xalqaro huquq normalarining ustunligi, inson huquqlari ustuvorligi, qiyosiy huquqning intensivlashuvi ahamiyatlidir.

Davlatlar, xalqlar oʻrtasida huquqiy aloqalarning rivojlanishi, xalqaro tashkilotlar unifikatsiyalashuvi, huquqning globallasuvi va standartlashuvini rivojlantirishni ilgari suriladi.

Birinchi ustuvor yoʻnalish – davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish boʻlib, unda hokimiyatlar boʻlinishi konstitutsiyaviy prinsiplarining amaliyotga tatbiq etilishini yanada takomillashtirish, hokimiyatlar oʻrtasida oʻzaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini amalda taʼminlash, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari hamda nazorat vazifalari doirasini aniq belgilab berish lozim. Oʻzbekiston Prezidenti, Oliy Majlis (uning palatalari), Bosh vazir vakolatlari tizimiga, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalariga zaruriy oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish borasida qator takliflar bildirildi.

Har qanday demokratik va insonparvarlik darajasi uning insonga boʻlgan munosabati, inson huquq va erkinliklarining toʻliq himoya qilinishi bilan baholanadi. Shu nuqtai nazardan milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarni implementatsiya²⁶⁹ qilish jarayoni qonun ijodkorligi sohasi vakillari oldiga masʼuliyatli vazifalarni qoʻymoqda. Mazkur yoʻnalishda Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi, Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakili (Ombudsman), Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi

²⁶⁹ Implementatsiya – xalqaro huquqni amalga oshirish.

o'rtasida Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha memorandum va kelishuv bitimlari tuzilgan bo'lib, ular bilan birgalikda qo'shma tadbirlar tashkillashtirilib kelinmoqda.

Demokratik jamiyat qurish jarayonida kuchli jamiyatni tashkil etish yuksak siyosiy madaniyatsiz, fuqarolarning siyosiy faolligisiz yuzaga kelmaydi. Siyosiy madaniyat, shaxs siyosiy madaniyati kabi bilish, baholash, xulq-atvor va siyosiy faoliyatda namoyon bo'ladi. Nemis olimi Immanuel Kantning fikriga ko'ra, "huquqiy-fuqarolik jamiyati sifatida davlat tuzilishini butun insoniyat ongiga qandaydir yo'l bilan singdirish mumkin. Ammo erkinlikni aniq tasniflash va uni boshqalarniki bilan mutanosibligini ta'minlash, insoniyatning barcha sir-sinoatini ochib berish tabiatning eng oliy maqsadidir"²⁷⁰.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi shuni ifodalaydiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun yo'li bilan tartibga solinadi. Uning barcha ishtirokchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun huquqiy javobgarlikka tortiladilar.

Qonun ustuvorligi, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi. Uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi. Qonun fuqarolar huquqlarini himoya qiladi. Ularning bir-birlariga adolatli tarzda bo'lishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, jamiyat uchun kuchli qonunlar zarur.

Davlat boshqaruvi idoralarining barcha bo'g'inlari faoliyatini ko'rib chiqar ekanmiz, ular biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimiz yo'lida xizmat qilayaptimi, jamiyatimizni yanada demokratlashtirishda, yanada rivojlantirishda o'z vakolatlarini amalda bajara olayaptimi, degan savolga javob topish muhim. Vaholanki, samarasiz boshqaruv bo'g'inlari qanchalik ko'p bo'lsa, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lida qiyinchiliklar va to'siqlar shunchalik ko'p bo'lishi hech kimga sir emas.

Odamlarda qonunga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni tashkil etishdagi maqsadga erishish uchun siyosiy kommunikatsiya adolatlilik, fuqaroning huquq va erkinliklari,

²⁷⁰ Кант, Иммануэль Сочинения в шести томах. – М.: Мысль. 1966. (Филосов. наследие). Т.6. 1966. – С. 25.

oshkoralikning eng to'liq va izchil kafolatlariga asoslangan tashkiliy-huquqiy xususiyat kasb etadi.

Mamlakatda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma'naviy o'zgartirish sohasida keng ko'lamli islohotlarning qonuniy zamini yaratilgani, ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanishi va takomillashtirilishi fuqarolarda siyosiy madaniyatni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Immanuil Kant aytganidek "Ma'rifat - bu insonning ozchilik holatidan chiqishi, u o'z aybi bilan o'zini topadi. Voyaga yetmaganlik - bu o'z aqlini boshqa birovning ko'rsatmasiz ishlata olmaslikdir. O'z-o'zini yo'qotgan ozchilik - buning sabablaridan biri mulohaza yuritmaslik emas, balki uni boshqa birovning rahbarligisiz ishlatish uchun qat'iyat va jasorat yetishmasligidir. Saper audde! - o'z aqlingizni ishlatish uchun jasoratga ega bo'ling! - demak, bu ma'rifatparvarlik shiori"²⁷¹. Ushbu da'vatni ham siyosiy kommunikatsiya deyish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida zamonaviy jamiyat qurish insonlar hayotidagi muhim tarixiy voqea bo'lib, jamiyat rivojlanishi va davlat qurilishida yangi bosqichdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarni his ettirishdir.

Jamiyat va davlat qurilishi tizimida tubdan o'zgarishlarning ro'y berishi qonunchilikning rivojlanishiga va uning vazifalarini yangi sharoit talablariga moslashtirishga olib keldi. Bu borada fuqarolik huquqi zimmasiga katta vazifa yuklatilganligi, davlat mulkining hukmronlik holatidan voz kechish, jamiyatda mulkning barcha shakllari, jumladan, xususiy mulk huquqining joriy qilinishi zarur. Ular asosida bozor munosabatlarining tarkib topishi va rivojlanishi iqtisodiyotning boshqarish tizimida ma'muriy buyruqbozlik metodidan voz kechish hamda demokratik metod va shakllarni qo'llashga o'tish – bular yangi jamiyatning tabiatiga monand bo'ladi. Uning xususiyatlarini o'zida mukammal ifodalaydigan va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatadigan qoidalardan tashkil topgan yangi qonunlarning yaratilishida asos bo'lib xizmat qiladi.

²⁷¹ O'sha joyda.

Mamlakat hayotida yuz berayotgan tarixiy voqealar, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi tub o'zgarishlar va siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi olamshumul ahamiyat kasb etmoqda. Yangi jamiyat barpo etishning siyosiy asoslari mustahkam bo'lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'p bor isbotlangan haqiqatdir. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylangan O'zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim vujudga kelganligi xalqning huquqiy madaniyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Siyosiy tahlilchi Kamoliddin Rabbimov aytadiki, "Har bir jamiyatning siyosiy-psixologik holati bo'ladi. Demokratik jamiyatlarda odamlar siyosiy mafkuralarga ko'ra bo'linadi, o'nglar yoki so'llarga moyilligini doim anglaydi. O'zbekistonda-chi? 2016 yilga qadar o'ta yopiq bo'lgan bizning mamlakatimizda, siyosiy jarayonlar va ong mutlaq muzlatilgan edi. O'zbekiston tarixida, davlat, ya'ni hokimiyat – juda uzoq muddat xalqdan alohida korporatsiya sifatida ko'rildi. Ayniqsa, 2016 yilga qadar, hokimiyat jamiyat tafakkurini qo'rquv bilan boyitish qobiliyatini o'zining eng ustuvor vazifasi deb bildi. Barqarorlik shu usulda ta'minlandi. Natijada, ijtimoiy fikrda "xalq-hokimiyat" dixotomiyasi shakllandi va kristallashdi"²⁷², deydi. Bugungi kunda O'zbekistonda axborot erkinligi, haqida hamda siyosiy bilimlarni parvarishlash bo'yicha ko'pgina ishlar qilinishi kerakligi, jamiyatning vaziyatni o'ta sodda qoliqlar orqali emas, balki shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqib, O'zbekistonni haqiqatda demokratik davlatga aylantirish borasidagi qadamlar bilan o'lchash malakasini oshirib borishi zarurligi haqidagi fikrlari bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi muallif jarayonni to'liq ochib bera olganligini ko'ramiz.

Qonun ustuvorligi ta'minlangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etayotgan mamlakatda amalga oshayotgan ma'naviy sohadagi o'zgarishlar bu yo'nalishdagi islohotlarning xalq ma'naviyatini yuksaltirish, shuningdek asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog'liq sa'y-harakatlar bu borada ustuvor ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, xalqimizning tarixiy xotirasi, o'tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to'la-to'kis foydalanish imkoniyati

²⁷² Rabbimov K. Siyosiy tafakkur va o'zgarishlar. <https://kun.uz/news/2023/09/05/siyosiy-tafakkur-va-ozgarishlar>

yaratilganini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs, turli qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Bu esa davlatimiz siyosatining jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashariy qadriyatlar mazmuniga mosligini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbarining 2022 yildagi Murojaatnomasi tarixiy dalil va raqamlar, teran ilmiy xulosalarga asoslangan. Ma'ruzada Vatanimizning istiqloq tarixini, jamiyatimizning taraqqiyot bosqichlarini, bugungi kundagi ustuvor yo'nalishlar va vazifalarning mohiyati, mazmunini chuqur o'rganish haqida gap boradi. Ushbu milliy tajribani o'zga mamlakatlarda qo'llash jarayoni boshlangan hozirgi kundagi o'ziga xos zamonaviy imkoniyatlarni yanada yaqqolroq anglashda, hech shubhasiz, mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu ma'noda, xalqimiz tomonidan istiqloq yillarida bosib o'tilgan tarixiy yo'l, barcha sohalarda qo'lga kiritilgan ulkan yutuq va marralar mamlakatimizning barqaror taraqqiyot strategiyasini yaqqol aks ettiradi. Ushbu ma'ruzani har bir zamondoshimiz qalbi va ongiga singdirish bugungi ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy yo'nalishiga aylandi. Bu esa aholining turli qatlamlari, ayniqsa, yosh avlod tafakkurida mustaqil taraqqiyot davomida erishilgan natijalarni his qilib yashash, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish borasida barchamizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash" deb nomlangan uchinchi ustuvor yo'nalishida mamlakatimizda hozirga qadar olib borilgan muhim tadbirlarni e'tirof etgan holda, sohani rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining huquq va erkinliklarini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bunda davlat tomonidan ularni qo'llab-quvvatlashni qonuniy asosda yo'lga qo'yish singari muhim yo'nalishlarda qator yangi qonunlarni qabul qilish, mavjud qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni hayotning o'zi talab qilayotganini ta'kidladi. Professor Baxtiyor Omonovning aytadiki, "Islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, O'zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash jarayonlari jadallashgan,

deyishga asoslar paydo bo‘ladi. Maqsad yuqori iqtisodiy o‘shishga to‘la sharoit yaratish, demokratiyani kuchaytirish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish orqali xalqning farovonligini ta‘minlashdan iborat. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, «Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi». Dunyoda yangi O‘zbekiston vujudga kelgani tan olinmoqda. Yangi davlat, avvalambor, yangi imijga, yangi xalqaro obro‘ga va yangicha hurmatga ega bo‘lgan davlat deganidir. Ha, O‘zbekistonda butunlay yangicha iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-ma‘naviy, ilmiy-ma‘rifiy iqlim paydo bo‘ldi»²⁷³

Davlat boshqaruvining turli faoliyati jarayonida harakatlanadigan normativ hujjatlar qonuniy shakllanishning tashkiliy-huquqiy nazoratda tutib turuvchi funktsiyalar tizimi hisoblanadi. Davlatning turli tarmoqlari doimiy ravishda o‘zgarib rivojlanib borar ekan, bu jarayonda axboriy-huquqiy kommunikatsiya barcha davrlarda o‘ziga xos maqomga ega bo‘ladi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda demokratlashtirish va inson huquqlari tushunchasi fuqarolarning davlat va jamiyatdagi ishtiroki, siyosiy partiyalar, nohukumat tashkilotlar faoliyatida, hayotning barcha jabhalari, shu jumladan, inson huquqlari sohasidagi organlar va mansabdor shaxslar faoliyatining ijtimoiy nazoratini hamkorlikda amalga oshirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarining faollashuvida o‘z aksini topmoqda.

Navbatdagi muhim vazifa – bu qonunlar vakolatlaridan samarali foydalanishdir. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi samarali ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish bugungi kun talabi. Ayniqsa, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish alohida ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishdagi sheriklikdan tomonlar ham, davlat va jamiyat ham, fuqarolarimiz ham birdek manfaatdordir.

Jamiyatni yangilash sharoitida mahallada va fuqarolar yig‘ini faoliyatidagi o‘zgarishlarning mohiyati davlatning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Oilani mustahkamlash – jamiyat barqarorligini saqlashning asosi hisoblanadi. Jamiyat totuvligi va inson tarbiyasining tayanchi bu mahalladir. Mahalla – fuqarolik

²⁷³ Omonov B. Islohotlar davrida yashayapmiz. O‘zA. <https://uza.uz/uz/posts/islohotlar-davrida-yashayapmiz>. 10.10.2023

jamiyatining asosi. Mahallaning oilaviy biznesni rivojlantirishdagi o‘rni ahamiyatli. Qonunning shaxsga yetib borishi uchun siyosiy kommunikatsiya yaxshi tashkillashtirilgan va tizimlashgan bo‘lishi zarur.

Shundan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda dunyoda va O‘zbekistonda joriy etilgan siyosiy tizim uzoq asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelganligi bilan ahamiyatlidir.

4.3. Zamonaviy axborot jamiyatida siyosiy kommunikatsiya.

Siyosiy tuzilmalar siyosiy institutlar o‘rtasida aloqa o‘rnatuvchi axborot-kommunikatsiya tizimini o‘z ichiga oladi. Ushbu tizimning elementlariga hukumatga ma’lumot uzatish kanallari (ishni ochiq majlislarda, tergov komissiyalarida, manfaatdor guruhlar bilan maxfiy maslahatlashuvlarda va boshqalarda ko‘rish tartibi), shuningdek, televideniye, radio, gazetalar, ommaviy axborot vositalari kiradi.

Siyosiy kommunikatsiya tizimining ahamiyati juda katta, chunki odamlar ma’lum miqdordagi bilim va ma’lumotlarga ega bo‘lgan taqdirdagina siyosiy harakatlarni baholashga qodir bo‘ladi. Demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari mustaqil bo‘lsa, avtoritar va totalitar jamiyatlarda ular butunlay hukmron elitaga bo‘ysunadi. Siyosat yuqorida aytib o‘tilganidek, ijtimoiy hayotning turli sohalariga kirib boradi, muayyan muammolarni hal etishga aloqador bo‘ladi. Ushbu inklyuzivlik xususiyati davlat hokimiyati organlari tomonidan siyosiy ahamiyatga ega deb hisoblangan muammolar doirasiga bog‘liq. Zero, F.Brod yozishicha, “hech narsani o‘z tabiatiga ko‘ra siyosiyashtirish shart emas va hamma narsa shunday bo‘lishi mumkin”²⁷⁴, shu o‘rinda N.Freyzerning fikricha, “ijtimoiyni siyosiyashtirish murakkab jamiyatlarda uzviy jarayondir”ning²⁷⁵, deyiladi.

Siyosiy kommunikatsiya – bu ma’lumot va xabarlarini yetkazish jarayoni. Amerikalik siyosatshunos G.Lassuyell aloqa harakatini quyidagicha ta’riflagan: “Kim? Nima deding? Kimga? Qanday natija bilan? Bu funktsiya orqali siyosiy

²⁷⁴ Браунд П. Политология. – Париж. 1972. – С. 11.

²⁷⁵ Freedman J.O. Idealism and Liberal Education. – Ann Arbor: Univ. of Michigan press, 1996. – P. 62.

tizimning turli tuzilmalari o'rtasidagi aloqa ta'minlanadi"²⁷⁶. Siyosatni boshqarish va amalga oshirish, odatda, axborotning vertikal oqimini xalqdan hukumatga va hukumatdan xalqqa yetkazishni talab qiladigan tizim hisoblanib, darajalar va hokimiyatlar o'rtasida gorizontaal axborot oqimi ham zarur degan fikrni bildiradi muallif. Aloqa jarayoni tufayli hokimiyatni egallash uchun stixiyali harakatlar hamda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum bir shakliga aylantirish orqali hokimiyatga hurmat shakllanishi shu tariqa davlatchilik vujudga kelishi to'g'risida keng fikr bildiradi. "Normativ ijodkorlik natijasida fuqarolarning jamiyatdagi xulq-atvorini belgilovchi qonunlar ishlab chiqiladi. Odatda, qoida yaratish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi: siyosatni yuritish va umumiy maqsadlarni tanlash, maqsadlarga erishish uchun yechimlar va maxsus qoidalarni ishlab chiqish. Bu funktsiyani qonun chiqaruvchi, shuningdek, ijro etuvchi va sud organlari amalga oshiradilar.

Davlat siyosati qonunlar qabul qilish bilan tugamaydi. Siyosat va qarorlar qabul qilishning muhim jihati "majburiy ta'minlash" funktsiyasi bo'lib, uni nafaqat ijro etuvchi organlar va ma'muriy tizim boshqaruvida, ko'pincha qonun chiqaruvchi va huquqiy tuzilmalar ham bajaradilar. Amalga oshirish deganda qonunlarni sharhlash va ma'lum bir qonun buzilganligini aniqlash va tegishli jazolarni qo'llash harakati nazarda tutiladi. Huquqbuzarliklar bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish, birinchi navbatda, sud hokimiyatining mas'uliyati hisoblanadi, shu bilan bir qatorda qaramay, ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat sud jarayonlarida muhim rol o'ynashi"²⁷⁷ amaliyotda o'z isbotini topgan.

Axborot jamiyati siyosatida kommunikatsiya ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, tarmoqlar ulanishi natijasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu esa globallashtirish davrida siyosiy kommunikatsiya tizimlari tadqiqotchilar e'tiborini tarmoq makonida sodir bo'layotgan

²⁷⁶Лассуэлл Г.Д. Политика: кто достигает чего, когда и как? // Шикагская школа политической мысли (1920–1940-е годы): сборник переводов под ред. Д.В. Ефременко; пер. с англ. В.Г. Николаева. – Москва: Институт научной информации по общественным наукам РАН, 2023. – С. 77.

²⁷⁷ Internet Usage Statistics. The Internet Big Picture. World Internet Users and 2017 Population Stats. URL: <http://www.internetworldstats.com/stats.html>.

jarayonlarga tortishi tobora ortib bormoqda. Olimlar mustaqil virtual siyosiy aloqa makonining paydo bo'lishi va tarmoq siyosiy kommunikatsiyasining rivojlanishi haqida o'z gipotezalarini gapiradilar, M.S. Vershinin "axborotga egalik qilish va uni tasarruf etish ham davlat, ham xalqaro miqyosda eng muhim siyosiy vositaga aylangan"²⁷⁸gini qayd etadi. Ushbu ma'lumotlarning asosiy manbai zamonaviy jamiyatning siyosiy instituti sifatida qaraladigan ommaviy axborot vositalari bo'lib qolmoqda. "Tarmoq makonida ommaviy axborot vositalari juda beqaror hodisadir"²⁷⁹. Texnologiyaning rivojlanishi bugungi kunda professional ommaviy axborot vositalari bilan raqobatlashadigan ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishiga yordam beradi. Tarmoqlar o'rtasidagi yaqin munosabatlar, gipertexnologiya tufayli tarmoqning voqeligi va interaktivligi internet-media sektori chegaralarining xiralashishiga va aloqa xarakterining o'zgarishiga olib keladi. Zamonaviy innovatsion texnologiyaning rivojlanish tamoyillari internet-media haqidagi mavjud tushunchani qayta ko'rib chiqish, ham ularning internetdagi siyosiy muloqot jarayonini o'rganishni taqozo etadi.

Masalan, kommunikatsiya fanining asoschilaridan biri Jey Blumler siyosiy kommunikatsiya yo'nalishini "kommunikatsiya fanining istiqbolli tarmog'i"²⁸⁰, deb ta'riflaydi. Siyosiy kommunikatsiyani o'rganishda Garold Lassvellning asarlari fundamental va tizimli manbalarni beradi, bu esa siyosiy kommunikatsiya sohasidagi tadqiqotlar qat'iy ilmiy maqomga da'vo qilishi mumkinligini anglatadi.

Siyosiy axborot ijtimoiy axborot sifatida hamisha aholining katta qiziqishiga sabab bo'lib kelgan. Shu bois barcha ijtimoiy-ommabop tahririyatlar o'z sahifalarida yangi qabul qilingan huquqiy hujjatlarning sharhlari, keng jamoatchilikning savollariga siyosatshunoslar tomonidan berilgan javoblar, davlat va jamiyat boshqaruvi to'g'risidagi axborotlar, davlatlararo siyosiy uchrashuvlarga asoslangan tahliliy

²⁷⁸ Vershinin M. The 15 Most Popular News Websites.URL: <http://www.ebizmba.com/articles/news-websites>.

²⁷⁹ Федеральные СМИ. http://www.mlg.ru/ratings/federal_media/. – М., 2016. ²⁷⁹ Freyzer N. Itoasiz amaliyotlar. – Minnesota universiteti matbuoti. 1989. – P. 12.

²⁸⁰Хубецова З. Ф. Политическая коммуникация: Теория, образование, опыт. – М.: СПб. 2017. – С. 59.

maqolalar, “siyosiy axborot kommunikatsiyalari” uchun maxsus joy ajratadilar²⁸¹. Ommaviy axborot vositalari shu yo‘l bilan ijtimoiy axborotning alohida turi bo‘lgan siyosiy axborotni tarqatadilar. Shu sababli rivojlanayotgan demokratik davlatlarda siyosiy kommunikatsiya tizimlariga OAVning e‘tibori nihoyatda muhim hisoblanadi.

Davlat boshqaruvining ochiqligi va oshkoraligini ta‘minlash ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda hujjatlarining xalq e‘tiboriga havola etilishi, ya‘ni OAVda yoritib borilishi davlat faoliyatining xalq bilan muloqotini belgilovchi asosiy unsurdir.

Qayta aloqa o‘rnatish imkoniyati bilan internetning inson hayotiga ta‘siri kuchayishi ommaviy kommunikatsiyalar uchun inqilobiy ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarning barchasi insoniyatning rivojlanishiga bog‘liq. O‘zbekiston bosma ommaviy axborot vositalarida 2021–2022 yillarda axborot-huquqiy islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlarning yoritilishi darajasi va sifatini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, gazetaning har bir 8049 ta soniga deyarli bittadan maqola to‘g‘ri keladi²⁸². Gazetxonlar tomonidan eng ko‘p o‘qiladigan maqolalar aynan davlat boshqaruvidagi yangiliklar va ularning tafsilotlari to‘g‘risida yoritilgan maqolalarni tashkil etadi. Bu siyosiy kommunikatsiyaning yaxshi yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi.

Jamiyatda aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi ishtiroki haqida so‘z yuritilganda, albatta, axborot erkinligini ta‘minlash zarur. Sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan xalqni shakllantirmasdan turib, bu masalalarga erishib bo‘lmaydi²⁸³. Shuningdek, demokratik jamiyatda matbuot juda muhim vazifani bajarishi alohida ahamiyatga ega. Biroq matbuot ma‘lum chegaradan o‘tmasligi, jumladan, fuqarolarning sha‘ni, qadr-qimmatini va huquqlariga daxl qilmasligi hamda maxfiy ma‘lumotlarni oshkor etmasligi lozim. Boshqa barcha masalalarda, deylik, ommani qiziqtiruvchi axborot va g‘oyalar haqida istalgan shaklda (kommunikatsiya kanallarida axborotlarni

²⁸¹ <https://t.me/huquqiyaxborot>. 6.05.2023.

²⁸² URL: <https://t.me/huquqiyaxborot>. 6.05.2023.

²⁸³ URL: <http://www.medialaw.ru/publications/books/wb-conc/15.html> // Evropa Kengashi Vazirlar Qo‘mitasi tomonidan ishtirokchi davlatlarga berilgan tavsiyalar № R (94)13. (Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994 yil 22 noyabr kuni vazirlar o‘rinbosarlarining 521-sessiyasida qabul qilingan).

yetkazish usullari nazarda tutilmoqda – M.S.) axborot yetkazish matbuotning burchidir”²⁸⁴.

Davlat va jamiyat boshqaruvi murakkab jarayon bo‘lib, uni tashkil etish, boshqarish bo‘yicha turli modellar, boshqaruv shakllari va yo‘llari ishlab chiqilgan. Insoniyat tomonidan ming yillar davomida “taraqqiyparvar davlat”, “komil jamiyat” barpo etish g‘oyasi ilgari surilgan. Shu asosda o‘tgan asrdan boshlab jahon amaliyotida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini tashkil etish amaliyoti bir necha davlatlar tajribasida qo‘llanilib, o‘z samarasini berdi. Bugun esa, o‘z suverenitetiga ega bo‘lgan ko‘pgina mamlakatlar uchun bunday yo‘l eng maqbul maqsadga aylandi. Natijada ko‘plab davlatlar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosida yuqori taraqqiyot sari odimlamoqda.

Siyosiy islohotlarning samarali kechishini bosqichma-bosqich ta‘minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish lozim. Demokratik jamiyatning ijtimoiy asoslaridan biri siyosiy institutlar, tashkilotlardir. Siyosiy jarayonlar takomillashuvida albatta xalqning ishtiroki zarur. Siyosiy institutlar faoliyati siyosiy kommunikatsiya shakllaridan foydalanishni taqozo etadi.

So‘z va axborot erkinligini ta‘minlash tamoyili konstitutsiyaviy tamoyil bo‘lib, 2023 yilda yangilangan Konstitutsiyaning 33-moddasiga muvofiq, har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi²⁸⁵. Demak, mazkur modda fuqarolarning axborot olish va undan foydalanishga doir huquq va erkinlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Ko‘rsatilgan konstitutsiyaviy normalar orasida “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi”²⁸⁶, deb ifodalangan 12-modda mavjud. Shuningdek, mazkur Asosiy qonunda 5 ta moddani o‘z ichiga olgan “Siyosiy huquqlar” nomli 8-bobning 36-, 37-,

²⁸⁴ Qarang: Европейский суд по правам человека и защита свободы в России: прецеденты, анализ, рекомендации. Т.1. // Под ред. Винокурова Г.В., Рихтера А.Г., СХернишева В.В. – М.: Институт проблем информационной права. 2002. – С. 139.

²⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 33 – moddasi. – T.: Adolat. 2023. – B. 22.

²⁸⁶ O‘sha manba – B. 22.

38-, 39- va 40-moddalarida jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar bevosita yoki o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega²⁸⁷ ekani belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini ta‘minlash, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat, davlatning axborot borasidagi xavfsizligini qonun yo‘li bilan ta‘minlanishi qayd etilgan.

Ko‘rsatilgan qonunga muvofiq, ma’lum bir axborotni taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rovga javob imkoni boricha qisqa muddatlarda, ammo 30 ish kunidan kech bo‘lmagan muddatda taqdim etilishi shart qilib qo‘yildi. Agar so‘rov tushgan muassasa yoki mansabdor shaxs so‘ralayotgan axborotga ega bo‘lmasa, murojaat etuvchiga bu haqda so‘rov olingan sanadan boshlab yetti ish kunidan kechiktirmasdan ma’lum qilishi kerak. Shuningdek, imkoniyat darajasida, unga bunday axborotga ega bo‘lgan organning yoki mansabdor shaxsning nomini ma’lum qilishi zarurligi belgilab qo‘yilgan. Shuni nazarda tutish kerakki, qonun davlat organlari murojaat etgan shaxsning huquqiy manfaatlariga aloqador axborotlarni bepul taqdim etishlari shartligini belgilaydi.

O‘tgan davr mobaynida ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan o‘nga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi. O‘z navbatida, fan va texnika insonlarning dunyoqarashiga, butun jamiyat rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining asosiy kafolatlari va har kimning ommaviy axborot vositalarida chiqishi, o‘z fikr va e‘tiqodini oshkora bayon etish huquqlari mustahkamlandi.

Konstitutsiya va yuqorida ko‘rsatilgan qonunda O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarini рензупа qilishga yo‘l qo‘yilmasligi qat‘iy belgilab qo‘yilgan²⁸⁸. E‘lon qilinayotgan xabarlar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek ularning

²⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 82 – modda. – T.: Adolat. 2023. – B. 45.

²⁸⁸ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 82 – modda. – T.: Adolat. 2023. – B. 45.

matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga bermasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Axborotlashtirish sohasini rivojlantirishda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solindi. Mazkur qonunda yuridik va jismoniy shaxslarning axborot texnologiyalari tizimlarini qo'llagan holda axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlari belgilab berilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari jamiyatning axborotlashuv darajasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan shu qadar jiddiy ahamiyatga egaki, bu nihoyatda murakkab va serqirra jarayonga daxldor muammolarni o'rganish, tadqiq qilish va tegishli xulosalar chiqarish mutaxassislardan alohida yondashuvni talab etadi.

Amerikalik siyosatshunos Gerbert Shiller, kapitalistik mamlakatlarning axborot sohasidagi jarayonlarni o'rganar ekan, u juda muhim xulosaga keldi: "axborot texnologiyalarining zamonaviy rivojlanishi qandaydir stixiyali jarayonlarning natijasi emas, ularning yaratilishi harbiy va xususiy tijorat manfaatlariga asoslanadi"²⁸⁹. Shunga ko'ra, ularning asosiy maqsadi jamiyatga xizmat qilish emas, balki harbiy qudratni mustahkamlash va foyda olishdir. Qo'shma Shtatlar va boshqa ko'plab mamlakatlarda "bozor totalitarizmi", ya'ni tijorat munosabatlarining jamiyat hayotining barcha sohalariga to'liq tarqalishini e'lon qilgan holda, axborot uzoq vaqtdan beri "tish pastasi, jo'xori uni yoki avtomobillar" bilan birga sotiladigan va sotib olinadigan iste'mol mahsulotiga aylandi. ". Mamlakatimizda axborot muhitini rivojlantirish ko'p jihatdan xuddi shunday yo'ldan bormoqda. Ammo shuni tushunish kerakki, bozor munosabatlarining bunday kengayishi ko'plab salbiy oqibatlariga olib keladi. Bozorning asosiy tamoyilini - foydani maksimal darajada oshirishni axborot sohasiga loyihalashtirish, axborot mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning, bir tomondan, o'z xarajatlarini kamaytirishga, ikkinchi tomondan, shunchalik ko'p odamlarning

²⁸⁹Шиллер Г. Манипуляторы сознанием / пер. с англ. Б. М. Погостина, А. Н. Бурмистенко. М., 1980. С. 186.

ehtiyojlarini qondirishga intilishlariga olib keladi. Shu sababli, media-axborot mahsulotlariga urg'u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlardan katta auditoriyani jalb qiladigan iqtisodiy jihatdan foydaliroq ma'lumotlarga o'tmoqda. Natijada, aksariyat telekompaniyalar bir xil axborot mahsulotini - ko'ngilochar, turli seriallar, ko'rsatuvlar, filmlar, musiqa va sport ko'rinishida taqdim etadilar. Ularning bozor sharoitidagi faoliyati oddiy qoidaga bo'ysunadi - ommaga taklif qilinadigan hamma narsa arzon bo'lishi kerak, chunki ommaviy aholining xarid qobiliyati past. Tabiiyki, bu axborot mahsulotlari sifatiga ta'sir qiladi. Shaxs ko'ngilochar dasturlar bilan bombardimon qilinadi, bularning barchasi G. Shiller "axborot axlati" deb atagan. "Bu axlat qiziqarli, chalg'ituvchi, juda ko'p g'iybat va juda kam qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi"²⁹⁰ degan fikrlarini aytgan edi.

Davlat va jamiyat boshqaruvida zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish usuli sifatida siyosiy axborotlarni rivojlantirish uzatish tizimi kommunikatsiyaning bir shakli sifatida rivojlanib bormoqda.

“Siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan davlatga “xalq xohish-irodasini ifoda etadigan organ”²⁹¹ deb ta'rif beriladi. Davlatni kim shakllantiradi? Xalq va uning muxtor vakillari. Binobarin, davlat va uning organlari avvalo kimga xizmat qilishi kerak? Albatta, xalqqa, turli mansab egalariga ovoz bergan va ishonch bildirgan fuqarolarga. Shu ma'noda, xalqimiz davlat xizmatidan rozi bo'lishga har tomonlama haqli va munosibdir. Ana shunday tamoyillar asosiga qurilgan davlat hokimiyatigina tom ma'noda xalqchil, demokratik hokimiyat hisoblanadi. Bunday davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy ildizlari mustahkam va baquvvat bo'lida o'zaro hamjihatlikda va hamfikir bo'lib yashashlari haqida ulug' mutafakkir Forobiyning shunday fikrlari bor: “Siyosat bosqichma-bosqich va davlat ishlaridagi boshqa tadbirlar bilan birga amalga oshiriladigan asosiy ish bo'lishi zarur. Bu ta'limot avvalan shu davrda urf bo'lgan odatlarni soxtalashtirish bilan mashg'ul odamlarga nisbatan qo'llanishi kerak. Bu soxtalashtirishlar qonunni yaxshi bilmaydigan

²⁹⁰Уэбстер Ф. Теории информационного общества / пер. с англ. М. В. Арапова, Н. В. Малыхиной. М., 2004. С. 201.

²⁹¹ Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. @rost24_uz_bot .17.08.2021 08:50

odamlar va bolalarda muayyan bir illatlarni paydo qilishi mumkin. Agar ta'limot va qonunlarga o'rganish ishlari bosqichma-bosqich va izchil olib borilsa, u holda ular a'lo natija beradi"²⁹².

Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy institutlar faoliyatini takomillashtirish, xalqning ma'naviyatini huquqiy bilimlar bilan to'ldirish zarur. Davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan qonunlarga o'z fikr-mulohazalarini bildirish kabi ta'limiy manbalar borki, xalq buni ongli ravishda anglay bilishi, tushunishi dolzarb masaladir.

Xalq jamiyatdagi axboriy-siyosiy jarayonni tushunmas ekan, ularning ongida insoniylikka zid bo'lgan g'oyalarga ergashish, turli safsatalarga ishonish ishtiyoqining paydo bo'lishiga olib keladi. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Inson qadri ulug'lanayotgan zaminda uning jamiyatdagi o'rni, qolaversa, huquq va erkinliklari, osoyishta turmush tarzi davlat tomonidan kafolatlanishi oliy mezon hisoblanadi. Siyosiy tizimning asosiy maqsadi – bu davlatning, ijtimoiy guruhlarining, shaxslarning qonuniy manfaatlari kelishilgan va to'liq hamda doimiy ravishda qondiriladigan samarali o'zaro ta'sirni ta'minlashdan iboratdir. Shu o'rinda ulug' hukmdor o'z davrining buyuk siyosatdoni Amir Temurning "Temur tuzuklari" asaridagi fikrlarda "Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustaxkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat, har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadim"²⁹³, deydi va uning siyosiy tadbirlari haqidagi bu manbalar davrlar osha, hozirda ham nihoyatda katta qiymatga ega. Zamonaviy demokratik davlat barpo etish jarayoni ketayotgan bugungi kunda xalqimiz erishgan eng muhim natija ham aslida demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan tus olayotgan mamlakatimizda davlat

²⁹² Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shaxri. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2012. – B. 89.

²⁹³ Temur tuzuklari. – T.: G'afur G'ulom NMIU. 1996. – B. 69.

organlari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi tobora kengayib borayotganligidir. Davlat boshqaruvi, vazir va hokimlar, barcha bo'g'indagi mansabdor shaxslar fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashib, amalda jiddiy shug'ullanmoqda, davlat organlari xalq bilan, har bir fuqaro bilan faol muloqot olib borayotgani, jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, yuksalishlarda hamfikir ekani, siyosiy axborotni davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga davlat tilida joylashtirilishi va axborotning ishonchli bo'lishi ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan axborot bilan bir xil kuchga egaligi ta'minlayotganligi fikrimizni dalillaydi.

Davlat va jamiyat boshqaruvining zamonaviy strukturasi (tuzilmalarini) yaratish masalalari bugungi kunning birinchi darajali dolzarb vazifasi sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Har bir rahbarning vazifasi – mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatni, uning ustuvor yo'nalishlarini, strategik maqsadlarini to'g'ri tushunish, odamlarning ertangi kunini o'ylash, buning uchun munosib shart-sharoit yaratib berishdan iborat. O'zbekistonning yangi rahbari o'zining birinchi ish kunidan bu masalalarga kengroq nazar tashladi. Hayotga tatbiq etilayotgan xalq bilan muloqot masalasi juda qisqa muddatda boshlab yuborildi. Fuqarolar bilan uzluksiz muloqot yozma, og'zaki va virtual shakllar asosida olib borilmoqda. Bajarilayotgan vazifalar yuzasidan xalq oldida hisobot berib borilayotganligi buning isbotidir.

Davlat va jamiyat boshqaruvida inson qadrining ulug'lanishi, uning jamiyatdagi o'rnini tobora yuksaltirish muhim zaruratga aylandi. O'z fikr-mulohazalarini erkin bildirishi, saylash huquqiga ega ekanligi, bularning barchasi insoniy qadriyatlar qadrlanishi, qonunlarning davlat uchun emas, avvalo xalq uchun xizmat qilishi bilan e'tiborlidir. Inson va uning manfaatlarini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, mehr-oqibat, insonparvarlik muhitini mustahkamlash, ko'pchilikni o'yantirayotgan dolzarb muammolarni hal qilish ustuvor vazifa sifatida fuqarolar hayotida o'z isbotini topmoqda.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlariga murojaat qilar ekanmiz, tarixiy asarlarda yozib qoldirilgan manbalarning guvohlik berishicha, bunday bahslar sof nazariy qarashlar doiralaridan chiqqan holda ma'lum bir tuzum va davlatlarning rasmiy

mafkurasi maqomini ham olgan. Kechagi tarix biz uchun hayot maktabi, bamisoli tiniq bir ko'zgu. Unga qarab saboq olamiz, xulosa chiqaramiz, kelajak yo'lini belgilaymiz.

Shu o'rinda yana bir masalaga to'xtalib o'tmasdan iloj yo'q. Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tizimida boshqaruv huquqi – bugungi kunda, ya'ni davlat rahbari tomonidan ko'rsatilgan saylovoldi dasturida bayon etilgan, “islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun” degan eng muhim tamoyilni amalga oshirilishini maqsad qilib, mamlakatimiz birinchi Prezidentining boshqaruvini davom ettirgan holda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish borasida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini amalga oshirish va shu yo'sinda siyosiy tizimni rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash asnosida rivojlangan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish kerakligini anglatadi. Fuqarolarning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishdagi tashabbuslarini amalga oshirishda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtiroki zarur. Shuni hisobga olib, bugungi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi va uning apparati faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq holda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish kerak.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, shu bilan birga, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligining kafolati ekanligi matbuotda bong urilmoqda. Aholi turmush darajasini oshirish mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta'minlashning eng muhim ustuvor masalasi bo'lib turibdi. Davlat rahbarining xalq bilan olib borayotgan muloqotlari, bosqichma-bosqich o'tish davrida xalqni konstitutsiyaviy ta'limotdan xabardor qilish maqsadida muntazam xalqchil qonunlar hayotga tatbiq etilayotgani, har yilning mamlakatni rivojlantirishdagi muayyan ustuvor strategik masala bilan bog'liq nom bilan atalishi siyosiy an'ana sifatida e'tiborga molikdir.

Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, huquqiy targ'ibot ishlarida qator ommaviy aksiyalar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Huquqiy targ'ibot sohasida zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanish kengaytirildi. “Telegram” ijtimoiy messenjeridagi “Huquqiy axborot” kanali orqali

2022 yilda tarqatilgan 2 400 tadan ortiq huquqiy targ‘ibot materiali jami 123 mln marta ko‘rildi²⁹⁴.

Shu bilan birga, huquqiy targ‘ibot sohasida muayyan kamchiliklar, o‘z yechimini kutayotgan muammolar va to‘liq foydalanilmagan imkoniyatlar ham mavjud. Xususan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta‘lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli hamda uzviy olib borilmayotganligi sir emas. Jamiyatda manzilli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta‘minlanmayapti. Bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko‘zga tashlanmayapti.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan muhosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks yondashuv kuzatilmayapti. Yoshlarning huquqiy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda o‘zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlari, milliy qadriyatlariga yetarli tayanilmagan.

Ayrim davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari faoliyatida o‘z sohasiga taalluqli qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining matnini quyi bo‘g‘inlarga to‘liq yetkazilmaslik holatlari saqlanib qolmoqda. Davlat organlari tomonidan huquqiy targ‘ibot tadbirlari hamon an‘anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ‘ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Bunday holatlar keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholi e‘tiboriga samarali yetkazishda salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, davlat dasturlari hamda davlat va jamiyat hayotida ro‘y berayotgan muhim o‘zgarishlar va yangilanishlarga nisbatan senatorlarning munosabati, fikr va mushohadalarini ommaviy axborot vositalarida doimiy tarzda e‘lon qilib borishga alohida e‘tibor qaratildi.

Bu borada, ayniqsa, Xalqaro press-klub sessiyalarida, “Ijro intizomi” tok-shousida ko‘plab chiqishlar qilindi. Shuningdek, Senat faoliyati bilan bog‘liq muhim

²⁹⁴ Qarang: <https://t.me/huquqiyaxborot>. Murojaat vaqti: 6.08.2023.

yangiliklar, qabul qilingan hujjatlar, qo‘mita va komissiyalarning nazorat-tahlil faoliyati natijalari, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari bilan uchrashuvlar tafsilotlari Senatning yangilangan veb-saytida muntazam ravishda yoritib borildi.

